ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 2.3

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.07.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:
Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Dilrabo Ergasheva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.07.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www.philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Дильрабо Эргашева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.07.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)
Dilrabo Ergashova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

ANDANIYAZOVA DILRABO RUZIQULOVNA
Muvaqqat onomastik birliklarning baholash vazifasi.....7

ESHBOYEV QAHRAMON BAKIR O‘G‘LI
O‘zbek tili sinonimik lug‘atlarida semantik darajalanishning metodologik tamoyillari.....11

BOZOROV HAMID XO‘SHMURODOVICH
Olamning lisoniy va folklor manzarasida ertak janrining o‘rni.....14

BAYMURODOVA LAYLO KAXROMANOVNA
Badiiy diskursda xushmuomalalik strategiyalarining ifodalanishi 20

KHAYITOVA FERUZA ABDIKHALIKOVNA
A linguocultural study of toponyms in english and uzbek languages 24

PRIMOV SHAMSIDDIN MUHIDDIN O‘G‘LI
Siyosiy jarayonlarning yoritilishida hajviy publitsistikaning o‘rni va ahamiyati 27

JO‘RAYEVA NIGORA BAXTIYOR QIZI
Dastlabki ruscha-o‘zbekcha lug‘atlar tarjimasida so‘zlikni izohlash usullari (Ashurali Zohiriy va Abdulla Qodiriy lug‘atlari misolida).....31

PO‘LATXONOVA HILOLAXON SHUHRATXON QIZI
Neurolinguistic analysis: language and brain 35

TAMIQAYEVA DILAFRUZ
Alisher Navoiyning «Saddi Iskandariy» dostonida qo‘llangan ba’zi bir somatik iborlar tahliliga doir 39

AHADOVA GULCHEHRA
Toyloq shevasiga xos ma’nodoshlik qatorlari xususida 42

MUHSINJONOVA SHIRINOY ASLIDDIN QIZI
“Devonu lug‘otit-turk” asarining o‘rganilish tarixi.....46

МУНДАРИЖА

ADABIYOTSHUNOSLIK

KODIROVA SAODAT ABDIRAXIMOVNA
Maqollarni adabiyotshunoslik aspektida tadqiq
etishda nazariy yondashuvlar 48

АБДУЛЛАЕВ МАХМУД АХМАТОВИЧ
Таджикские литературоведы 50-60-х годов
XX века о научно-литературных работах садриддина айни
в контексте узбекско-таджикских литературных связей 52

SUVONQULOVA LAYLO MAHMUD QIZI
Adabiyotshunoslikda motiv obraz
tushunchasiga oid nazariy qarashlar 54

RAXIMJONOVA SAFARMO AKBARALI QIZI
Jadid adabiyotida vatan, din va til konsepsiyasi 57

TA’LIM

ПАРДАЕВА ДИЛФУЗА РАИМОВНА,
РАХМАНОВА МАХЛИЁ ИЛХОМОВНА
Авторские сказки как средство развития речевой активности 61

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 6-7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

MUVAQQAT ONOMASTIK BIRLIKLARNING BAHOLASH VAZIFASI

Andaniyazova Dilrabo Ruziqulovna,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi

Badiiy matnda muvaqqat onomastik birliklar nominativ, xabar berish vazifalari bilan birga baholash vazifasini ham bajaradi. Ta'kidlash o'rinliki, bunday birliklarning baholash vazifasi eng asosiy vazifa bo'lib, u estetik vazifaga ham yo'l ochadi. Kabardin yozuvchilari ijodidagi antroponimlarni tadqiq etgan M.A.Kardanova ijobiy obrazlarning ijobiy ma'noli, salbiy obrazlarning esa salbiy ma'noli nomlar bilan atalishi badiiy matnga xos xususiyatlardan biri ekanligini qayd etadi[1]. Tadqiqotchi o'z ishida ayrim yozuvchilar salbiy qahramonlar nomini ongli ravishda ijobiy ma'noli nomlar bilan ataganligi haqida gapirib, buni antroponimlarning alohida badiiy-estetik vazifasi sifatida baholaydi va mazkur hodisani *personaj-nom antinomiyasi* termini bilan nomlaydi[2].

«O'zbek tili leksikologiyasi**»** kitobida so'z narsa-hodisani ifodalashi barobarida ko'pincha shu narsa-hodisaga so'zlovchining subyektiv munosabatini ham anglatishi alohida ta'kidlangan bo'lib, unda lug'at tarkibidagi so'zlarni kuzatish ularning ba'zilari faqat biror narsa, hodisalarni atamay, ayni paytda so'zlovchining ifodalanayotgan tushunchaga o'z bahosini, munosabatini ifodalanishini ham ko'rsatadi, deyiladi[3]. Ma'lumki, bu munosabat doirasiga g'azab, erkalash, qoyil qolish, nafratlanish, jirkanish, kinoya kabi xilma-xil emotsional munosabat ko'rinishlari kiradi. Xususan, *go'zal, iboli, o'ktam, qoyilmaqom, so'lqildoq, boplamoq, olchoq, mal'un, razil, satang, sanqi, miyanqi* kabi so'zlar ma'lum tushuncha anglatishdan tashqari, so'zlovchining shu tushunchaga loqayd qaramasligini, aksincha, ijobiy va salbiy emotsional munosabatda ekanligini ham ko'rsatib turadi. **«**Bu baho elementi tinglovchi tomonidan ham odatda so'zlovchi nazarda tutgandagidek idrok etiladi. Tilshunoslikda bunday xususiyatga ega bo'lgan leksika *emotsional-ekspressiv leksika, ekspressiv-stilistik leksika* terminlari ostida o'rganilmoqda**»**[4].

Favqulodda yaratiladigan individual so'zlar ijodkorning faqatgina intellekti – fikrlash qobiliyatigagina emas, balki uning hissiyotiga, voqelikni, dunyoni estetik jihatdan qabul qilishiga ham bog'liq holda qo'llanishi haqida fikrlar ilgari surilgan[5]. A.G.Likov ta'kidlaganidek, badiiy matn talabi yoki muayyan nutqiy vaziyat uchun yaratiladigan onomastik birliklarda bu jarayon yanada ijodiy tarzda namoyon bo'ladi. Chunki nom tasodifiy tanlov emas, balki obrazning ma'naviy-ruhiy qiyofasi, ijtimoiy maqomi kabi turli xususiyatlarni ifodalashga xizmat qiladigan vositadir. Shu bois har bir ijodkor yangi nom yaratar ekan, u orqali qahramon yoki makonga nisbatan subyektiv munosabatini ham namoyon qiladi. Demak, bunday nomlar tasodifiy emas, balki chuqur mushohadaga, estetik maqsadga yo'naltirilgan holda yaratiladigan badiiy ijod mahsulidir. Umuman, badiiy ijod – bu faqat axborot berish emas, balki o'quvchida muayyan estetik taassurot uyg'otish, ta'sir etish va voqelikni qayta yaratish jarayonidir.

Ijodkorlar borliqni, ya'ni olamda kechayotgan voqea-hodisalarni, inson tafakkuri va ruhiyatini, tabiat manzaralarini chuqurroq anglab borishga intiladilar. Ular o'z tafakkurida ushbu reallikni badiiy idrok etib, uni nafaqat oddiy so'zlar orqali, balki o'quvchi qalbiga yetib boradigan, falsafiy va estetik ta'sir kuchiga ega yangi ifoda vositalari orqali aks ettirishga harakat qiladilar. Bu jarayonda mavjud so'zlar, iboralar, qoliplar ko'pincha ularning badiiy niyatini to'liq ifoda etish uchun yetarli bo'lmay qoladi. Shu sababli ijodkor o'z hissiyot va mushohadasini, hayotiy va ruhiy holatlarni ifodalash uchun tilda hali mavjud bo'lmagan, lekin tinglovchi yoki o'quvchi ongida anglashiladigan, ta'sirchan va yangicha mazmunga ega birliklarni yaratishga urinadi. Ana shunday holatda tilning ichki imkoniyatlaridan, lug'at boyligidan va so'z yaratish qonun-qoidalaridan foydalanib, o'ziga xos, favqulodda yangi birliklarni yaratish ehtiyoji yuzaga keladi.

[1] Карданова М.А. Стилистические функции антропонимов в современной кабардинской прозе: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Нальчик, 2000. – С. 20.
[2] Карданова М.А. Ko'rsatilgan asar. – Б. 20.
[3] Ҳожиев А. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 160.
[4] Ҳожиев А. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 160.
[5] Bu haqda qarang: Лыков А.Г. Окказиональное слово – как лексическая единица речи // Филологические науки. – 1971. № 5. – Б. №5. – С. 78.

Bunday yaratilgan birliklar muayyan badiiy maqsad, matn va obrazlilik talabidan kelib chiqqan holda, badiiy asarda alohida ahamiyat kasb etadi, estetik ta'sirni kuchaytirishga xizmat qiladi. Bunda nom berish jarayonida muallifning dunyoqarashi, estetik didi, ijtimoiy-ruhiy pozitsiyasi, ayni paytda, obrazga bo'lgan subyektiv munosabati ham muhim o'rin tutadi. Muallif obrazni qanday ko'radi, uning mohiyatini qay darajada chuqur anglaydi va qanday tasvirlamoqchi – mana shu omillar ijod qilingan nomad to'g'ridan to'g'ri o'z ifodasini topadi.

Tadqiqotlarda okkazionalizmlarning quyidagi bir necha vazifasi sanalganda, ularning baholash vazifasiga ham alohida e'tibor qaratiladi:

1. Okkazional so'z, eng avvalo, nominativ vazifa bajaradi.

2. Xabar berish vazifasini bajaradi.

3. Baholash vazifasini bajaradi.

4. Estetik va obrazlilikni ifodalash vazifasini bajaradi[1].

Muvaqqat onomastik birliklarning baholash vazifasi o'ziga xos bo'lib, bunday birliklar orqali ijodkorning subyektiv munosabati ifodalanadi.

Muvaqqat onomastik yasalmalar baholash vazifasiga ko'ra quyidagi belgilarni yaqqol ifodalaydi:

1. **Ijobiy ma'no ifodalovchi muvaqqat onomastik birliklar va ularning badiiy-estetik xususiyatlari:** Bunga tavsiflovchi, ya'ni nomning appelyativ ma'nosi bilan qahramon, joy yoki hayvonlarning muayyan ijobiy belgisiga ishora qiluvchi nomlar kiradi. Misollar: *Tongyorug', Manguhayot, Manguqut* (U.Azim), *Quvnoqboy* (folk.), *To'g'riboy* (folk.) *Quyoshiston* (M.Yusuf, E.Vohidov), *Oltiniston* (A.Oripov), *Salomobod* (M.Shayxzoda) va b.

Ma'lumki, an'anaviy ismlar mohiyatan insonning ichki va tashqi go'zalligi hamda ijobiy sifatlari bilan bog'liq bo'ladi. Ya'ni yangi tug'ilgan chaqaloqqa ism tanlanayotganda uning ehtimoliy fazilatlaridan umid qilinadi. Ism ma'nosiga ko'ra yaxshi xislatlar egasi bo'lishi uchun niyat qilinadi. Badiiy onomastikada esa qahramonga tanlanayotgan ism uning muhim ijobiy qirralarini o'zida mujassam etib, kalit vazifasini bajaradi.

Muvaqqat onomastik birliklar ichida ijobiy ma'no yuklangan nomlar alohida diqqatga sazovor. Ijobiy ma'noli nomlarning yuzaga kelishi, avvalo, muallif pozitsiyasi, uslubi bilan bog'liq bo'ladi. Qolaversa, badiiy matnda ijobiy ma'noli muvaqqat onomastik birliklar muayyan estetik holatni yaratish maqsadida qo'llaniladi. Bunday nomlar ko'p hollarda qahramonning ulug'vorligi, poklik, hayotparvarlik, ezgulik, quvonch, muhabbat, vatanparvarlik, sadoqatlilik, mehribonlik kabi ijobiy belgilarini tavsiflash uchun yaratiladi.

Ijobiy ma'noli muvaqqat onomastik birliklar shakl va mazmun birligi tamoyili asosida nafaqat nom egasining xususiyatlarini tavsiflaydi, balki badiiy matnning umumiy estetik muhiti, pafos va ruhiy ta'sirini ham belgilab beradi. Ular o'quvchi qalbida iliq, ijobiy histuyg'ular uyg'otish vazifasini bajaradi. Masalan, *Quvnoqboy* nomida insonga xos bo'lgan quvonch, shodlik, hayotga tashnalik kabi tushunchalarga ishora bor. Bu turdagi nomlar odatda xalq orasida to'qilgan bo'lib, ulardan sodda, xalqparvar insonlar obrazini yaratish uchun foydalaniladi. Folklor asarlarida bunday nomlar ko'p uchraydi.

Misollarda kuzatilgan *Quyoshiston, Oltiniston, Salomobod, Birlashgan Gullar Tashkiloti, Manguhayot, Tongyorug', Manguqut* kabi ijobiy ma'noli muvaqqat nomlarda o'quvchining hissiy-tafakkur faoliyatiga ta'sir etib, ularni estetik zavq olishga undaydigan hamda tasvirdagi monotonlikni rang-baranglikka o'zgartiradigan xususiyatlar bor. Badiiy adabiyotning eng muhim vazifalaridan biri ham estetik funksiya bajarish ekan, bizningcha, bunday individual topilmalar badiiy asar uchun o'ta muhim.

Quyida U.Azimning «Tong otgan taraflarda» nomli dramatik asarida qo'llangan ijobiy ma'no anglatgan nomlarni tahlil qilamiz. Qahramonlar ismlarining muayyan maqsad bilan tanlangani jihatidan «Tong otgan taraflarda» nomli dramatik asari diqqatga molik bo'lib, u xalqning tarixiy xotirasi bilan bog'liq o'ziga xos monumental asar hisoblanadi. Asarda xalq ardoqlagan rivoyatlar, qahramonlar, urf-odatlar katta mahorat bilan asar syujetiga singdirilgan. Ayniqsa, asar qahramonlari ismi ohorliligi, ayni paytda ko'nikilmaganligi bilan e'tiborni jalb qiladi. Ismlarning o'zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida hosil qilingani hamda ularda aks etgan umumturkiy tilning tarovati o'quvchini befarq qoldirmaydi. Masalan, asardagi bosh qahramon bo'lgan ona obrazining nomi *Tongyorug'* bo'lib, u mansub bo'lgan xalqning nomi *Tongli*. Bu ikkisini birlashtirib turgan motiv *tong* so'zi hisoblanadi. Tongyorug' vatanparvarlikda, o'z qadriyatlariga sodiqlikda qanchalik nom qozonsa, Tongli xalqi ham atrof-javonibga ma'lum va mashhur bo'laveradi. *Tongyorug'* antroponimi muallif ijodiy tafakkurining mahsuli hisoblanadi. *Tong* ham aslida yorug'likni ifodalaydi. *Yorug'* so'zi bilan birikkanda esa barcha tonglarning yorug' bo'lishi istagini namoyon qiladi: ***TONGYORUG':*** *Bilib qo'y, o'g'lim, dunyodagi eng chiroyli xalq* ***Tongli*** *xalqidir. Chunki Tongli xalqi xiyonatni bilmaydi. Bu xalq xiyonatni bilmagani uchun qaro yerga kirdi. Tonglilarning erkaklari mard, pahlavon; ayollari dunyodagi eng go'zal ayollardir. Bilib qo'y! Hech qachon unutma! Eng chiroyli xalq Tongli xalqidir! Chunki u xiyonatni bilmaydi!..* U.Azim, «Tong

[1] Bu haqda qarang: Тўхтасинова О. Ўзбек тилида лексик окказионализмлар ва уларнинг бадиий-эстетик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2007. – Б. 120.

otgan taraflarda».

Adabiyotshunos M.Fazilova «Usmon Azimning dramaturgik mahorati» nomli kitobida adib dramalarini tahlil qilar ekan, *Tongyorug‘* ismiga ham diqqat qaratadi: «Tongyorug‘ obrazi ijodkor tomonidan yaratilgan ayol obrazlarning cho‘qqisidir. Ismining o‘ziga qarang: *Tongyorug‘,* demak, uning ertangi kuniga katta umid bor. Tongyorug‘ yashagan davr uzoq tarixga borib taqalsa-da, ushbu obrazni tom ma’noda millati, xalqi baxti, uning ertangi kuni uchun yashayotgan abadiy qahramon sifatida talqin etish mumkin»[1]. Darhaqiqat, U.Azim qahramonlarning ruhiyatidagi qat’iylik sifatlarini ularning nutqi va harakatlari va ismlari orqali ham ifodalashga erishgan, deyish mumkin. Ta’kidlash o‘rinliki, asar qahramonlarining ismi muallifning tarixga, bugunga va ertangi kunga munosabatini teran ifodalaydigan behad falsafiy ismlardir. Ba’zan shunday tasavvur uyg‘onadiki, go‘yo butun asarning mohiyati shu ismlarda mujassam bo‘lgandek.

Asar qahramonlarining ismi, asosan, uzoq o‘tmish bilan bog‘liqligi, milliy qadriyat va tafakkur tarzi bilan uyg‘unligi jihatidan ham qimmatli. Muallif hech bir qahramonining ismini shunchaki tanlanmaydi. Har biri o‘ziga xos ma’no va mazmun bilan to‘yingan bo‘lib, jumladan, *Manguqut, Kunyorug‘, Yolg‘iz Mergan, Manguhayot, Eltug‘u* kabi antroponimlarga e’tibor berilsa, ismi jismiga va faoliyat tarziga mosligi jihatidan mukammal topilgan. Bu antroponimlar, birinchi navbatda, muallif to‘qigan ismlar bo‘lib, ular o‘zbek onomastik tizimida uchramaydi. Biroq har biri antroponimik tamoyillar asosida shakllantirilgan. *Manguqut* antroponimi *mangu* va *qut-baraka* so‘zlarining sintezidan hosil bo‘lgan. *Mangu* so‘zi uzoq umrni, abadiyat ma’nosini anglatadi. *Qut* so‘zi bilan birgalikda barakaning umr bo‘yi davom etishi istagini ifodalaydi. *Manguqut* ismli qahramon 65-70 yoshli o‘ziga to‘q donishmand chol qiyofasida tasvirlangan. Bunda *qut* so‘zining tarixiylik ma’no qirrasi ham sezilib turadi. *Mangu* so‘zi bilan hosil qilingan yana bir personaj ismi borki, u 18 yosh atrofidagi yosh navqiron qiz qiyofasida tasvirlanadi. Uning ismining ikkinchi komponenti *hayot* so‘zi bo‘lib, *mangu+hayot* so‘zlarini qo‘shish orqali ism egasiga uzoq umr tilash motivi singdirilgan. Agar mazkur ismlar almashtirib qo‘llanganda, ya’ni cholning ismi *Manguhayot*, qizning ismi *Manguqut* deb atalganda, ism va yosh o‘rtasidagi mantiqiy muvofiqlikka putur yetgan bo‘lar edi. Shu ma’noda, muallifning qahramon ismlarini yaratishdagi ijodiy yondashuvi muvaffaqiyatli chiqqan deyish mumkin: ***Manguqut*** *xarsangga suyanib arang turibdi. Tongyorug‘ va Kunyorug‘larning qo‘llarida chaqaloqlari, uning qarshisida tik qotishgan.*

MANGUQUT: Ena qizlarim! Menga jonimni topshiradigan damlar yetganga o‘xshaydi. Endi yig‘lamasdan, yaxshilab tinglanglar!

KUNYORUG‘ (yig‘lar ekan): Yig‘lamaymiz!… Yig‘lamaymiz!

TONGYORUG‘ (izillab): Hech yig‘lamaymiz! Hech qachon…

KUNYORUG‘: Faqat siz yotib oling! Yaradorsiz… Oyoqda arang turibsiz…

MANGUQUT: Hozir aytadigan gapim juda izzat-hurmatli lafz. Tik turib aytmasam, bo‘lmaydi… U.Azim, «Tong otgan taraflarda».

Ta’kidlash kerakki, milliy til tabiatiga mos holda yaratilgan ijobiy ma’noli nomlarning onomastik tizimga o‘tishi adabiy tajribalarda kuzatiladi. Ya’ni ba’zi mualliflik ismlari vaqt o‘tishi bilan bir necha asarlarda qo‘llanishi yoki ijtimoiy hayotda foydalanilishi natijasida tilning onomastik tizimidan o‘rin olib faollashadi. Bunga misol sifatida quyidagi ma’lumotni keltiramiz. Rus tili onomastik tizimiga mansub bo‘lgan *Svetlana* ismi ham dastlab badiiy asarda qo‘llangan, ijodkor tomonidan maxsus to‘qilgan nom hisoblanadi. Ya’ni hozirda ancha faollashgan bu ism aslida slavyan tillarida bo‘lmagan. Uni shoir Aleksandr Vostokov «Svetlana va Mstislav» (1802) romansida qo‘llagan bo‘lib, shoir bu nomni yasash uchun *svet* (nur) va *lan* (qadimgi rus tilida *dala*) so‘zlarini qo‘shgan. Natijada «nurafshon dala» ma’nosidagi ism paydo bo‘lgan. Keyinchalik shoir Vasiliy Jukovskiy «Svetlana» (1812) degan ballada yozadi va bu ism ommalashib ketadi[2]. Mazkur to‘qilgan nomning ommalashishida, avvalo, ism anglatgan ma’no jalb qiluvchi ekanligi bo‘lsa, bunda ismning ohangdorligi ham muhim ahamiyat kasb etgan.

2. Salbiy ma’no ifodalovchi muvaqqat onomastik birliklar va ularning badiiy-estetik xususiyatlari. Bunga salbiy ma’no anglatgan emotsional-ekspressiv, parodiya yo‘li bilan hosil qilingan nomlar kiradi. Misol: *Xasisxo‘ja, Qog‘oz Bozov, Yebto‘ymasov, G‘iybatillo*, *Qahratoniya, Ranjkom.* Salbiy ma’no anglatgan emotsional-ekspressiv poetonimlar orqali personaj yoki joy nomiga nisbatan salbiy emotsiyalarni ifodalash maqsad qilinadi. Mana shunday holatda muallif favqulodda yangi nom yaratadi. Masalan, *xasis* so‘zi ma’nosini o‘zida mujassam qilgan *Xasisxo‘ja* (H.Siddiq) ismi ham muayyan badiiy maqsad va ijodkorning subyektiv munosabati hamda matn vaziyati sababli yaratilgan nom hisoblanadi. Shuningdek, *to‘ymas, yulg‘ich, olibsotar, yebto‘ymas, kemirmoq* kabi fe’l shakllari asosida yaratilgan *To‘ymas, Yulg‘ich, Olibsotarov, Yebto‘ymasov, Kemirboyev* kabi ism va familiyalar ham maxsus yaratilgani hamda ko‘nikilmaganligi bilan e’tiborni tortadi.

Ijodkor qahramoniga nom tanlar ekan, qahramonning tashqi qiyofasini, xarakter-xususiyatini yoki

[1] Фазилова М. Усмон Азимнинг драматургик маҳорати. Монография. – Тошкент: Тафаккур қаноти. 2016. – Б. 194.

[2] Бу ҳақда қаранг: https://omiliya.org/article/svetlana-i-mstislav-aleksandr-vostokov?ysclid=ma6j80k0av229480269

kasbi va mashg‘ulotini aniq, hayotiy ifodalashga harakat qiladi. Bunda mavjud onomastik tizimdagi doim qo‘llanib kelingan, ya’ni ko‘nikilgan nomlarning har doim ham qahramonni aniq ifodalash uchun imkoniyati bo‘lmaydi yoki qahramonga yuklangan badiiy maqsadni to‘la qamrab ololmaydi.

Tabiiy, bunday ism yoki familiyalar odatiy antroponimlar tizimida mavjud emas. Chunki onomastik tizimdagi nomlar doim ijobiy maqsadda qo‘yiladi. Onomastik tizimdagi nomlarning badiiy onomastikadagi nomlardan ham farqi shuki, badiiy matnda qahramonlar ijobiy ma’noli nomlar bilan birga salbiy ma’noli nomlar bilan ham ataladi. Kundalik hayotda esa salbiy ma’no anglatuvchi nomlar odatda laqablar doirasida kuzatiladi.

Quyidagi matnda *Xasisxo‘ja* muvaqqat antroponimi salbiy ma’noga ega bo‘lgan nom sifatida badiiy-estetik vazifa bajargan*: – Tejamkorligimga endi qoyil qolarsiz, dadasi, – dedi bir kuni xotini* ***Xasisxo‘jaga.*** *– O‘zimning eski ko‘ylagimdan sizga galstuk tikib qo‘ydim.*

– Mutlaqo qoyil emasman. Men sening tejamkorligingga qachon tan berishim mumkinligini aytaymi? Mening eski galstugimdan o‘zingga ko‘ylak tikib olganingda. H.Siddiq, «Qoyil emas».

Keltirilgan parchadagi *Xasisxo‘ja* ismi matn talabi bilan muallif tomonidan yaratilgan o‘ziga xos, individual ism hisoblanadi. Muvaqqat antroponim salbiy ma’noga ega bo‘lgan *xasis* so‘zi hamda ijobiylikni ifodalaydigan *xo‘ja* komponenti birikishidan hosil bo‘lgan. Ismning *xasis* komponenti o‘zbek tilida «juda tejamkor, ziqna» ma’nosini anglatadi. Ismlarga qo‘shiladigan *xo‘ja* so‘zi esa diniy mazmunga ega bo‘lib, hurmatli shaxs ma’nosida qo‘llanadi. Muallif bir-biriga zid ma’nodagi so‘zlardan ism hosil qilib, ziddiyatli obraz yaratgan. *Xasisxo‘ja* ismi yuqoridagi xususiyatlari bilan kinoyaviy ma’noga ega muvaqqat antroponim hisoblanadi.

Fonetik jihatdan *xasis va xo‘ja* so‘zlaridagi *x* tovushi alliteratsiyasi ismdagi tovush uyg‘unligini ta’minlagan. Bu kabi ismlar odatda satira janrida maqsadli qo‘llanib, shakl va mazmun uyg‘unligi tamoyiliga asoslanadi. *Xasisxo‘ja* obrazi orqali muallif jamiyatdagi manfaatparastlik va mantiqsiz tejamkorlikka nisbatan o‘quvchida kulgi hosil qilishga erishgan. Qahramon nutqidagi «galstukdan kiyim tikish» orqali ortiqcha xarajatdan qutilish fikri to‘qilgan nomning ma’nosini bir qadar yoritishga yordam bergan. Matndan tashqarida *Xasisxo‘ja* nomi haqida muayayn tushunchaga ega bo‘lish mumkin. Biroq uning xasisligi qay darajada ekanligi nom aloqador bo‘lgan matnda yorqin namoyon bo‘ladi. Bu o‘rinda diqqat qaratiladigan yana bir jihat borki, shaklan qisqa hajviy matnga «Qoyil emas» degan sarlavha qo‘yilgan. Ya’ni ayolining o‘z kiyimidan galstuk tikishdek mohirligi Xasisxo‘jani qoyil qoldirmaydi. U ayolini bu topqirligi uchun maqtamaydi. Shu o‘rinda muvaqqat nomning yana bir jihati namoyon bo‘ladi. Xasisxo‘ja nafaqat narsa-buyumga xasis, balki u so‘zga, maqtovga ham xasis. Matnda ism semantikasi va qahramon xarakteri uyg‘unligi mahorat bilan ochib berilgan.

Umuman, muvaqqat onomastik birliklar badiiy matnning nafaqat ta’sirchan bo‘lishini ta’minlaydi, balki ijodkorning subyektiv munosabatini ham ifodalaydi. Ba’zi muvaqqat onomastik birliklar qahramonlarga nisbatan o‘ta salbiy munosabatni ifoda etish va shu orqali jamiyatdagi muayyan illatlarga ishora qilish maqsadida yaratilgan bo‘lib, bu turdagi nomlarda, odatda, kuchli kinoyaviy munosabat yotadi. Masalan, *tuhmat, g‘iybat, maraz* kabi salbiy ma’noga ega leksemalardan hosil qilingan *Tuhmatullo, G‘iybatullo, Marazullo* kabi nomlar orqali muallif o‘zining jiddiy tanqidiy pozitsiyasini ifoda etgan. Bunday nomlar nafaqat, ijodkorning subyektiv munosabatini aniq ifodalashga, balki qahramonlarga nisbatan yuqori darajada salbiy munosabat uyg‘otishga xizmat qiladi. Muvaqqat nomlarning ijobiy yoki salbiy ma’no ifodalashi muallif badiiy niyati, matn vaziyati, shuningdek, asar janriga ham bog‘liq bo‘ladi.

Rezyume: Mazkur maqolada ijodkorlar tomonidan yaratilgan muvaqqat onomastik birliklarning badiiy-estetik xususiyatlari, ularning baholash vazifasi yoritilgan. Ijobiy va salbiy ma’no anglatgan nomlarning badiiy matndagi o‘rni, ularning turli vazifalari misollar asosida ko‘rsatib berilgan.

Резюме: В данной статье освещены художественно-эстетические особенности временных ономастических единиц, созданных творцами, их оценочная функция. В частности, на примерах показана роль имён, имеющих положительное и отрицательное значение в художественном тексте, их различные функции.

Abstract: This article highlights the artistic and aesthetic features of temporary onomastic units created by the creators, their evaluative function. In particular, the role of names with positive and negative meanings in the literary text, their various functions are shown on the basis of examples.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 6-7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O'ZBEK TILI SINONIMIK LUG'ATLARIDA SEMANTIK DARAJALANISHNING METODOLOGIK TAMOYILLARI

Eshboyev Qahramon Bakir o'g'li,
Renessans ta'lim universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Graduonimiya hodisasi o'zbek tilshunosligida o'tgan asrning oxirgi o'n yilligida tadqiqot ob'ekti sifatida olinib, lug'aviy-ma'noviy munosabatning alohida bir turi maqomida tadqiq qilindi. Graduonimiya «...lisoniy ma'noviy munosabatlarni aks ettiruvchi sinonimiya, omonimiya, antonimiya kabilarning umumiy tarkibiy qismi bo'lgan – onimiya qismini lotincha gradu (daraja, bosqich) so'zi bilan biriktirish asosida sun'iy ravishda yasaldi. Bu hodisa 1990-yilda tilshunos R.Safarovaning nomzodlik dissertatsiyasida ilmiy faraz sifatida berilgan bo'lsa, lug'aviy darajalanish olima Sh.Orifjonovaning nomzodlik dissertatsiyasida atroflicha tadqiq etildi»[1].

Tilshunos G'.Rahmonov sinonimik qatorni ajratishda tilshunoslikning tayanch nuqtasi so'zlarning ma'nosida va bu so'zlar anglatib, nomlab kelgan voqelikning, denotatning aynanligida bo'lsa, graduonimik lug'aviy qatorlarda so'zlarning ma'nosi bilan bir qatorda shu so'zlarning semantik qurilishlaridagi miqdoriy ko'rsatkichlar bilan farqlanib turuvchi ayni bir belgining darajasida hamdir deya ta'kidlaydi. Chunonchi, yashash joyi hajmi semasida: *in → uya → uy; hasham → bezak* belgisiga ko'ra: *kulba→ hujra → xona → uy→ hovli → qasr → saroy → koshona* kabi graduonimik leksik paradigmalar. Bu leksemalar qatori umumiy bir tushuncha (insonning yashashi uchun to'sib moslashtirilgan muhit) ma'nosi bilan birlashadi. Lekin bu muhitning hajm va hashami haqida qo'shimcha ma'lumotlar berishi bilan bir-biridan farqlanib turadi. Bu graduonimik qatorda sifatiy va miqdoriy farqlar oz yoki ko'p bo'lganligi sababli, sinonimik munosabatlarni sezish mumkin[2].

Demak, sinonimik va graduonimik paradigmalar ma'lum bir nuqtalarda kesishsa, to'qnashsa ham, ular bir hodisa emas. Sinonimiya, asosan, so'zning ma'no tarkibidagi ifoda va vazifa semalari orasidagi farqlarga tayansa, graduonimik paradigmalarni ajratish, so'zlarning atash, nomlash (denotativ) semalari tarkibidagi miqdoriy ko'rsatkichlar bilan aloqador bo'lgan sifat farqlari semalariga tayanib ajratadi. Shuning uchun graduonimik qatordagi yondosh so'zlar sinonimik munosabatlarga kirisha oladi[3].

«Ma'lumki, lug'atda ma'nodosh so'zlarning ba'zan ko'proq qo'llaniladigan variantlari berilib, so'ng kamroq uchraydigan sinonimlari keltirilsa, darajalanish lug'atida, leksemalar hajmning ortishiga ko'ra, ishlatilish ko'lamiga ko'ra, tezlikning oshishiga ko'ra, hashamning ortishiga ko'ra qator belgilar asosida joylashtirilishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, graduonimiya hodisasining sinonimiyadan farqli tomonlarini ochishga xizmat qiladi. Sinonimlar va antonimlar asosida tuzilgan darajalanish qatori har doim ham barcha sinonimlar va antonimlarni o'z ichiga olmasligi odatiy hol, chunki ba'zi sinonimlar, yuqorida ta'kidlaganimizdek, okkazional, kontekstual yoki kognitiv sinonim bo'lishi mumkin. Graduonimiya va sinonimiya hodisalari tashqi tomondan bir-biriga o'xshasa-da, ular mohiyatan boshqa-boshqa hodisalardir»[4].

Yuqorida qayd qilingan holat va yondashuvlar asosida lug'aviy ma'nodoshlik va darajalanish munosabatini quyidagicha baholash, tavsiflash mumkin bo'ladi: «sinonimik munosabatlar bilan bog'langan so'zlar paradigmasining a'zolari ayni bir denotat, ayni bir voqelikni turlicha atab, ifodalab, nomlab keladi. Graduonimik munosabatlar bilan bog'langan so'zlar paradigmasi a'zolari esa turli denotatlarda ayni bir belgining turli miqdorda o'sib borish yoki kamayish munosabatlari bilan bog'langan bo'ladi. Bir qarashda sinonimiya va graduonimiya orasidagi chegara aniqqa o'xshaydi – denotatlar bir xil bo'lsa – *sinonimiya*, denotatlar har xil bo'lsa-yu, bu denotatlar o'zaro sifat belgilarining, so'zlarning ma'nosi bilan bir qatorda shu so'zlarning miqdori har xil bo'lsa

[1] Джумабаева Ж. Турли тизимли тилларда лексик ва стилистик градуонимия. Монография. – Тошкент, 2017. – Б. 5.
[2] Раҳмонов Ғ. Р. Ўзбек тилида луғавий синонимия ва градуонимиянинг ўзаро муносабати: филол. Фанл. Фалс. Докт. … дисс. – Фарғона, 2018. – Б 35.
[3] Раҳмонов Ғ. Р. Yuqoridagi manba. – Б 35.
[4] Джумабаева Ж. Ўзбек ва инглиз тилларида лексик ҳамда стилистик градуонимия: Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2016. – Б. 18.

– *graduonimiya* hisoblanadi. Sinonimiya, asosan, so‘zning ma’no tarkibidagi ifoda va vazifa semalari orasidagi (ya’ni, konnotativ semalar orasidagi) farqlarga tayansa, graduonimik lug‘aviy paradigmalarni ajratish, so‘zlarning atash, nomlash, (denotativ) semalari tarkibidagi miqdoriy ko‘rsatkichlar bilan aloqador bo‘lgan sifat farqlari semalariga tayanib ajratadi. Shuning uchun graduonimik qatordagi yondosh so‘zlar sinonimik munosabatlarga kirisha oladi»[1].

Sinonimik qator a’zolari orasida ham darajalanish hodisasi kuzatiladi. Fikrimizni O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati[2]dagi ushbu leksemalar orqali dalillaymiz. *Namuncha, buncha(lar), bunchalik, shuncha(lar), shunchalik, qanchalar, qanchalik, nechog‘lik, naqadar* sinonimik qatorida darajalanish yaqqol namayon bo‘lib turibti. Mazkur sinonimik qatordagi so‘zlar o‘zidan keyin kelgan so‘zga xos harakat-holat, belgi darajasini orttirishga, kuchaytirishga xizmat qiladi. Ular asosan, turli nutq uslublariga xoslanganligi, belgini ifodalash darajasining kuchli yoki kuchsiz ekanligi hamda ayrim so‘zlarda subyektiv munosabatni ifodalovchi ma’no uzvi mavjud ekanligi bilan o‘zaro farqlanadi. *Namuncha, qanchalik, bunchalik, shunchalik* so‘zlari so‘zlashuv nutqida ko‘p qo‘llanadi. *Naqadar, qanchalar, bunchalik, nechog‘lik* so‘zlari kitobiy, yozma nutqqa xoslangan. *Naqadar, nechog‘lik* so‘zlarida harakat-holat belgi darajasining ortiqligi kuchliroq ifodalanadi. *Naqadar* emotsional-ekspressiv bo‘yoqdor so‘z hisoblanib, so‘zlovchining subyektiv munosabatini ham ifodalaydi. *Buncha, shuncha* va *qancha* so‘zlari *lar* qo‘shimchasini olganida, harakat-holat, belgi darajasining yuqori ekanligi ma’nosi kuchli ta’kid oladi hamda mazkur so‘zlar emotsionallik bo‘yog‘iga ega bo‘ladi, shu shaklda badiiy uslubda qo‘llanishga xoslangan.

Sinonimlar tildagi eng muhim leksik birliklardan bo‘lib, ular ifoda xilma-xilligini ta’minlaydi, matnga uslubiy boylik kiritadi va tilning badiiy imkoniyatlarini kengaytiradi. O‘zbek tilida sinonimik qatorda turgan so‘zlar faqat semantik jihatdan emas, balki stilistik va emotsional yuklamasi, qo‘llanish sohalari, intensivlik darajasi bo‘yicha ham farqlanadi. Ana shu farqlarni aniqlash va tizimlashtirishda darajalanish metodologiyasi muhim o‘rin tutadi. Ushbu metodologiya sinonimik lug‘atlarni tuzishda ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotchi F.Saidova o‘z tadqiqot ishi[3]da sinonimik qatorlar orqali graduonimiyaga yangicha yondashuv tizimini ishlab chiqqan olim G‘.Rahmonovning sinonimik qatorda mavjud darajalanuvchi so‘zlarning namunaviy jadvalini keltiradi.

Differensial semalar / Leksemalar	Daraja indeksi	Emotsionallik	Ekspressivlik	Uslubiylik	Eski yoki yangi qatlamga xoslik
Sargardon	3	0	Me’yordan II pog‘ona yuqori	Kitobiy	0
Sarson	2	0	Me’yordan I pog‘ona yuqori	Kitobiy	0
Ovora	1	0	Me’yorda	Kitobiy	0

Tadqiqotchi, sinonimlar qatoridagi leksemalar o‘rtasida ma’noviy farqlilik (graduonimiya)ni kuzatishda differensial semalarning o‘rni beqiyosligi, differensial semalar sinonimik qatorlarda har bir leksema semasining chegarasini, boshqa sememalardan farqini, o‘ziga xosligini, xususiyatini ko‘rsatib berish natijasida graduonimiya hodisasining real belgilarini asoslashga va shakllanish jarayonini izohlashga erishilishi[4] to‘g‘risidagi ilmiy xulosalarini beradi.

Darajalanish sinonimik qatordagi so‘zlarni ustunlik-asosiylik, semantik kuch, uslubiy qiymat yoki ifoda intensivligi jihatidan tartibga solish jarayonidir. Sinonimik lug‘atlarda bu metodologiya asosida har bir sinonim o‘zining funksional yukiga qarab qatorda ma’lum bir o‘rin egallaydi.

Asosiy (dominant) va ikkilamchi sinonimlar: Har bir sinonimik qatorda asosiy yoki dominant so‘z mavjud bo‘ladi. U:

- eng neytral,
- keng qo‘llaniladigan,
- uslubiy jihatdan betaraf,
- boshqa sinonimlarga asos bo‘ladigan so‘z hisoblanadi.

Qolgan so‘zlar esa turli stilistik rang**,** kontekstga bog‘liqlik**,** intensivlik yoki hududiy belgilanganlik asosida unga bo‘ysunadi.

Sinonimik qatordagi leksemalarning ma’no chuqurligi, kengligi, konkret yoki abstraktligi aniqlanadi.

[1] Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 17.

[2] O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. –Toshkent 2022. – B 418.

[3] Saidova F. Lug‘atlarda sinonim leksemalar talqini: Filol. fan. fals. dok. diss. – Guliston, 2023. – B. 65.

[4] Раҳмонов Ғ. Р. Ўзбек тилида луғавий синонимия ва градуонимиянинг ўзаро муносабати: Филол. фанл. фалс. докт. … дисс. – Фарғона, 2018.

Misol uchun: *aytmoq, demoq, bayon qilmoq, izhor etmoq, bildirmoq, ma'lum qilmoq, atamoq, tilga olmoq.* Ushbu sinonimik qatorda *aytmoq* so'zini neytral va dominant so'z sifatida qabul qilsak bo'ladi.

Sinonimlarning nutq uslublarida qo'llanish imkoniyatini O'zbek tili sinonimlarining o'quv lug'ati[1]dagi ***o'lmoq*** fe'li misolida ko'rib chiqamiz:

O'lmoq, vafot etmoq, ajali yetmoq, qazo qilmoq, bandalik qilmoq, bandalikni topshirmoq, bandalikni bajo keltirmoq, rixlat bo'lmoq, dunyodan o'tmoq, dunyodan ketmoq, joni uzilmoq, jon bermoq, joni chiqmoq, ko'zini yummoq.

Izohi: hayoti tugamoq, yashashdan to'xtamoq.

So'zlashuv uslubi: *o'lmoq, joni uzulmoq, jon bermoq, joni chiqmoq.*

Publitsistik uslub: *vafot etmoq, dunyodan o'tmoq, dunyodan ketmoq.*

Badiiy uslub: *ajali yetmoq, qazo qilmoq, bandalik qilmoq, bandalikni topshirmoq, bandalikni bajo keltirmoq, rixlat bo'lmoq, ko'zini yummoq.*

Eskirgan variant: *rixlat bo'lmoq*.

Sinonimik qatorda dialektal yoki muayyan ijtimoiy qatlamlarga xos sinonimlar ham o'rin oladi. Masalan: *Narvon, shoti, zangi* kabi.

Izohi: *yuqoriga chiqish va tushish uchun ishlatiladigan, pillapoyalari bo'lgan yog'och yoki temirdan yasalgan buyum.* Mazkur sinonimik qatordagi so'zlar, asosan, adabiy tilga munosabatiga ko'ra o'zaro farqlanadi. *Narvon* so'zi adabiy tilde qo'llanadi. Shoti, zangi so'zlari esa shevaga xos. Badiiy asarlarda ham qo'llanadi.

Sinonimlarda darajalanishning metodologik bosqichlari quyidagi mezonlar asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq, bizningcha.

1. Sinonimik qatorlarni aniqlash: Til korpusidan, badiiy matnlardan va amaliy nutqdan olingan ma'lumotlar asosida sinonimlar yig'iladi.

2. Dominant sinonimni belgilash: Har bir qator ichida eng neytral va asosiy so'z ajratiladi.

3. Mezonlarga asoslangan tartib: Qolgan sinonimlar yuqorida aytib o'tilgan mezonlar asosida darajalanadi (semantik, stilistik, ekspressiv va h.k.).

4. **Izohli tavsif berish:** Har bir sinonim uchun uslubiy izoh, kontekstual qo'llanish, ifoda darajasi yoziladi.

5. **Lug'atda grafik yoki belgilar orqali ajratish:** Darajaviy farqlar turli belgi yoki yozuv bilan ifodalanadi.

- asosiy sinonim;
- uslubiy sinonim;
- emotsional yoki salbiy ohangdagi sinonim;
- so'zlashuv uslubi;
- o'zlashgan sinonim;
- eskirgan sinonim va.h.k.

Darajalanish metodologiyasi asosida yaratilgan sinonimik lug'atlarning amaliy ahamiyati shundaki:

- o'zbek tilining uslubiy boyligini ko'rsatadi;
- til o'rganuvchilar uchun kontekstga mos to'g'ri sinonim tanlashga yordam beradi;
- badiiy asar tahlili, tarjima va yozuv jarayonida mazmuniy aniqlik beradi;
- o'zbek leksikografiyasining ilmiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Darajalanish metodologiyasi – sinonimik lug'atlar tuzishda muhim vosita bo'lib, so'zlar o'rtasidagi semantik va stilistik tafovutlarni aniqlash, ularni tizimli tarzda tartibga solish imkonini beradi. O'zbek tili sinonimikasini chuqur o'rganish, tilni didaktik va amaliy nuqtayi nazardan to'g'ri qo'llash uchun bu metodologiyaning joriy qilinishini dolzarb ahamiyatga ega deb hisoblaymiz.

Rezyume. Mazkur maqolada o'zbek tili sinonimlik lug'atlarida sinonimlar o'rtasidagi semantik darajalanish masalasi metodologik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Maqolada semantik darajalanishning nazariy asoslari, ya'ni sinonim so'zlar o'rtasidagi ma'no farqlarini belgilovchi uslubiy, emotsional-ekspressiv va leksik-ma'noviy mezonlar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, sinonimlar iyerarxiyasi va ularning leksik tizimdagi o'rni, funksional imkoniyatlari hamda lug'at tuzishdagi uslubiy yondashuvlar tadqiq etilgan. Ushbu metodologik tamoyillar sinonimlik lug'atlarni yaratishda ilmiy asosli va amaliyotga mos yondashuvni ta'minlaydi.

Resume. This article analyzes the issue of semantic gradation between synonyms in Uzbek synonym dictionaries from a methodological point of view. The article analyzes the theoretical foundations of semantic gradation, that is, the methodological, emotional-expressive and lexical-semantic criteria that determine the differences in meaning between synonymous words. The hierarchy of synonyms and their role in the lexical system, their functional capabilities, and methodological approaches to dictionary creation are also studied. These methodological principles provide a scientifically sound and practical approach to the creation of synonym dictionaries.

Резюме. В данной статье анализируется вопрос семантической градации между синонимами в узбекских словарях синонимов с методической точки зрения. В статье анализируются теоретические основы семантической градации, то есть методические, эмоционально-экспрессивные и лексико-семантические критерии, определяющие различия в значении между синонимичными словами. Также изучается иерархия синонимов и их роль в лексической системе, их функциональные возможности, методические подходы к созданию словарей. Эти методические принципы обеспечивают научно обоснованный и практический подход к созданию словарей синонимов.

[1] Dadaboyev H., Abjalova M., Rashidova U. O'zbek tili sinonimlarining o'quv lug'ati. – Toshkent, 2023. – B. 586.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 6-7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

OLAMNING LISONIY VA FOLKLOR MANZARASIDA ERTAK JANRINING O'RNI

Bozorov Hamid Xo'shmurodovich,
Termiz davlat universiteti
o'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

«Olamning lisoniy manzarasi» – bu xalqning til orqali dunyoni qanday ko'rishi, tasavvur qilishi va ifodalashi bilan bog'liq bo'lgan konseptual modeldir. Bu tushuncha tilshunoslikda inson tafakkuri, dunyoqarashi, madaniyati va tili o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni o'rganishga asoslanadi. Til nafaqat aloqa vositasi, balki milliy tafakkur, madaniy tajriba va tarixiy xotiraning aksidir. Shuning uchun xalq og'zaki ijodi, ayniqsa, ertak janri til orqali dunyoning lisoniy manzarasini yaratishda muhim rol o'ynaydi. «Xalq og'zaki ijodini jamiyat estetik madaniyatining bir sohasi sifatida o'rganishda biz milliy hayot va tafakkur tarzi sifatida folklorning badiiy-ijodiy jarayoni, uning madaniy-estetik qiymati, folklorning ijtimoiy-madaniy faoliyati va boshqalarga e'tibor qaratamiz»[1]. Darhaqiqat, xalq og'zaki ijodining jamiyat hayotidagi roli, uning san'at, madaniyat, ma'naviyat va estetik dunyoqarash shakllanishidagi o'rni bilan belgilanadi. «Olam manzarasini o'rganish ilm-fan tomonidan o'z obyektini o'zlashtirishning turli bosqichlarida ilmiy paradigmani asta-sekin almashtirib borishida ham ko'zga tashlanadi, ya'ni lisoniy manzara ilmiy, madaniy, folklor, diniy va h.k. manzaralarga almasha boradi»[2]. Bular ichida folklor manzarasi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki folklor xalqning ko'p asrlik tarixini o'zida namoyon qiladi. Unda har bir xalqning turmush-tarzi, qadriyatlari, an'analari, ijtimoiy munosabatlari akslanadi. Bu xususiyatlar folklor janrlarining o'zlikni anglashdagi muhim manba ekanligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, folklor – til va tafakkur ko'zgusi.

Folklor janrlarida umumxalq tilining eng go'zal, ifodali shakllari namoyon bo'ladi. Bu orqali esa xalq tafakkuri, obrazli fikrlash uslubi o'rganiladi hamda F.Usmanov ta'biri bilan aytganda: «Milliy idrok intizomini boshqargan lingvomadaniy bilimlar zaxirasini tahlil etish uchun folklor ma'lumotlarini jalb etish, shuningdek, assotsiativ tajriba usullari kombinatsiyasidan foydalanish lozim bo'ladi»[3].

Folklor janrlari ichida ertak janri o'ziga xos uslubga ega bo'lib, xalqning hayotini boricha ko'rsatish imkoniga ega. Ertaklar boshqa janrlarga qaraganda o'z originalligini saqlash xususiyatiga ega. Chunki ertaklar aholining barcha qatlami tomonidan oson qabul qilinib, og'izdan og'izga o'ta oladigan janrdir. Uni turli toifadagi, turli yoshdagi insonlar kelgusi avlodlarga yetkazishi mumkin. Bu esa ertaklarning mazmuniy o'zgarishlari kam bo'lishi, ammo til elementlarining boyib borishiga imkoniyat yaratishi mumkinligini ko'rsatadi.

Ertaklar xalq og'zaki ijodining eng qadimiy va eng ommabop janrlaridan biridir. Ular, ko'pincha, fantastik voqealar, sehrli hodisalar, g'ayritabiiy qahramonlar hamda ramziy obrazlarga boy bo'ladi. Ertaklarda xalqning orzu-umidlari, ezgulikka bo'lgan intilishi, adolatga bo'lgan ishonchi, shuningdek, tabiat, jamiyat va inson haqidagi qarashlari mujassam bo'ladi. Shunga asoslanib, ertaklar o'z tarkibiga xalqning bir nechta xususiyatlarini aks ettiradi.



Ertaklar orqali tilning nafaqat kommunikativ, balki kognitiv, estetik va tarbiyaviy funksiyalari ham ochib

[1] Новиков С.С. Фолклор как феномен эстетической культуры общества: Аспекты генезиса и эволюсии. Автореф.дисс. ...канд.фолол.наук. – Барнаул, 2002. – С. 3.

[2] Бахронова Д.К. Олам манзарасининг миллий-маданий ва лингвокогнитив категорияланиши. – Тошкент: Turon iqbol, 2021. – Б. 17.

[3] Усманов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2020. – Б. 44.

beriladi. Folklor janrlari ichida ertak janri ushbu xususiyatiga ko‘ra keng imkoniyatga ega bo‘ladi. Shunga ko‘ra, ertaklar orqali olamning lisoniy manzarasidagi quyidagi xususiyatlar shakllanadi:

1. Metaforik va ramziy obrazlar. Ertaklar (ko‘proq sehrli va fantastik ertaklarda)dagi «*ajdar*», «*dev*», «*oltin kosa*», «*uchar gilam*», «*oltin tarvuz*», «*qush va sehrli hayvonlar*», «*taroq*» va shu kabi obraz hamda narsa-predmetlar ma’lum bir xalqning olamni qanday anglashini, yaxshilik va yomonlikni qanday tushunishini va talqin qilishini akslantiradi. O‘zbek xalq ertaklaridagi metaforik va ramziy obrazlar ertakning badiiy kuchini, xalqning ruhiy olamini, ma’naviy qadriyatlarini va yashash tarzini, hayotiy tajribasini ifodalash vazifasini bajarishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Qahramonlar tilidagi «*Yuragi tog‘dek*», «*Ko‘zlari yulduzday chaqnadi*» kabi metaforik ifodalar obrazning hissiy holatini, yovuzlikning ifodasini *bo‘ri, ajdar, yalmog‘iz, dev, shayton,* kuch va sabr-toqatning *tog‘* orqali ramzlanishi hayvonlar hamda tabiat hodisalariga asoslangan metaforalar orqali ifodalanadi. O‘zbek xalq ertaklarida **hayvonlar, qushlar, raqamlar, ranglar, makon** va **turli sehrli buyumlar** ertak manzarasida olamni anglashning eng sodda shakli sifatida namoyon bo‘lgan.

O‘zbek xalq ertaklarida hayvon obrazlari aksariyat hollarda insoniy xususiyatlarning ramziga aylanadi.

T/R	Ertak fonidagi hayvonlar	Ramziy ifodasi
1	Kiyik	Yorug‘lik, poklik, yangilanish
2	Ayiq	Homiy, qo‘rqoq va laqmalik[1]
3	Sher	Kuch-qudrat, savlat, saltanat, jasorat, adolat
4	Bo‘ri	Qonxo‘rlik, yovuzlik, laqmalik
5	Tulki	Hiyla, aql, ayyorlik
6	Eshak	Kamtarlik, mehnat, sabr

Raqamlar bilan bog‘liq o‘rinlar ham ertak matnida ramziy ma’no ifodalash vazifasini bajaradi. Jumladan, «Xitoyliklar uchun bu raqam uch asosiy qudrat – osmon, yer, inson; uch yorug‘lik manbai – quyosh, oy, yulduzni ifodalasa»[2], o‘zbek an’analariga ko‘ra *mukammallik, sinov* bosqichlarini ifodalab keladi. Shuningdek, ertak matnida ko‘p uchrovchi yetti – *muqaddaslik (yetti pushtni bilish tushunchasi bilan bog‘liq), poklanish, ilohiylikni;* qirq raqami esa *to‘la davr, o‘zgarish davri* kabi ma’nolarni ifodalaydi.

Aksariyat ertaklarda sehrli, mashaqqat va sinovlarga boy makon ifodalanadi. Bunday makonlarda ramziylik yetakchilik qiladi. Masalan, ***qorong‘i o‘rmon*** – *xavf-xatar, sinov joyi,* **sehrli qal’a** (o‘zbek xalq ertaklarida saroy ko‘rinishida ko‘proq namoyon bo‘ladi) – *sirli haqiqat, g‘ayritabiiy dunyo,* **baland va uzoq tog‘** – *mashaqqat yo‘li, orzu, erkinlik* ramzi. Mashhur «Susambil» va «Botir echki» ertagidagi tog‘ (makon) orzu ro‘yobi, erkinlik ramzi sifatida o‘zbek xalqi lisoniy manzarasidan o‘rin olgan: *Bular yo‘l yurib, yo‘l yursa ham mo‘l yurib, mo‘l yursa ham ko‘l yurib, axiri bir kun tog‘ga yetishibdi. Tog‘ga borishsa, bu tog‘ echki aytganday, juda ham obod ekan. Istagan ovqat topilarkan. Havosi juda baland, suvlari tiniq. Bular borishi bilan yaxshilab qorinni to‘qlab, adirlikdagi katta chinorning tagida makon qurib yota berishibdi.* (Bo‘ri bilan mergan. Botir echki. 22-b.[3]) Ushbu matnda orzu-umid ijobati ifodalangan bo‘lsa, quyidagi misolda mashaqqat yo‘li sifatida tasvirlangan: «*Rustam shahar xalqi bilan xayrlashib, tog‘ tomon yo‘l olibdi. Chollar kezibdi, qirlar oshibdi. Yo‘llar yurib tog‘ tagiga yetibdi. Qarasa, tog‘ bobo aytgandan ham vahimali, tepasi ko‘rinmaydigan, silliq toshdan iborat baland emish, uning ustiga chiqish hech aqlga to‘g‘ri kelmasmish***».** (Uch og‘ayni botirlar. Quyosh yerning pahlavoni. 131-b.[4])

Ertak matniga olib kirilgan metaforik va ramziy ifodalar, eng avvalo, xalqning tafakkuri mahsuli. Shunga qaramay, xalqning kuzatuvchan, ilg‘or g‘oyalarga ega aholisi ma’lum maqsadlarni ko‘zlagan holda ushbu til birliklarni ertak syujetiga olib kirgan. Ertak tilida uchrovchi metaforik va ramziy ifodalarning asosiy maqsadini quyidagicha ifodalashimiz mumkin.

T/R	Maqsad	Izoh
1	Axloqiy g‘oyani yetkazish	Qahramonning xatti-harakatlari ramziy va metaforik yo‘l bilan ifodalanadi.

[1] Bozorov H. O‘zbek xalq ertaklarining lingvomadaniy tadqiqi. Filol.fan.b.fals.dok. ...diss. – Termiz, 2023. – B. 102.

[2] Qarang: Жумаева С. Ўзбек мумтоз шеъриятида рақам рамзлари ва уларнинг маъно талқини (XII-XV асрлар). – Тошкент: Фан, 2010. – Б. 15.

[3] Bo‘ri bilan mergan: O‘zbek xalq ertaklari. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 144 b.

[4] Uch og‘ayni botirlar. O‘zbek xalq ertaklari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – 304 b.

2	Estetik ta’sir kuchini oshirish	Obrazlilik orqali ertak tinglovchiga chuqur ta’sir qiladi.
3	Mazmunni chuqurlashtirish	Ramz orqali oddiy voqea ostida murakkab tushunchalar beriladi.
4	Folklor poetikasini boyitish	Ertakning badiiy tili jonli va boy bo‘ladi.
5	Qahramonning yuksalishini ko‘rsatish	Qiyinchiliklar orqali ramziy yo‘l bilan qahramon ma’naviy yuksaladi.

2. Milliy til unsurlari. Ertaklar qadimgi folklor janrlardan bir bo‘lganligi uchun arxaik leksik birliklar, xalqona iboralar, dialektal birliklar ko‘p uchraydi. Bu esa xalqning tarixiy til qatlamlarini saqlab qolishda va kelgusi avlodlarga yetkazib berishda muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi. Xalq ertaklarida mavjud milliy til unsurlarini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

T/R	Til unsurlari	Izoh va maqsad	Misol
1	Leksik unsurlar	Xalqona so‘zlar orqali davr muhitini yaratish	*Yalmog‘iz, bilag‘on…*
		Etnografizmlar asosida xalqning mentalitetini ko‘rsatish	*To‘n, do‘ppi, xurjun, aqiqa…*
2	Frazeologizmlar	Obrazlilikni oshirish	*Ko‘z ochib-yumguncha, bel bog‘lab, yerni titratmoq, tog‘ni talqon qilmoq…*
3	Dialektizmlar	Ertak tilini jonlantirish, hududiy mansublikni ko‘rsatish	*Kadi, ena, charlar, chapati, bacha, iylik …*
4	Nutqiy aktlar	Soddalik, xalqona so‘zlar, kinoya, kulgi aralashgan nutq vositalar orqali obraz xarakterini ifodalash	«*Xush keldingiz*», «*assalomu alaykum*», «*hormang*»…
5	Maqol va matallar	Hikmat sifatida xulosa chiqarishga undash	«*Yaxshilik yerda qolmas*», «*Otangga qilganing bolangdan qaytadi*», «*Erni er qiladigan ham xotin, yer qiladigan ham xotin*»…
6	Arxaizmlar	Davr muhitini yaratish	*Podsho, qul kanizak, qozi, yasovul…*

3. Stereotip ifodalar. Har bir xalqning o‘z ertaklarida Stereotip ifodalar mavjud bo‘ladi. Jumladan, o‘zbek xalq ertaklarida «*Bir bor ekan, bir yo‘q ekan*», «*Bo‘ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan*», «*Qirq kecha-yu qirq kunduz*», «*Murod-maqsadiga yetibdi*» kabi tipik ibtido va intiholar xalqning mentalitetini ifodalash uchun xizmat qiladi.

Ertaklar orqali til orqali olamni anglash mumkin. Ertaklar nafaqat voqelikni hikoya qiladi, balki o‘ziga xos tarzda qayta talqin qilish kuchiga ega bo‘ladi.

Xalq ertaklari olamning lisoniy manzarasidagi
ramziy tafakkurni;
aqliy konstruksiyalarni;
til boyligini boyitishga xizmat qiladi.

Ramziy tafakkur. Bunda ertak voqealari real bo‘lmasa-da, chuqur ma’noga ega bo‘ladi. Jumladan, o‘zbek xalq ertaklarida ko‘p kuzatiladigan hayvonlar haqidagi yoki sehrli ertaklardagi voqea-hodisalar fantastik ruhda bo‘lsa-da, undagi ilgari surilayotgan g‘oya haqiqatda mavjud. Ramziy tafakkur, eng avvalo, abstrakt, obrazli va ko‘p qatlamli fikrlashdir. Ertak tilida ramziy tafakkur xalqning ruhiy rivojida muhim hisoblanib, murakkab tushunchalarni sodda belgilar orqali idrok etish, hayotiy voqealarni ramziy ma’noda anglash, estetik va axloqiy qarashlarni rivojlantirish manbasidir. **«**O‘zbek xalq ertaklarida ajdar – yovuz, yirtqich ruh timsoli**»**[1]. Xalqning tafakkurida ajdar faqatgina yovuz va qonxo‘r mavjudot bo‘lib qolmay, balki insonning ichki qo‘rquvlari, ichki to‘siqlar, ichki dushmanlarning ramzidir.

*Har kuni bir **ajdar** kelib, Semurg‘ yo‘q vaqtda bir bolasini yeb ketadi. Agar sen Semurg‘ bolalarini shu falokatdan qutqarsang, yer yuziga chiqarib qo‘yar, deb o‘ylayman, – debdi.*

*Kenja botir **«xo’p»**, deb chinor yaqiniga boribdi-da, o‘zini panaga olib turibdi. Bir vaqt vishillab **ajdar** kelibdi. Chinorga o‘rmalab chiqa boshlabdi. Buni ko‘rgan Semurg‘ bolalari chiy-chiylashibdilar. Kenja botir sekin o‘rnidan turibdi va ajdarni qilich bilan ikkiga bo‘lib tashlabdi. Go‘shtini maydalab Semurg‘ning bolalariga beribdi va yana o‘zini panaga olib o‘tiraveribdi.* (Uch og‘ayni botirlar. Semurg‘. 198-b.)

[1] Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. – Toshkent, 2019. – B. 155.

Ushbu ertak matniga e'tibor qaratar ekanmiz, ertak qahramoni ichki to'siqlarini, qo'rquvini yengib o'tganligini kuzatishimiz mumkin. Ertaklar xalqning orzu-armonlari haqidagi haqiqatlarni so'zlovchi «muhim gaplar»ni ayta oladigan janr bo'lganligi sababli, qadimdan o'z g'oya hamda qarashlarini ramzlar orqali ifodalashga uringanlar. Buning natijasi o'laroq, turli ramziy obrazlarning yuzaga kelishiga olib kelgan. Masalan, «Zumrad va Qimmat» ertagidagi sehrli kampir ijobiy va salbiy axloqiy fazilatlarni sinovdan o'tkazuvchi obraz sifatida xalq inonchlaridan o'rin olgan. Ertaklar tilidagi ramziy obrazlarni talqin qilish, ertaklarni yangicha talqin qilish asrlar davomida saqlanib, xalq mentalitetining o'ziga xos tomonlarini kelgusi avlodlarga yetkazib berish vazifasini ham bajaradi.

Aqliy konstruksiyalar. Ertaklarning aksariyatida fantastik voqealar va syujetlar ifoda qilinsa-da, ijtimoiy g'oyalar ilgari surilishi bilan boshqa folklor janrlaridan ajralib turadi. Aqliy konstruksiya inson ongida mavjud mantiqiy, obrazli yoki ramziy tuzilmalarning akslanishi bo'lib, ular jamiyat, hayotiy voqea-hodisalar, axloqiy tushuncha va munosabatlarni tartibga soladi. Xalqning nutqiy aktlari, axloqiy qarashlari, an'ana, qadriyatlari va boshqalar ertaklarda mavjud bo'lib, uzoq asrlik madaniy qarashlarini o'zida saqlaydi**.** Aniqroq qilib aytganda, ertaklarda mavjud aqliy konstruksiyalar insonning **«**ichki modeli**»** bo'lib, olamning lisoniy manzarasini anglashga xizmat qiladi. V.Propp **«**Ertakning motivlari bir-biri bilan shunchalik chambarchas bog'liqki, qoida tariqasida, biron bir motivni alohida tushunish mumkin emas. Uni qismlarga bo'lib taqdim etish kerak**»**[1], – deya ta'kidlaydi. O'zbek xalq ertaklaridagi aqliy konstruksiyalarni ham V.Propp ta'kidlaganidek, qismlarga bo'lib tahlil qilish ma'lum samara beradi. Shunga asoslanib, o'zbek xalq ertaklaridagi aqliy konstruksiyalarni ***mantiqiy model, obrazli-aqliy model, axloqiy-aqliy model*** kabi guruhlar asosida tahlil qilish maqsadga muvofiq.

1. Mantiqiy (muammo-yechim) modeli. Ushbu model aksariyat ertaklar tuzilmasida kuzatiladi. Ushbu model besh (boshqa kichik qismlar ham mavjud) asosiy qismni tashkil etadi. Uni quyidagicha ifodalash mumkin:


O'zbek xalq ertaklaridagi mantiqiy tuzilma bosqichlari

T/R	Tuzilma bosqichlari	Jarayon	Natija va yechim
1	Kiruvchi voqea (boshlang'ich qism)	Muammo paydo bo'ladi	Yovuz kuchlar: dev, ajdar, turli hayvonlar, sehrli predmetlar
2	Qahramonning yo'lga chiqishi.	Sinov va sarguzashtlar.	Uzoq va mashaqqatli yo'l, turli sinovlarni yengib o'tish
3	Ko'makchi kuchlarning yordamga kelishi	Sehrli buyumlar yoki turli obrazlar	Qush, ot, chol, kampir, teonim va mifonimlar
4	Yovuz kuchni yengishi	Ichki kuch, aql, ba'zan ko'makchi kuchlar yordamida	O'ziga ishonch, turli vosita va narsalar, shuningdek, shaxs (obraz)lar
5	Mukofot	Yaxshilikka yetishish	Taxt, baxtli hayot, adolat tantanasi, yorga yetishish, farovon hayot

2. Obrazli-aqliy konstruksiya (model). Ushbu modelda ertakdagi obrazlar nafaqat badiiy, balki aqliy konstruksiya vazifasini ham bajaradi. Masalan, «Zumrad va Qimmat» ertagida Zumrad va Qimmat obrazlari xarakteri orqali axloqiy mezonlar obrazlashadi, ya'ni mehnatsevarlik baxtga, yalqovlik jazoga olib kelishini ko'rsatadi. Bu esa obrazli tilda o'ylash, taqqoslash, xulosa chiqarishga o'rgatadi. Bu esa ushbu modelda allegorik va ramziy ifodaning yetakchi o'rinni egallashini ifodalaydi. «Hunarli yigit» o'zbek xalq ertagida *kambag'al yigit sabr-toqat, adolat timsoli, boy esa ochko'zlik, nafs, yolg'onchilik* timsoli sifatida talqin qilinadi. Bunday misollar xalq ertaklarida ko'plab uchraydi va o'ziga xos asimmetriyani yuzaga keltiradi.

Obrazli-aqliy konstruksiya ma'lum bir ssenariy asosida fikrni shakllantirishga yo'naltiriladi. O'zbek xalq ertaklarida voqealarning rivojlanish ssenariysi quyidagicha:

[1] Пропп В.Я. Исторические корни волшебной сказки. – Москва: Лабиринт, 2000. – С. 4.



Ushbu model ertak o‘quvchisi yoki tinglovchisida fikr yuritish algoritmini hosil qiladi. Bu orqali **muammo → yechim → natija** konsepsiyasini anglashga o‘rganadi.

O‘zbek xalq ertaklarida uchraydigan obrazli-aqliy konstruksiyalar

T/R	Ertak nomi	Asosiy obraz	Aqliy konstruksiya
1	«Zumrad va Qimmat»	Mehnatkash qiz / yalqov qiz	Axloqiy taqqoslash modeli
2	«Susambil»	Baxil boy / sabrli hayvonlar	Adolatli hayot modeli
3	Sehrli olma	Meva – rostgo‘ylik belgisi	Haqiqat – muhim qadriyat
4	«Halol mehnat»	Dev / qahramon	Qiyinchilikdan o‘tish konstruksiyasi

3. Axloqiy-aqliy konstruksiyalar. Ushbu model ertaklar axloqiy me’yorlarni mantiqiy asoslash orqali aqliy konstruksiyalarga aylantiradi. Masalan, «*Yaxshilik qil – yaxshilik topasan*», «*Mehnatkash odam muvaffaqiyatga erishadi*», «*Yovuzlik – oxirida tanazzulga yuz tutadi*» kabi prinsiplarga asoslanadi. Ushbu prinsiplar ertak syujetida doimo ijobiy misollar asosida dalillanadi va tinglovchi yoki o‘quvchida ongli ijtimoiy-axloqiy fikrlashni mustahkamlash vazifasini o‘taydi. Masalan, «Zumrad va Qimmat» ertagi qahramonlarining xatti-harakatlari sabr-toqat va mehribonlikning aqliy modelini yaratadi, xulq-atvor oqibatlarini ko‘rsatish orqali ijtimoiy-axloqiy konstruksiya beradi.

Til boyligi. Ertaklar orqali xalqning nutqiy madaniyatini, iboraviy tafakkurini, estetik didini rivojlantiriladi.

Olamning lisoniy manzarasi til bilan birga shakllanadi, buning natijasida tushunchalar va tasvirlar moddiy timsolni oladi. Bundan tashqari, olib borilgan tadqiqotlar natijalari inson hayotidagi har bir yosh davrlarida fikrlashning tilga yordamchi pozitsiyalarga o‘tish g‘oyasini keltirib chiqaradi. Til so‘zlovchining ongida olam tasvirini yaratishning eng muhim vositasidir, shuning uchun uning roli inson rivojlanishining dastlabki bosqichida atrofdagi voqelikni bilish jarayonida katta rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, madaniyatning mahsuli bo‘lishi bilan birga, muhim tarkibiy qismi bo‘lgan til milliy o‘z-o‘zini anglashni ifodalaydi va madaniy qadriyatlarni grammatika, leksik hamda idiomatik vositalarda to‘playdi, olamning turli xalqlar orasida farq qiluvchi manzaralarni yaratadi.

Olamning ertak manzarasi xuddi folklor manzarasi kabi insonlarning deyarli barcha madaniy o‘ziga xosligini qamrab olgan holda atrofdagi haqiqatni ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki ertak har bir xalqning hayot tarzi, mehnat faoliyatini, dunyoqarashini ifodalaydi. Qadimdan insoniyatning kundalik hayotini tartibga soluvchi qoidalar va taqiqlar, shuningdek, uning qadimgi dunyo haqidagi g‘oyalari, makon va vaqt haqidagi qarashlari hamda dunyoga ta’sir qilish usullari bevosita ertaklarda o‘z ifodasini topadi. Olamning lisoniy manzarasini baholash xususiyatlari insonlarning atrofdagi voqelik obyektlariga, shaxslar va hodisalarga munosabatini baholashga imkon beradi hamda mavjud an’ana va qadriyatlar haqida, mukofot va jazo tizimlari haqida bayon qilish xususiyatiga ega bo‘ladi. Jumladan, aksariyat xalq ertaklarida bo‘lgani singari o‘zbek xalq ertaklarida ham an’analar o‘z ifodasini topadi. Masalan, «*Xush keldingiz, o‘g‘lim, ovqatdan oling, choy iching, dam oling», – deb, yigitning qornini to‘yg‘azib, dam oldirib, keyin yigitdan so‘rabdi.* (Oyjamol.Yaxshi niyat, 2-b.)

Ushbu misolda o‘zbek xalqining mehmondo‘stlik stereotiplari namoyon bo‘layotgan bo‘lsa, quyidagi misolda etnografik xarakterdagi milliy-mentaliteti namoyon bo‘lgan:

Qiz bilan yigit bir-birlariga bo‘y-basti bilan ham, eshitgan-bilgan gap-so‘zlari bilan ham mos kelibdi. Otasi bir qiziga, bir yigitga qarasa, go‘yoki bir olmani ikki bo‘lib qo‘yganday emish. Shunday qilib, hammalarining roziligi bilan to‘y bo‘libdi, to‘yda yigitning do‘stlari, qizning qarindoshlari xizmat qilishibdi. Shunday qilib, qiz bilan yigit ham, to‘yda bo‘lganlar-u eshitgan-bilganlari ham murod-u maqsadiga yetibdilar. (Oyjamol. Dono yigit va uning qaylig‘i, 5-b.) Ertak matnidan anglashiladiki, o‘zbek xalq nikoh to‘ylari,

eng avvalo, kelin va kuyovning baxtli bo‘lishlari, xalqning duosini olish uchun ko‘p kishilik to‘ylarning tashkil etilishi azaldan urf-odat bo‘lganligidan dalolat beradi.

O‘zbek xalq ertaklarida mukofot va jazo haqida gap borar ekan, ushbu ko‘rinish maishiy, sehrli va hayvonlar haqidagi ertaklarda ko‘p uchrashini guvohi bo‘lamiz. Xususan, «Uch og‘ayni botirlar», «Guliqahqah», «Susambil» kabi mashhur ertaklarda mukofot tariqasida baxtli hayot berilsa, aksariyat ertaklarda yurtdan haydalish, xalq oldida sharmanda bo‘lish, o‘lim hukmiga duchor bo‘lish ko‘rinishidagi jazo turlari ko‘zga tashlanadi. Ma’lumki, ertaklarda etnik guruhda mavjud bo‘lgan butun davr mobaynida zamonaviylikning eng muhim g‘oyalari va o‘ziga xos xususiyatlarini o‘zlashtirgan holda rivojlanadi. Yuqorida ta’kidlangan «mukofot va jazo» konsepsiyasi ham zamonlar o‘tishi bilan o‘zgarib boradi, ammo aksariyat ertaklardagi mukofotlar *boylik – oltin, mol-dunyo, baxtli hayot – to‘q, podshoh qizi bilan turmush qurish, sehrli buyumlarga ega bo‘lish, hurmat va e’tibor qozonish* bilan belgilansa, jazo shakllari boylikdan ajralish, qashshoqlikka tushish, sehrli kuchini yo‘qotish, xorlikdagi hayot kabi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Esdan chiqarmaslik kerakki, an’ana va qadriyatlar o‘zgarishsiz avlodlarga yetib keladi. Bu esa ertak janrining muhim xususiyatlaridan bir hisoblanadi.

Tabiatning tushunarsiz, turli xalqlar madaniyatining sirli jumboqlarini ochishda, turli davrlarda yashagan ajdodlarning olam haqidagi qarashlarini ifodalashda ertaklarda mavjud axborotlar juda muhim ahamiyatga ega. Sababi ertak fonida har bir xalq ajdodlarining o‘tmishini, madaniyatini ko‘radi. Bu esa milliy madaniyatning tub ildizlariga kirib borishga undaydi. Boshqa xalqlar ertaklarini o‘rganish orqali o‘sha xalqning madaniyati bilan tanishish, umuminsoniy, moddiy va ma’naviy qadriyatlarini idrok etish imkoniga ega bo‘ladi.

Ertak tilida to‘plangan axloqiy qadriyatlar, xulq-atvor me’yorlari, tajriba va bilim ertak matnlarini takroriy idrok etish jarayonida erta yoshdan ongsiz ravishda o‘zlashtiriladi. Buning natijasi o‘laroq olamning ertak manzarasi o‘zining bir qismi bo‘lgan, yanada katta va beqiyos manzara – folklor manzarasining deyarli barcha xususiyatlarini belgilashga xizmat qiladi. Olamning bunday manzarasi etnik guruhning har bir shaxsiga ko‘p yoki kamroq darajada xos bo‘lib, olamning boshqa tasvirlari bilan bir qatorda voqelikni bilish, idrok etish va bog‘lanish yo‘llarini belgilaydi.

Xulosa qilib aytganda, ertak xalq dunyoqarashi, tafakkuri va til boyligini o‘zida mujassam etgan janr bo‘lib, u orqali olamning lisoniy manzarasi, ya’ni inson va tabiat, yaxshilik va yomonlik, kuch va zaiflik, haqiqat va yolg‘on kabi ziddiyatlar xalqona til birliklari bilan ifodalanadi. Ertak tilining obrazli, emotsional va milliy o‘ziga xosligi orqali xalq tafakkuri va ma’naviyati yoritiladi. Har bir ertakda milliy mentalitet, qadriyatlar, axloqiy va tarixiy-madaniy tafakkur mujassam. Ular orqali til nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning olamni idrok etish, tushunish va ifodalash shakliga aylanadi. Bu esa ertaklar lisoniy manzaraning asosiy tarkibiy qismi sifatida xalq ruhiyatini saqlovchi kod bo‘lib xizmat qilishini ko‘rishimiz mumkin.

Rezyume. Mazkur maqolada ertak matnidan o‘rin olgan xalq tafakkurining ramziy, obrazli va majoziy shakllari xususida so‘z boradi. Ertaklar orqali inson va olam o‘rtasidagi munosabatlar, yaxshilik-yomonlik, ezgulik-adolatsizlik kabi tushunchalar lisoniy shaklda ifoda etilishi misollar asosida ochib beriladi. Shuningdek, ertaklar nafaqat badiiy asar sifatida, balki tilning funksional imkoniyatlarini, xalqning madaniy-ma’naviy kodini o‘zida saqlagan muhim lisoniy manzara sifatida o‘rganilishi, tilning emotsional, ekspressiv, obrazli va milliy jihatlari yaqqol namoyon bo‘lishi tahlilga tortiladi.

Resume. This article discusses the symbolic, figurative and figurative forms of folk thinking found in fairy tales. Through fairy tales, the relationship between man and the world, concepts such as good-bad, goodness-injustice, etc. are expressed in linguistic form. It is also analyzed how fairy tales are studied not only as works of art, but also as an important linguistic landscape that preserves the functional capabilities of language, the cultural and spiritual code of the people, and the vivid manifestation of the emotional, expressive, figurative and national aspects of language.

Резюме: В статье рассматривается выражение символических, образных и изобразительных форм народной мысли в волшебных сказках. На примерах раскрывается языковое выражение таких понятий, как взаимоотношения человека и мира, добра-зла, добра-несправедливости через волшебные сказки. Также анализируется изучение сказок не только как произведений искусства, но и как важного языкового ландшафта, сохраняющего функциональные возможности языка, культурный и духовный код народа, яркое проявление эмоционально-экспрессивных, образных и национальных сторон языка.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 6-7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

BADIIY DISKURSDA XUSHMUOMALALIK STRATEGIYALARINING IFODALANISHI

Baymurodova Laylo Kaxromanovna,
Qarshi davlat universiteti
fakultetlararo ingliz tili kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Har qanday kommunikativ strategiyani yuzaga keltiruvchi, harakatga keltiruvchi kuch kommunikativ maqsad hisoblanadi. Kommunikativ maqsad esa muloqotni amalga oshirishga va ma'lum natijaga yo'naltirilgan rejaning nazariy asoslarini bir butun maqsad sifatida xarakterlovchi hodisadir. Kommunikativ strategiya, kommunikativ taktika, kommunikativ yurish kabilar kommunikativ maqsaddan farqli o'laroq, real nutq jarayonida tildan amaliy foydalanish bilan bog'liq hodisalar sanaladi.

Kommunikativ maqsad asosida yuzaga keladigan kommunikativ strategiya, kommunikativ taktika, kommunikativ yurish nutqiy jarayonning ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-madaniy, milliy-madaniy xususiyatlariga bog'liq holda farqlanadi. Jumladan, ijtimoiy-siyosiy maydonda kommunikativ maqsad ma'lum iqtisodiy, siyosiy, madaniy va shu kabi masalalarni kelishuviga yo'naltirilsa, kommunikativ strategiya mazkur masalalarni hal qilishning nutqiy, kommunikativ rejasini amalga oshirish usullariga qaratiladi. Kommunikativ taktika va yurish mazkur masalalarni amalga oshirish jarayonida, ya'ni amaliy muloqot paytida nutq vaziyatidan kelib chiqgan holda bajariladi. Ijtimoiy-siyosiy maydonda kommunikativ strategiya muloqotning maqsadi va xarakteriga ko'ra yuqori, o'rta va quyi darajaga bo'linadi.[1]

Muhokama va natijalar. Kommunikativ strategiyaning yuqori darajadagi muloqot jarayonidagi kechimi quyidagi turlarda ifodalanishi mumkin:

1. Xushmuomalalik kommunikativ strategiyasi;
2. Eksplitsit kommunikativ strategiyasi;
3. Implitsit kommunikativ strategiyasi;
4. O'zaro hamkorlik kommunikativ strategiyasi;[2]

Mazkur strategiyalar zamonaviy jamiyatimizni ko'p qirraligini aks ettirgan holda lingvistik va ekstralingvistik sharoitlarda bir-birini to'ldiradi. Ta'kidlangan strategiyalar jamiyat vakillarining muloqot jarayonida, ijtimoiy masalalarni hal qilishda, iqtisodiy kelishuvlarda va jamiyatning boshqa qatlamlari (oilaviy suhbatlarda, do'stlar, hamkasblar o'rtasidagi muloqotda va boshqalar)da keng qo'llaniladi. Muloqot vaziyatlarida ishlatiladigan kommunikativ strategiya va taktikalarning voqelanishi uchun xizmat qiladigan leksik-grammatik tuzilmalarning pragmatik imkoniyatlari, odob-axloq etiketi, stilistik vositalarning qo'llanilishi bilan bog'liq ravishda amalga oshiriladi.

Muloqot jarayonida qo'llaniladigan kommunikativ strategiyaning lisoniy ifodasi, verbal va noverbal nutq tanlovi muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy mavqei, ularning muloqotdagi vazifalari, muloqot kechimini tanlagan mavzu doirasida kechishi kabi omillarga bog'liq. Ta'kidlash joizki har bir jamiyatda yuqori ijtimoiy mavqega ega bo'lgan shaxs va undan quyi darajani egallab turgan shaxs o'rtasidagi muloqotda yuqori ijtimoiy mavqeli shaxsi muloqot masofasini saqlashga harakat qilishi kuzatiladi. Bu, o'z navbatida ijtimoiy muhitda kishilarning qiymat munosabatini aks ettiruvchi muloqot formulalari ishlatilishiga olib keladi. Muloqotdoshlarning ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar munosabatlarning samimiyligi ular o'rtasidagi munosabatlarning yaqinligidan dalolat beradi.

Kommunikativ strategiyaning ijtimoiy muloqot doirasida ishlatilishi aniq pragmatik vazifaga ega bo'lish bilan bir qatorda milliy-madaniy muloqot usullarining voqelanishini ham kuzatish mumkin. Mazkur voqelanish odob-axloq etiketi normalari, milliy-madaniy axloq normalari doirasida amalga oshadi. Jumladan, salomlashish, uzr so'rash, xayrlashish, so'rashish (bu ko'proq o'zbek madaniyatiga xos hodisa sanalib, birinchi navbatda sog'lik, oila a'zolari, yaqinlari sog'ligi surishtiriladi), iltimos kabilarda leksik va pragmatik vositalarning qo'llanilishi kuzatiladi.

Muloqotdoshning ijtimoiy mavqeyi formal va formal bo'lmagan nutqiy ifoda usullaridan foydalanishni

[1] Баймурадова Л.К. Нутқий стратегиянинг прагматик ва лингвомаданий асослари: Филол. фан. номз. ... дисс.(PhD) – Термиз, 2022. – Б. 88.

[2] Баймурадова Л.К. Нутқий стратегиянинг прагматик ва лингвомаданий асослари: Филол. фан. номз. ...дисс.(PhD) – Термиз, 2022. – Б. 122.

talab qiladi. Mazkur ifoda usullari ijtimoiy-pragmatik strategiya masalalari doirasida amalga oshiriladi. Ma'lum nutqiy yoki kommunikativ strategiyaning qo'llanilishi jamiyatda yuzaga kelgan masala yoki muammolar bilan uzviy aloqadorlikka ega. Shuningdek, soha bilan bog'liq holatlar ham sohaga tegishli bo'lgan ma'lum hodisani kommunikativ strategiya sifatida qo'llashga undaydi.

Sh.S.Safarov ta'kidlaganidek: «Nutqiy faoliyat tashabbuskori, ya'ni so'zlovchi shaxs obyekt haqidagi ma'lumotni tinglovchiga yetkazish uchun ushbu obyektning qandaydir xislatlarini tanlaydi va shu xislat asosida obyektga baho beradi hamda baho ma'lumotini adresatga uzatadi. Bunday baho berish axboroti esa, o'z navbatida, tinglovchiga ta'sir o'tkazish va uni biror-bir xatti-harakat, faoliyatga undash maqsadi uchun xizmat qiladi[1]«. Shuni inobatga olib aytish mumkinki, muloqot jrayonida ishtirokchilarning qaysi strategiyaga tayangan holda suhbatni davom ettirishi, Braun va Levinson hamda J.Lich taklif etgan omillarning qay birini qo'llash muloqot ishtirokchilarining qobiliyati va lisoniy vositalarga boyligi ko'lamiga bog'liq bo'lib qoladi. N.F.Qosimova aytib o'tganidek «lisoniy belgi jamiyat ehtiyojidagi an'anaga bog'liq bo'lib, turg'unlik kasb etadi. Biroq uning shart-sharoitlari o'zgarganda, vaqt nuqtayi nazaridan o'zgaruvchanlik xususiyatini namoyon qiladi[2]«.

Shu o'rinda o'zbek tilshunosligida xushmuomalalik kategoriyasining o'rganilish tarixiga nazar tashlasak, kategoriyani turlicha tushunish oqibatida bo'lsa kerak hurmat ma'nosi, sizsirash hodisasi ko'pchilik tillarda alohida kategoriya sifatida o'rganilmagan; xushmuomalalikni ifodalovchi vositalari esa boshqa unsurlar (masalan: modallikni ifodalovchi unsurlar) qatoriga qo'shib yuborilgan.

1944-yil A.G'ulomov o'zbek tilida xushmuomalalik ifodalanishi haqida birinchilardan bo'lib fikr yuritib, hurmat ma'nosi otning ko'plik qo'shimchasi bilan ifodalanishi haqida batafsil to'xtalib o'tgan.[3]

1973-yilda Sh.Rahmatullayev o'zbek tilshunosligiga «*hurmat formasi»* tushunchasini kiritdi[4]: xushmuomalalikni ifodalovchi *-lar* affiksining ko'plik bildiruvchi *-lar* affiksidan farqlanishini ta'kidlab ko'rsatdi. Buni quyidagicha oddiy tasvirlash mumkin:

-lar I. Kitoblarim – bunda aynan ko'plik, hurmatga betaraflik mavjud.

-lar II. Otamlar – bunda III shaxs birlikka aynan hurmat, ko'plikka betaraflik mavjud. Hurmatning ma'no xususiyati esa boshqa kesimlilik ma'nolari – shaxs, son, zamon, mayllardan farq qilishi ko'rsatiladi: hurmat II va III shaxs shakllari uchun mushtarak hisoblanadi. Otangiz (*otanglar*) – otaga hurmat, akangiz (*akanglar*) – akaga hurmat; *onalari* 90 bahorni ko'ribdilar – onaga hurmat; buvimlar keldilar – *buviga* hurmat (III shaxs birlikka hurmat) *buvilarim* kelishdi - III shaxs ko'plik – «2 ta buvi kelgan». Hurmat kategoriyasi vositalarining qo'llanishida ijtimoiy omil muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy omilning asosiy *belgisi* nutq jarayoni, imkoniyati, sharoiti, vaziyati va vaqti kabilardir.

G'.Zikrillayev «II va III shaxsda subyektning kommunikativ roli hamda miqdorini ko'rsatuvchi qo'shimcha ayni paytda *hurmat ma'nosini ifodalash uchun* ham xizmat qiladi. Shu paytgacha hurmat kategoriyasi ajratilmaganidan ular shaxs-son qo'shimchasi deb kelinar edi» deb ta'kidlaydi. Ammo G'.Zikrillayev hurmat ma'nosini faqatgina fe'llarga xos shaxs, son kategoriyalari doirasida o'rganish bilan cheklangan. [5]

1991-yilda xushmuomalalikning olmoshlar doirasida ifodalanish xususiyatlari haqida B.Yusupov o'zining «Местоимения в староузбекском литературном языке» (XV-XVI вв.) monografiyasida qimmatli fikrlarni bayon etadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni aytishimiz mumkinki, «xushmuomalalik kategoriyasining lisoniy-nutqiy voqelanish omillari va ifodalanish usullari» masalasi ayni shu kunda o'zbek tilshunosligidagi fundamental tarzda, yaxlit holda o'z ilmiy tadqiqini kutayotgan muammolardan biridir.

Xushmuomalalik **kategoriyasining voqelanish omillari**. O'zbek tilidagi xushmuomalalik kategoriyasini maxsus ilmiy-tadqiqot obyekti sifatida o'rganish XX asrning 90-yillaridan boshlandi, desak xato bo'lmaydi.

Xushmuomalalik ijtimoiy-lisoniy kategoriya bo'lganligi uchun uning mazmun-mohiyati va funksiyasi (vazifasi, qo'llanishi, shakllanishi) *ijtimoiy omil* bilan belgilanadi. *Ijtimoiy omil deganda, e*ng avvalo, nutq akti a'zolarining statusi, ya'ni ijtimoiy va ijtimoiy – demografik turg'un belgilari hamda ijtimoiy roli nazarda tutiladi. *Ijtimoiy rol* deganda kommunikativ munosabat (nutq akti, muloqot xulqi, fikrlashuv, aloqa-aralashuv) a'zolarining shart-sharoit (matn) va vaziyat bilan bog'liq belgilari tushuniladi. *Shunga ko'ra kommunikatsiya a'zolarining qaysi sinf, tabaqa, guruhga mansubligi, yoshi, kasbi, jinsi, ma'lumoti* kabi ijtimoiy belgilar birinchi darajali omil hisoblanadi; *boshliq-xodim, rahbar-xizmatchi, ustoz-shogird, ota (ona)-farzand, er-xotin, do'st-*

[1] Сафаров Ш.С. Прагмалингвистика. Монография. – Тошкент, 2008. – Б. 36.

[2] Қосимова Н.Ф. Лисоний белги асимметрияси ва унинг сўроқ гап таржимасида воқеланиши. Филол. фан. док. ... диссертация. – Тошкент, 2018. – 164 б.

[3] Содиқова Ш.Б. Ўзбек тилида ҳурмат категорияси. Монография – Тошкент: ТошШИ, 2010.- Б.8.

[4] Содиқова Ш.Б. Ўзбек тилида ҳурмат категорияси. Монография – Тошкент: ТошШИ, 2010.- Б.8.

[5] Зикриллаев Ғ. Феълнинг шахс, сон ва ҳурмат категориялари системаси. – Тошкент: Фан, 1990. – 111 б.

do‘st, tanish-notanish, keksa-yosh, quda-quda, quda-qudag‘ay, mahalla-mahalladosh kabi belgilar ikkinchi darajali omil sanaladi; kommunikatsiyaning *vaqti, o‘rni, sharoiti, vaziyati* kabilar esa uchinchi darajali omildir. Hurmat kategoriyasining mazmuni, shakli, ifodasi va usuli birinchi navbatda ana shu faktorlar bilan belgilanadi.

Xushmuomalalik nutqini ifodalovchi vosita va shakllar. Ma’lumki, egalik kategoriyasi narsa-predmetning uch shaxsdan biriga qaratilganligini, tegishli ekanini bildiradi; bunday hollarda hurmat subyektga (so‘zlovchiga) tegishli bo‘lgan predmet orqali (vositasida) yo‘naltiriladi: a) egalik affikslari so‘zlovchining shaxs va sonini bildiradi. b) xushmuomalalik esa hurmat ifodalovchi grammatik vosita (*hurmatli* leksemasi) orqali ifodalanmoqda.

Xushmuomalalik nutqini ifodalovchi vosita va shakllarning o‘zbek badiiy diskursida ifodalanishi misollar orqali ko‘rib chiqsak. Masalan:

– Sodiqnikiga chiqib *mullaka*ngizga tilpon qilib qo‘ying. Maskoviga ketmagandir hali. Ukasini ko‘rib ketsin. Hay, yana Habib Sattorovich, demang-a. *Mullaka* deng.

Xonzoda: «*Xo‘-o‘p*, *oyi*» deb chiqib ketdi. U *qaynog‘a*si bilan birga ishlar, ko‘pchilik «Habib Sattorovich» degani uchun u ham ba’zan shunday deb yuborar, o‘rnida uzib oladigan qaynona, shubhasiz, buni nazardan chetda qoldirmas edi.[1]

Nutq vaziyatida voqelashgan *mullaka, oyi, qaynog‘a, xo‘-o‘p* kabi birliklar faqatgina o‘zbek nutqiga xos xushmuomalalikni ifodalovchi leksemalar sanaladi: turmush o‘rtog‘ining onasini–qaynonasini o‘z onasidek *oyi* deb atash; turmush o‘rtog‘ining akasini hurmat qilib mullaka deyish; hurmat ma’nosini yanada kuchaytirish uchun *xo‘p* so‘zi fonetik usulda ifodalangan .

Quyidagi muloqot matnida «ovsin», «egachi» leksemalari o‘zbek nutqida murojaat birligini shakllantirgan:

– Kiraveringlar, tortinmanglar, *ovsin*, – dedi Manzura.

– *Egachi*m yo‘qmidilar? – deb so‘radi *juvon*lardan biri.

– Kimni aytyapsiz? – dedi Manzura, «bular adashib kirib qolishmadimi», degan xayolda.[2]

Anglashiladiki, bu lug‘aviy birliklar qarindoshlikni emas, balki o‘zbek ayollari nutqida o‘zaro hurmat va muomala madaniyatini ifodalaydi. Ya’ni mutlaqo begona bo‘lgan ayollarning o‘zbeklarning go‘zal odati bo‘lmish sovchilikka borish asnosida bir-birini hurmat qilib ayni shu murojaat birliklaridan foydalanishi o‘ziga xosdir.

Bundan tashqari, xushmuomalalik ifodalangan badiiy diskursning boshqa ko‘rinishlarini kuzatish mumkin:

Eshikni ochib ichkari kirishi bilan *ona*si:

– Kim? - dedi. Javob kutmay so‘radi: – Anvar, senmisan?

– Menman, *oyi*, assalomu alaykum.

– Voy, bolaginamdan *aylanay,* kelgan bo‘lsang *o‘rgilay*, nimaga qaltirayapsan, bolam? – u shunday deb o‘rnidan turmoqchi bo‘ldi. Anvar tez-tez yurib borib cho‘k tushdi-da, onasini quchdi.

– Xotining uydaydi-ya, lip etib kiyimlaringni olib borardi. Tanchaga *o‘tira qol*, ha, *omon bo‘lgur-a*, shunday kelaverganingni qara. Risolat kampir Anvarni xuddi go‘dakni avaylaganday tanchaga o‘tqazdi.[3]

Anvar va onasining suhbati ularning o‘zaro munosabatini aniq qilib ko‘rsatib turibdi. Bunda ona bolasini ayab, kuyunib gapirishi, hukmini o‘tkazadigan imperativ konstruksiya ishlatmayapti, aksincha, buyruq gapga muloyimlik ma’nosini beruvchi «*o‘tira qol*» so‘zi Anvarga nisbatan hurmatini, mehrini ko‘rsatib turibdi. Ayol nutqidagi «*aylanay*»*,* «*o‘rgilay*» kabi aniq lisoniy vositalar imkoniyatlarni minimallashtirish substrategiyasi yordamida ifodalanganligini ko‘rish mumkin.

Ingliz va o‘zbek adabiyotlarida erkak kishi ayol kishi tomonidan hurmat qilinishiga ko‘plab misollarda guvohi bo‘lishimiz mumkin. Ayol kishi ko‘pgina vaziyatlarda erkak kishining ko‘nglini ko‘tarish, unga nisbatan hurmatini ko‘rsatish maqsadida umumiy so‘roq gap konstruksiyasi, his-hayajonni ifodalovchi fonetik fenomenlar, bilvosita va ijobiy xushmuomalalik strategiyalaridan foydalanadi. Masalan:

– Dadasi, bemahalda eshik qoqqan kim ekan?

– O‘zimiznikilar. Indamay yotaver. Ozgina hisob-kitobli ishimiz bor!

– Dasturxon tayyorlaymi?

– Kerak emas, ular shoshib turishibdi.

– Voy-yey, yarim tunda ham tinmaysiz-da, a?...[4]

O‘zbek va xorij tilshunosligida hozirgi kunda gender tilshunoslik bo‘yicha minglab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Tilshunos olim G.A.Brandt gender – madaniyat ta’siri ostida bo‘ladigan, ma’naviy jihatdan ayol va erkaklarning nutqiy, xulq-atvor jihatlarini baholay oladigan xususiyatlar majmuyidir, deb qaraydi.

Odatda, muloqotda ayollar yuqori darajadagi emotsional-ekspressiv atamalarni ko‘p qo‘llashadi

[1] Малик, Тоҳир. Шайтанат.(1-китоб). –B.81.

[2] Малик, Тоҳир. Шайтанат.(1-китоб). – 210 б. –B.114. https://n.ziyouz.com/books/uzbek_nasri/Tohir%20 Malik. %20 Shaytanat%20(birinchi%20kitob).pdf

[3] Малик, Тоҳир. Шайтанат. (1-китоб). – B.81.

[4] Nishonov I. Afg‘on shamoli. I kitob. – Namangan, 2009. – 169 b.

va moslashib ketish kabi jihatlar bilan farqlanib turadi, ikkinchi tomonning fikrlarini diqqat bilan tinglab, suhbat jarayonida ustunlikka intilmaydilar. Erkaklar esa o‘z navbatida muloqotda jizzakiroq, vaziyatni o‘z nazoratlari ostiga olishga, kelishishga intiladilar.

Muloqotning gender o‘zgaruvchanligi mazkur tilning turli sathlarida, ya’ni fonetik, leksik, grammatik, semantik sathlarda namoyon bo‘ladi. Xushmuomalalik kategoriyasida genderlik xususiyatlarning turli sathda ifodalangan misollar orqali fikrlarni izohlashga e’tiborimizni qaratsak:

Ayollar nutq xulqini farqlovchi emotsional gaplar:

Aylanay, mehmon, kimdan xafa bo‘lib tushdingiz?
Kim ozor berdi sizga? Ayting!
Qovog‘ingizni ochsangiz-chi!
Yorug‘ dunyoga keldingiz! Shukur qiling! Sevining!
Mundoq bir kuling! Kulimsirang! Iljaying!..
Aylanay, bolam, orzu-havasingizga yeting, bola-chaqa ko‘ring, tilagingizni bersin xudoyim![1]

Keltirib o‘tilgan gaplarni tahlil qilish jarayonida xushmuomalalik strategiyalarining voqelanishida hamda ma’lum bir diskursiv maqsadlarni ifoda etishda ta’sir etuvchi faktorlarning umumiy tasviri paydo bo‘ladi.

O‘zbek tilida xushmuomalalik kategoriyasi uzoq tarixiy taraqqiyot davomida shakllangan, o‘z lisoniy-nutqiy ifoda usullariga, tasvir vositalariga, leksik-grammatik belgilariga, voqelanish qonuniyatlariga ega. Xushmuomalalik kategoriyasi ijtimoiy-lisoniy-ruhiy hodisa bo‘lganligi sababli u til qurilishining barcha sathlarida uchraydi. Biroq uning voqelanish usuli, lisoniy-nutqiy vositalari, imkoniyatlari, sharoitlari har bir sathda o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘ladi. Dalillar o‘zbek tilida xushmuomalalik fonetik, morfologik, leksik-semantik va sintaktik-stilistik kabi usullarda voqelanishini ko‘rsatdi.

Resume. Since the category of politeness is a socio-linguopsychological phenomenon, it is found at all levels of language construction. However, the way it arises, linguistic and speech means, possibilities and conditions have their own characteristics at each level. Facts indicate that politeness in the Uzbek language is found in such ways as phonetic, morphological, lexical-semantic and syntactic-stylistic.

Резюме. Поскольку категория вежливости является социально-лингвопсихологическим явлением, она встречается на всех уровнях построения языка. Однако способ ее возникновения, языковые и речевые средства, возможности и условия имеют свои особенности на каждом уровне. Факты свидетельствуют о том, что вежливость в узбекском языке встречается такими способами, как фонетический, морфологический, лексико-семантический и синтаксико-стилистический.

[1] Чўлпон. Кеча ва кундуз. Роман. –Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – B. 11; 213.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 6-7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

A LINGUOCULTURAL STUDY OF TOPONYMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Khayitova Feruza Abdikhalikovna,
Lecturer of Termez state university,
Foreign philology faculty,
Doctor of philosophy in philology

Toponyms, or place names, are more than just geographical labels – they are carriers of cultural and historical information. The linguistic study of toponyms has long been a subject of interest in both onomastics and linguoculturology. In the context of globalization, the comparison of place names across languages reveals insights into different worldviews, traditions, and collective identities. This paper focuses on a linguocultural comparison of English and Uzbek toponyms to uncover both shared and unique elements embedded in each language's naming tradition. Toponyms, or geographical names, are not merely markers of physical space; they are symbolic representations of the worldview, history, and cultural identity of a nation. In both English and Uzbek, toponyms have preserved the legacy of ethnic groups, belief systems, and environmental interactions. The significance of studying toponyms lies not only in their linguistic value but also in their cultural and historical implications. Researchers such as V.A.Maslova and Kh.Kholmuminov[1] have underlined the importance of cultural semantics in toponymic research.

Linguoculturology is an interdisciplinary field that combines linguistic and cultural analysis to study how language reflects and shapes cultural identity. Scholars such as V.Vorobyev, E.Vereshchagin, V.Kostomarov, A.Sultangozhina, and Uzbek researchers like Y.Khojamberdiyev and Kh.Kholmuminov[2] have contributed to defining its methodological framework. In toponymy, the study of proper place names serves as a mirror of linguistic worldview, influenced by historical, religious, ecological, and social factors.

In the English tradition, researchers such as Margaret Gelling and Kenneth Cameron have shown how place names preserve Anglo-Saxon, Celtic, Norse, and Norman influences. In Uzbek, scholars have emphasized the role of tribal, geographical, and Islamic components in naming.

The study applies comparative and descriptive methods, supported by linguocultural and etymological analysis. The corpus consists of 200 English and 200 Uzbek toponyms collected from geographic dictionaries, historical maps, and online databases. Each toponym was analyzed based on its etymology, semantic motivation, and cultural significance.

1. Semantic Fields and Motivations

English toponyms often derive from physical geography (e.g., *Oxford* – «ford of the oxen»), historical ownership (*Salisbury* – from Old English *Searoburh*), or religious association (*St. Albans*). Similarly, Uzbek place names reflect physical geography (*Qiziltepa* – «red hill»), tribe names (*Qo'qon* – named after a tribal leader), and religious sites (*Hazrati Imam*). English toponyms reflect Celtic, Anglo-Saxon, Norse, and Roman influences. For instance, «Oxford» means a shallow place where oxen crossed the river[3]. Similarly, «Lancaster» comes from the River Lune and Latin «castra» (fort). Uzbek toponyms, on the other hand, exhibit Persian, Turkic, and Arabic origins. «Toshkent» (stone city) and «Qo'qon» (from kavak – hollow tree) are culturally rich names reflecting historical functions and natural features.

[1] Маслова В.А. Лингвокультурология. – Москва: Академия, 2001. – 208 с.; Холмўминов Х. Ўзбек топонимларининг этнолингвистик хусусиятлари. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси, Тил ва адабиёт институти, 2010. – 190 б.

[2] Верещагин Е.М., & Костомаров В.Г. Язык и культура: Лингвострановедческий аспект в преподавании русского языка как иностранного. – Москва: Русский язык, 1990. – 320 с.; Воробьёв В.В. Лингвокультурология: курс лекций. – Москва: РУДН, 1997. – 331 с.; Султангожина А. Т. Культурная семантика топонимов (на материале казахского, русского и английского языков). – Алматы: КазНУ, 2005. – 248 с.; Хўжамбердиев Ё. Ўзбек тилида топонимларнинг лексик-семантик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 2002. – 176 б.; Холмўмінов Х. Ўзбек топонимларининг этнолингвистик хусусиятлари. – Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси, Тил ва адабиёт институти, 2010. – 190 б.

[3] Ainiala T., Saarelma M., Sjöblom P. Names in Focus: An Introduction to Finnish Onomastics. omalaisen Kirjallisuuden Seura. – NY. 2012. – 376 p.; Cameron K. English Place Names. – Batsford. 1996. – 256 p.


Table 1: **Sample Etymologies of English and Uzbek Toponyms**

Toponym	***Language***	***Etymology***
Oxford	*English*	*Oxen + ford*
Lancaster	*English*	*River Lune + castra*
Toshkent	*Uzbek*	*Tosh (stone) + kent (city)*
Qo'qon	*Uzbek*	*From kavak – hollow tree*

2. Linguistic Structure

English toponyms frequently consist of two elements: a descriptive prefix and a generic suffix (e.g., *Birmingham* – «home of the Beorma people»). Uzbek toponyms often use agglutinative morphology (*Qo'ng'irot*, *To'rtko'l*) and Turkic roots, indicating a strong link to language typology. In English, toponyms frequently consist of compounds (e.g., «Blackpool») or descriptive labels. Borrowing is evident from Latin and Norse. Uzbek toponyms are often descriptive («Sho'rtepa» – salty hill) or tribal («Sherobod»).

Figure 1: **Common Structures in English Toponyms**



3. Cultural and Historical Layers

English place names reflect multiple linguistic layers: Celtic (*Avon*), Roman (*Lancaster*), Anglo-Saxon (*Sheffield*), and Scandinavian (*Grimsby*)[1]. Uzbek toponyms reflect Zoroastrian, Islamic, and Turkic heritages. Names like *Samarqand* and *Buxoro* embody historical trade routes, scholarship centers, and sacred Islamic narratives.

Toponyms serve not only as identifiers but also as cultural signifiers. In the UK, names like «Liberty» or «Victoria» commemorate political milestones, while in Uzbekistan, post-independence names like «Mustaqillik» embody the national revival. Mythologically charged names, such as «Devil's Dyke» in England or «Chilustun» in Uzbekistan, point to deeper belief systems and collective memories[4].

4. Symbolic and Mythological Associations

Toponyms often preserve symbolic meaning. For instance, *Greenwich* (UK) is associated with navigation and time (Greenwich Mean Time). In Uzbek, *Nurata* is linked to legends of light and saints. These associations reveal cultural values and collective memory. Toponymic translation requires cultural sensitivity. Literal translations like «Qo'shko'pir» as «Twinbridge» lose their cultural and historical richness. Transliteration, descriptive renaming, or retention are key strategies. Toponyms reflect how cultures perceive and categorize space. English emphasizes practicality («Baker Street»), while Uzbek names often symbolize beauty or spirituality («Zarafshan» – gold spreader).

- Both English and Uzbek toponyms serve as linguistic fossils, preserving historical and cultural information;

- English toponyms tend to have more hybrid structures due to colonial and migratory influences;

- Uzbek toponyms reflect nomadic, religious, and tribal identity more prominently;

[1] Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. CUP. – NY. 2003.– 506 p.; Gelling, M. Signposts to the Past: Place-Names and the History of England. Phillimore. – NY. 1997. – 321 p; Room, A. Placenames of the World. McFarland. – NY. 1996. – 286 p.

- Place names in both languages reveal how people perceive and interact with their environment.

Toponyms are linguistic artifacts that preserve the memory and identity of peoples and civilizations. The linguocultural comparison of English and Uzbek place names reveals rich semantic layers and differing cultural motivations. Understanding toponyms as cultural texts can enhance intercultural competence and support language learning, translation, and ethnolinguistic research. This comparative linguocultural study shows that toponyms are more than geographical markers – they are living records of human experience, history, and values. Understanding them enhances our grasp of cultural identity and intercultural communication.

Rezyume. Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi toponimlarning lingvistik va madaniy xususiyatlari lingvokulturologik yondashuv asosida o‘rganiladi. Tadqiqotda toponimlarning milliy tafakkur, tarixiy xotira va madaniy identitetni (o‘zlikni) qanday aks ettirishi tahlil qilinadi. Shuningdek, ingliz va o‘zbek geografik nomlarining umumiy va farqli jihatlari turli semantik sohalardan olingan misollar asosida yoritib beriladi. Olingan natijalar geografik nomlarning madaniy qadriyatlar va dunyoqarashni qanday aks ettirishini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Resume. This article explores the linguistic and cultural characteristics of toponyms in English and Uzbek within a linguocultural framework. The study analyzes how toponyms reflect national mentality, historical memory, and cultural identity. The research highlights the common and contrasting features of English and Uzbek place names, drawing on examples from various semantic fields. The findings contribute to a deeper understanding of how geographical names encapsulate cultural values and worldviews.

Резюме. В данной статье рассматриваются лингвистические и культурные особенности топонимов в английском и узбекском языках в рамках лингвокультурного подхода. Исследование анализирует, как топонимы отражают национальное мышление, историческую память и культурную идентичность. Работа выявляет общие и различающиеся черты английских и узбекских географических названий, приводя примеры из различных семантических сфер. Полученные результаты способствуют более глубокому пониманию того, как географические названия воплощают культурные ценности и мировоззрение.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 6-7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

SIYOSIY JARAYONLARNING YORITILISHIDA HAJVIY PUBLITSISTIKANING O'RNI VA AHAMIYATI

Primov Shamsiddin Muhiddin o'g'li,
Buxoro davlat universiteti o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi o'qituvchisi

Butun dunyoda bo'lgani kabi yurtimizda ham axborot va ma'lumot olishga bo'lgan talab va uning vositalari kun sayin rivojlanib bormoqda. Ushbu jarayonda OAVning barcha turlari ijtimoiy hayotning turli sohalariga oid kontentlarni auditoriyaga birinchilardan bo'lib yetkazish uchun tinimsiz harakat qilmoqda. Ana shunday tezkor axborotlashgan jarayonda media makonda turli xildagi axborotlar oqimi yuzaga kelishi tabiiydir. Ularning har biri o'ziga xos shakl va vositalar orqali auditoriyaga ta'sir etish uchun kurashadi. Buning o'ziga yarasha ijobiy va salbiy tomonlari ham mavjud. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan axborot maydonida jurnalistikaning turli janr va shakllari o'rtasidagi rivojlanish balansi turlicha ekanligi hech birimizga sir emas.

Hozirgi kunda OAVning barcha turlari uchun eng dolzarb masala bu tezkorlik bilan zamonga moslashish masalasidir. Ushbu jarayonda barcha OAVlariga qo'yiladigan eng muhim talabardan biri an'anaviylik va shu bilan birga yangi dolzarb omillarni o'zida aks ettira olishdir. «Matbuotning mohiyatini tashkil etuvchi uning ichki qonuniyatlaridan biri uning an'anaviylik va yangi omillar qonuniyatiga amal qilishdir. Ya'ni matbuot ma'lum bir tarixiy davrda tug'ilib, shu ijtimoiy zamindan, jamiyat oldida turgan vazifalardan yo'nalish olib, oziqlanib ish ko'rsa-da, faoliyatini bajarishda o'zidan oldingi davrlar matbuotida shakllangan g'oyaviy-ijodiy omillar qonuniga bo'ysunadi»[1]. Ushbu fikr OAVlarining barcha turlari uchun birdek mos keladi.

Ayni vaqtda jurnalistikaning turli soha va janrlari davr muammo va yutuqlarini o'zida aks ettira olsagina yashab qola oladi. Bu borada publitsistikaning o'rni beqiyosdir. Taniqli rus olimi V.V.Voroshilov o'zining «Jurnalistika» nomli darsligida jurnalistika va publitsistikaga quyidagicha ta'rif berib o'tgan: «Agar jurnalistika matbuotning butun faoliyatini ijtimoiy institut sifatida o'zida mujassam etsa, publitsistika esa ijtimoiy- siyosiy fikr va kundalik siyosiy amaliyotning tezkor tabiatini yozma tarzda ifoda etib, ommaviy davriy idoralarning mazmuni asosini to'ldiradi»[2]. Yuqoridagi fikrlardan ayon bo'ladiki, jamiyatning istalgan sohasiga oid bo'lgan masalalarni yoritishda publitsistikaning ahamiyati kattadir. Jurnalistikaning janrlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, axboriy va tahliliy janrlar, asosan, faktlar va dalillar asosida ish ko'radi va ko'pincha ma'lumotni yetkazish bilan cheklanadi. Ammo badiiy publitsistik janrlar esa nafaqat axborot yetkazibgina qolmay, auditoriya va jamiyatga juda kuchli ta'sir ham o'tkaza oladi. Bu borada publitsistikaning o'ziga xos shakllaridan bir bo'lgan hajviy publitsistika beqiyos o'ringa ega. «Ma'lumki, hajviy publitsistika hayotni aks ettirishda va undagi ijtimoiy illatlarga qarshi kurashishda o'ziga xos vosita – ijtimoiy kulgidan keng foydalanadi va u jamiyatning barcha tomonlarini qamrab oladi»[3].

Hech kimga sir emaski, satira va yumor hajviy publitsistikaning ikki asosiy ustunidir. Satira va yumor deganda ko'pchilikning ko'z oldiga shunchaki hajviy kulgi keladi. Ammo rus tadqiqotchisi B. Dzemidok satiraga shunday ta'rif berib o'tgan. «Satira hajvning muhim ko'rinishi sifatida har doim ham kulgi uyg'otmaydi. U ko'pincha kulgi emas, balki jirkanish, nafrat, mensimaslik, g'azabni uyg'otadi»[4]. Ushbu fikrlarga diqqat bilan e'tibor qaratadigan bo'lsak, hajviy publitsistika bir vaqtning o'zida ham kulgi ham achchiq fosh etish va nafrat tushunchalarini auditoriyaga singdira oladi. Hajviy publitsistikada yumor yoki satiraning qo'llanish o'rniga e'tibor qaratadigan bo'lsak, qaysi o'rinda va qachon satira yoki yumordan foydalanish borasida qat'iy bir talablar mavjud emas. Ammo shu narsa aniqki, satira yoki

[1] Худойқулов М. Матбуотда анъанавийлик ва янги омиллар // Замонавий босма ОАВ муаммолари: халқаро ва миллий тажриба. (2020 йил 27 мартдаги Республика илмий-амалий конференция материаллари). – Тошкент: O'zbekiston, 2020. – Б. 37.

[2] Ҳамдамов.Ю.К. Ўзбекистон матбуоти ривожланишининг асосий тамойиллари. – Тошкент: Kaleon press, 2021. – Б. 10.

[3] Qozoqboyev T., Xudoyqulov M. Jurnalistika asoslari. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent., 2009. – B. 34.

[4] Дземидок Б. О комическом. – М., 1974. – С. 9.

yumorning kontentda qo‘llanishi ijodkorga va u tanlagan mavzuning jamiyat hayotiga bevosita ta’siriga bog‘liq. Aniqroq qilib aytganda, kontentning achchiq fosh etuvchi kulgi yoki yengil mutoyiba shaklida bo‘lishi muallif pozitsiyasi va tanlagan mavzuning jamiyat hayotidagi ahamiyatiga ko‘ra xarakterlanadi.

Jurnalistikaning boshqa shakllarida bo‘lgani sari hajviy publitsistika ham jamiyatdagi har qanday o‘zgarishga tezkorlik bilan reaksiya bildira oladi. Bundan tashqari uning bildirgan munosabati oddiy emas, balki obrazli shaklda namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, yaratilayotgan kontent o‘zida siyosiy nuqtayi nazarni aks ettiradigan bo‘lsa, unda ushbu material o‘zida ham siyosiy jarayon, ham tahliliy axborot, qolaversa juda katta ta’sir kuchiga ega bo‘lgan hajviy satira yoki yumorni mujassamlashtirgan bo‘ladi.

Hozirgi kunda axborot uzatuvchi manbalarning soni kundan kunga ortib bormoqda, ammo faqat hajviy publitsistikaga asoslangan manbalar barmoq bilan sanarlidir. Ana shunday manbalarning eng ishonarlisi, aniqroq qilib aytganda hajviy yo‘nalish bo‘yicha muntazam axborot uzatuvchi yurtimizdagi yagaona manba bu «Mushtum» jurnalidir. «Millatimizning bir asrdan beri ajralmas yo‘ldoshi bo‘lib kelayotgan «Mushtum» jurnaliga 1923-yil 18-fevral sanasida Abdulla Qodiriy va uning maslakdoshlari tominidan asos solingan. Uning dastlabki bosh muharriri G‘ozi Yunus (1923-1924), ilk bosh rassomi Ishtvan Tula hisoblanadi»[1]. Ushbu otaxon jurnal tashkil etilganiga yuz yildan oshdi. Ammo u hali hanuz o‘zida jamiyatning barcha sohalariga oid bo‘lgan mavzularda tezkorlik va aniqlik bilan hajviy va hayotiy materiallar ulashib kelmoqda. Ayniqsa yangilanib borayotgan jamiyatimizdagi siyosiy islohotlarning matbuotda aks etishida «Mushtum» jurnali ham o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda. Boshqa OAVlaridan farqli ravishda ushbu jurnal faqat bir yoqlamalik va yutuqlarni bo‘rttirib ko‘tarish kabi illatlardan holi ravishda siyosiy jarayonlarni boricha xalqimizga taqdim etib kelmoqda. Quyida biz siyosiy jarayonlarning yoritilishida hajviy publitsistikaning o‘rni va ahamiyatini «Mushtum» jurnalida e’lon qilingan materiallar orqali birma-bir tahlil qilib o‘tamiz.

«Mushtum» jurnalining 2022-yil 1-soni 11-betida «Yoshlar sahifasi» rukni ostida Olamgir Abdiyevning «Qadamlar, qadamlar, qadamlar!!!» hajviy maqolasi e’lon qilingan. Ushbu maqolada saylov jarayonidan oldingi holat oddiy qishloq hayoti misolida hajvga olingan. Unda qahramon saylov kampaniyasi boshlanmasidan oldin va kampaniya davrida qishloq aholisining turmush holatini taqqoslab yozgan. «Saylovlar yaxshi-da! Qani endi tuman, shahar va viloyat hokimlarini ham saylaydigan bo ‘lsang», - deb so‘zini boshlaydi qahramon. «Eh-he, ikki oyda bir keladigan gaz ballonlari tong azondan turib, eshigingizni taqillatsa-ya. Xatto kunda bir marta chiqadigan suvning ham saxiyligi tutib qoladi»[2]. Bulardan tashqari har kuni soatlab o‘chadigan elektr toki yoki o‘ydim-chuqur bo‘lib ketgan yo‘llarning ahvoli haqida ma’lumot beradi. Ammo kunlarning birida qahramonning hayratiga sabab bo‘lgan voqea yuz beradi. Aniqroq aytganda, saylov bahonasida yuqoriroq joydan kimningdir tashrifi amalga oshadi. Shu munosabat bilan bir necha yillardan beri ta’mirtalab bo‘lib yotgan yo‘l bir kunda asfaltlashtiriladi. «E-e, bu qadamlar oddiy qadamlar emas, birodar. Bu qadamlarda salobat bor, sahovat bor. Bu qadamlar sizni «xap» deguncha ko‘tarishi, shu kelishida, bir tepib tushirib qo‘yishi mumkin. Shunday «surpriz»lar kutilayotgan pallada nima uchun yillab qurilmayotgan uylar, ko‘priklar bir kunda bitmasligi kerak? Nega endi chiroqlar kun bo‘yi yonib, gazlar bir qarichdan oshmasligi kerak? Nima bo‘lsa ham, shunday qadamlar ko‘paysin. Yiliga uch-to‘rt marta bo‘lsa ham mayli».

Yuqoridagi hajviy maqolaga e’tibor beradigan bo‘lsak, saylov masalasi tilga olib o‘tilgan. Unda saylovoldi kampaniyasi munosabati bilan yuqori tashkilotdan qishloqqa kimdir tashrifi sababli qishloqda gaz balon kechikishi, ichimlik suvi faqat ayrim soatda berilishi, elektr toki o‘chisi va nihoyat bir necha yildan beri ta’mirtalab bo‘lib yotgan yo‘l va shunga o‘xshash muammolar bir kunda hal etilishi hajv ostiga olingan, bundan tashqari, bu holatlar aniq vaqtincha holat ekanligi uda ajoyib tasvirlab berilgan. Ushbu maqolada jamiyatda juda ko‘p uchraydigan illat faqat saylov uchun yoki yuqori tashkilot nazorati uchun xo‘jako’rsinga aholi muammolari bartaraf etilgani achchiq kulgi orqali ochib berilgan. Savlov o‘tganidan so‘ng esa yana eski tos, eski hammom ekaniligiga ishora ham mavjud. Ushbu hajviy maqolada muallif juda o‘rinli so‘z qochirimlaridan, badiiy tasviriy vositalardan foydalangan. Aynan shu vositalar hajviy maqolaning ta’sirchanlik xususiyatini orttirgan.

Endi esa yana bir misolga diqqat qaratadigan bo‘lsak, jurnalda Ozod Mustafo qalamiga mansub «Ayyor qabul»[3] felyetoni ham berilgan. Ushbu felyetonda Mamatqo‘zi xorijda ishlab yurgan vaqtida chap qo‘lidan ayrilib uyiga nogiron bo‘lib uyga qaytadi. Dastlab yurtida ish topolmay qiynaladi. Keyin tuman hokimining sayyor qabuliga borib , tuman markazida joylashgan istirohat bog‘idagi ko‘lni o‘rdak boqish uchun o‘ziga ijaraga oladi. Boshida ishlari yaxshi

[1] Bobojonov R. Jurnalning yangi soni // Xalq so‘zi. – 2021. 13-oktabr. – B. 12.
[2] Abdiyev O. Qadamlar,qadamlar, qadamlar! // Mushtum. – 2022. – №1. – B. 11.
[3] Ozod Mustafo. Ayyor qabul // Mushtum. – 2022. – №7. – B. 3.

yurishib ikki- uch kishini ham ish bilan ta’minlaydi. Ammo keyinchalik esa g‘ozlarga oziq-ovqat yetmasligidanmi yoki kasallikdanmi uning g‘ozlari nobud bo‘la boshlaydi. Bu yoqda esa unga ajratilgan kriditning imtiyozli davri ham tugaydi. Endi Mamatqo‘zi bormagan tashkiloti qolmaydi. Ancha vaqt o‘tib yana hokimning sayyor qabuli ustidan chiqib qoladi. Shu paytda endi odamlarga bor gapni aytaman, kridit olmanglar deb uqtiraman deb shijoat bilan kelganida hokim Mamatqulni ko‘rib bir necha bor maqtab ketadi. Hokimning maqtovlariga erib ketgan Mamatqul muammosini yecha olmay, yana keyingi sayyor qabulni kutishga majbur bo‘ladi.

Abdulaziz Eshmamatov muallifligi ostida «Ortiqcha quloq» sarlavhasi bilan bir hajviy masal keltirilgan. Ushbu masalda quyonlar oilasidagi Oppoqvoy ismli quyoncha haqida so‘z boradi. Oppoqvoyga ota-onasi juda e’tiborli bo‘lishadi. U maktabda ham a’lo baholarga o‘qiydi. U har kuni «Tulkilar jamiyati» binosi oldidan o‘tib unga hayrat bilan qarar, tulkilar kiygan chiroyli liboslar unga havas uyg‘otar va u ham, albatta, ushbu jamiyatga a’zo bo‘lishni orzu qilardi. Yillar o‘tib maktabni tugatgach jamiyatga a’zo bo‘lishga qaror qildi va bu uchun loyiha ham tayyorlab qo‘ygandi. «Shu maqsadda u bir kuni «Tulkilar jamiyati»ga bordi.

– Qani keling, Oppoqvoy! Qulog‘imiz sizda, gapiring.

Oppoqvoy loyihasini tushuntirib berdi.

– Bizga g‘oyangiz juda yoqdi, maslahatlashib javobini aytamiz. Ikki kundan so‘ng keling. Oppoqvoy xursand bo‘lib uyiga qaytdi. Aytilgan kun borganida esa:

– Loyihangiz yaxshi. Hatto ajoyib. Lekin qulog‘ingiz juda katta ekan. Shunga… Agar qulog‘ingizni kestirib kelsangiz, loyihangizni qabul qilishimiz mumkin… – deyishdi»[1].

Ushbu hajviy masalga e’tibor beradigan bo‘lsak, bunda ham jamiyatdagi byurokratiya , sansolarlik kabi illatlar achchiq kulgi bilan qalamga olingan. Oppoqvoyning tayyorlagan loyihasi ajoyib degan baho olgan bo‘lsa ham, jamiyatga olinmasligiga sabab sifatida uning uzun quloqlari ko‘rsatilmoqda. Ana shunday amaldorlar tufayli salohiyatli yosh kadrlar jamiyatda o‘z o‘rnini topa olmayotgani qoralanmoqda. Bunday holatlar jamiyatimizda ham uchrab turibdi.

Jurnalda hajviy janrga oid barcha turlardan unumli holda foydalanilib kelinadi. Yuqorida biz hajviy maqola va masalni ko‘rgan bo‘lsak, endi esa hajviy she’rga diqqatimizni qaratamiz. Ushbu hajviy she’r Ollohyor taxullusi ostida «Hokim va deputat» sarlavhasi ostida berilgan. Unda sobiq hokim bir kuni xotini bilan yo‘lda ketib borar ekan, ularning oldidan pardozi o‘ziga yarashmagan bir ayol chiqib qoladi va hokimga qarata deydi:

– Ooo, kimni ko‘ryapman?! Salom, azizim!
Sizni ko‘rganimdan qanchalar shodman!
Ilgari qushchaday uchib yurardim,
Endi, afsuslar-ki, bedavo bodman.

Shunda sobiq hokim u ayolni eslolmagani ta’kidlaydi. Ammo ayol unga javoban shunday deydi:

– Men esa ming unnay – unutolmayman,
Birgalikda o‘tgan uyqu onlarni!

Bu gaplardan so‘ng sobiq hokim xotinining tusi o‘zgara boshladi. Bir eriga qaradi va bir juvonga. Hokimning kal boshidagi tuklari hijolatdan tikka bo‘la boshlagan edi. Haligi ayol so‘zida davom etdi:

– Haaa, qanday bir zo‘r davrlaaar ediiii,
Uchrashardik oyu- hafta damo-dam!
Siz hay’atda sokin mudrar edingiz,
Zalda esa bizdek deputatlar ham…[2]

Yuqoridagi hajviy she’r juda chuqur ma’no kasb etadi. Unda jamiyatdagi bir nechta qora illatlar yengil kulgi bilan fosh etiladi. Diqqat bilan qaraydigan bo‘lsak, she’rda kichik bir voqea tilga olingan. Bir kuni sobiq hokim xotini bilan yo‘lda ketayotib yoshiga yarashmagan pardozli bir ayolga duch keladi. Ayol uni tanishini aytadi, hokim esa uni eslolmasligini ta’kidlaydi. Keyin ayol hokim bilan birga o‘tgan «uyqu onlari»ni tilga oladi. Shunda hokim tabiiy ravishda xotining oldida xijolatga tushadi. Shunda haligi ayol hokimning majlis hay’atida o‘zi esa pastdagi zalda deputatlar orasida mudraganini aytadi. Bir qarashda oddiy hazil she’rga o‘xshaydi. Ammo undagi illatlarga sinchkovlik bilan e’tibor beradigan bo‘lsak, she’rda kichik jumlalar orqali bir nechta illat fosh etilgani namoyon bo‘ladi. Birinchidan, hokimiyatdagi majlisbozliklar, ikkinchidan xalq muammolarini hal qilish uchun tashkillashtirilgan majlisda hokim va deputatlarning mudrab o‘tirishidir. Bulardan tashqari hokimlik davrida sobiq hokim xotiniga xiyonat qilmaganiga kim kafolat bera oladi?

Yuqoridagi kontentlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ularda siyosiy mavzularga oid illatlar qoralangan. Hajviy publitsistika boshqa jurnalistik janrlardan farqli ravishda ularning eng og‘riqli nuqtalarini jamoatchilikka yetkazish orqali ularni hal etilishiga olib keladi va shu orqali ushbu islohotlar rivojlanishi uchun o‘z hissasini qo‘shadi. Ayniqsa bu borada satiraning roli va ahamiyati yanada oshadi.

Ko‘plab olimlar o‘rtasida axborotni uzatish borasida turlicha qarashlar mavjud. Ularning bir qismi axborotni hajviy shaklda uzatishga qarshi g‘oyalar-

[1] Eshmatov. A. Ortiqcha quloq // Mushtum. –2022. – №3. – B. 6.
[2] Ollohyor. Hokim va deputat // Mushtum. – 2022. – №3. – B. 13.

ni ilgari surishadi. Bunga sabab sifatida esa hajviy kontentda berilayotgan axborotdagi faktlarning sifati va dolzarbligiga putur yetishini ko‘rsatishadi. Ammo Y.R. Simkin hajviy janrlar haqida shunday fikr keltirib o‘tgan; «Hajviy shakllar faktning hujjat sifatida qabul qilinishiga ta’sir qiladi, ammo uni buzib yubormaydi[1]. Ya’ni ushbu jumlaga e’tibor beradigan bo‘lsak, hajviy publitsistika axborotni shunchaki protokol tarzida emas, aksincha uni ta’sir etish xususiyatiga boy bo‘lgan holatda, obrazli shaklda ifodalaydi. Y.R. Simkin fikrida davom etar ekan shunday deydi: «… jurnalistning u yoki bu hodisalarga murojaat qilishiga sabab bo‘luvchi aniq hodisalar va aniq asoslar jamiyatning rivojlanishidagi dolzarb muammolar bilan bilan bevosita bog’liq» [2].

Yuqoridagi fikrlardan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, hajviy publitsistik asarlar o‘zida jamiyatda uchraydigan har qanday mavzuni qamrab oladi. Ayniqsa jamiyatning siyosiy holatini aniq va ravshan holatda yoritilishida beqiyos o‘ringa egadir. Farqli ravishda bir yoqlama holatda faqat bo‘rttirib ko‘rsatishdan mutlaqo holi ravishda, yutuq va kamchiliklarini bevosita obrazli shaklda, jamiyatga ta’sir etish kuchi bilan ifodalaydi. Bu shubhasiz siyosiy jarayonlarning yanada rivojlanishi uchun o‘z hissasini qo‘shadi.

Resume. This article analyzes the role of satirical journalism in the life of society, as well as its significance in covering political processes. In addition, it addresses the issue of how mass media adapt to traditions and new factors. In this process, satirical journalistic genres are rapidly adjusting to the times. They develop in harmony with society, reflecting the way of life of the people. It should be noted that satirical journalism is one of the main genres that figuratively depict various phenomena in society through the means of satire and humor. The potential and impact of satirical journalism become especially evident in the coverage of political processes.

Резюме. В данной статье анализируется роль сатирической публицистики в жизни общества, а также её значение в освещении политических процессов. Кроме того, затрагивается вопрос адаптации средств массовой информации к традициям и новым факторам. В этом процессе сатирические публицистические жанры достаточно динамично приспосабливаются к эпохе. Они развиваются в унисон с обществом, отражая образ жизни народа. Следует отметить, что сатирическая публицистика является одним из основных жанров, образно передающих различные явления в обществе с помощью сатиры и юмора. Особенно ярко возможности и влияние сатирической публицистики проявляются при освещении политических процессов

[1] Симкин Я.Р. Сатирическая публицистика. – Ростов-на-Дону, 1976. – С. 36.
[2] Симкин Я.Р. Сатирическая публицистика. – Ростов-на-Дону, 1976. – С. 51.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2025; 6-7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

DASTLABKI RUSCHA-O‘ZBEKCHA LUG‘ATLAR TARJIMASIDA SO‘ZLIKNI IZOHLASH USULLARI (ASHURALI ZOHIRIY VA ABDULLA QODIRIY LUG‘ATLARI MISOLIDA)

Jo‘rayeva Nigora Baxtiyor qizi,
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti

Tarjima lug‘atlar har bir davr uchun muhim sanalgan lug‘at turi bo‘lib, ular ikki yoki ko‘p tilli tarjimaga asoslangani bilan ham ahamiyatlidir. Ma’lumki, Turkiy lug‘atchilik tarixida bir nechta ko‘p tilli tarjima lug‘atlar yaratilgan. Ulardan «Muqaddimatul adab»[1], «Lug‘ati sitta alsina»[2], «Lug‘oti salos»[3] asarlari bir qator olimlar va izlanuvchilar ishlarida o‘rganilgan. Bu kabi ko‘p tilli tarjima lug‘atlar turli tillar o‘rtasida aloqalarni aks ettirish bilan bir qatorda o‘zga tillarni ham o‘rganishga da’vat etgan.

Ko‘p tilli tarjima lug‘atlar bilan bir qatorda ikki tilli tarjima lug‘atlari ham salmoqli o‘rinni egallaydi. Umuman olganda tarjima lug‘atlar tillar miqdoriga ko‘ra ikki, uch yoki ko‘p tilli tarjima lug‘atlari deb yuritilishi ma’lum. Ushbu maqolamizda biz aynan tillar miqdoriga ko‘ra ikki tilli bo‘lgan, ikki jadid ma’rifatparvarlari ishtiroki va ko‘magida tuzilgan ruscha-o‘zbekcha lug‘atlar, ulardagi so‘zlarni izohlash usullari haqida fikr yuritamiz. Ularning har ikkisi ham Sho‘rolar davrida yaratilgan lug‘atlar sanaladi hamda birinchisi 1927-1928-yillarda Ashurali Zohiriy tomonidan nashr etilgan «Ruscha-o‘zbekcha mukammal lug‘at»i bo‘lib, uning o‘zbekcha qismi arab grafikasida berilgan. Keyingi davrlardagi ruscha-o‘zbekcha lug‘atlar taraqqiyotiga turtki bo‘lgan bu asar buyurtma asosida yaratilgan. O‘zidan avvalroq tuzilgan Ruscha-tatarcha lug‘at(«Русско-татарский словарь», Казань, 1922)ning tatarcha qismini o‘zbekchalashtirish asosida tuzilgandir. Ruscha-tatarcha lug‘atdan farqli ravishda ushbu lug‘at A. Zohiriy tomonidan nafaqat tarjima qilingan balki, yangiliklar asosida qayta tuzilgan hamda o‘z davri uchun rus tilini o‘rganishga bo‘lgan talabga javob bera olgan. Ruscha-o‘zbekcha mukammal lug‘at tarjimasida olim bir qancha yangiliklarni kiritgan. Ular quyidagilar:

- Avvalgi lug‘atda keltirilgan so‘zlarning eskirganlarini lug‘atdan olib tashlaydi;
- Qo‘llanilishi eskirgan terminlar lug‘atdan chiqariladi;
- Ko‘plab ruscha so‘zlarning o‘zbekcha muqobillarini keltiradi;
- Illyustrativ misollar o‘zgartiriladi va qisman kamaytiriladi.

Lug‘atning bosh qismida tuzuvchi tomonidan unga shunday ta’rif beriladi: «Har kalimaning turli ma’nolari va rus tilida ishlatilib turgan chet so‘zlar tamom ko‘rsatilgan»[4]. Bundan ko‘rinib turibdiki, asar buyurtma asosida, tarjima o‘laroq yaratilgan bo‘lsada muallif unda davr tilining katta qismini aks ettirishga intilgan. Bu lug‘at o‘zidan keyingi ruscha-o‘zbekcha lug‘atlar rivojiga ham ta’sir etgan.

Ruscha- o‘zbekcha tarjima lug‘atlari ichida Ruscha-o’zbekcha to’la so’zlik» lug’atining ikkinchi jildi 1934-yil qozonda nashr etilgan. Mualliflar: S. Rahmatiy, A. Qodiriy va A. Saidovlar bo‘lib, birinchi jildi nima uchun nashr qilinmaganligi noma’lum. Ikkinchi jilddagi so’zlar П hamda Я harflarini o’z ichiga olib, uning П harfi qismi A. Qodiriy va A. Saidovlar tomonidan tuzilgan. Р harfidan Я harfigacha bo‘lgan qismi esa S. Rahmatiy rahbarligida tayyorlangan. Ikkala lug‘at ham shu kungacha ko‘plab tilshunos va lug‘atshunoslar tomonidan atroflicha o‘rganilgan. Xususan, T. Tog‘ayev va S. Normamatovlar ilmiy ishlarida ularga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Ularning izlanishlarida bu lug‘atlarning leksikografiyadagi o‘rni, ularning yaratilishi haqidagi ma’lumotlar, o‘xshash va farqli

[1] Исломов З.М. Маҳмуд Замахшарийнинг “Муқаддамату-л-адаб” асарининг қўлёзма манбалари ва арабчатуркий феъллар сўзлигининг йиғма илмий-танқидий матни (Тошкент қўлёзмалари асосида): Филол.фанлари дри ... дисс. – Тошкент, 1998.

[2] Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. Ўзбекистон миллиий энциклопедияси. – Тошкент, 2017.

[3] Ғафурова С. Салоҳидин Тошкандий “Луғоти салос” асарининг лексикографик хусусиятлари: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. автореф. – Тошкент, 2018.

[4] Ruscha-o‘zbekcha mukammal lug‘at. Ikki jildli / Nashrga tayyorlovchi: Ashurali Zohiriy. – Toshkent – Samarqand: O‘zdavnashr, 1927-1928.

jihatlari, tuzilishi va leksikografik tamoyillari o‘rganilgan. Shu bois biz ushbu jihatlarga to‘xtalib o‘tirmaymiz va bevosita ularda so‘zlarning izohlanish usullariga e‘tibor qaratamiz. Tarjima lug‘atlarda so‘zlikni izohlash eng asosiy vazifa sanaladi. Bunday lug‘atlar keng xalq ommasi yoki til o‘rganuvchilarga mo‘ljallangani sababli ikki tilni bir -biriga qiyoslab, tarjima qilish muhim. Tarjima jarayonida lug‘atdagi so‘zlarni qay tarzda izohlanishi lug‘atning qiymatini belgilaydi. Avvalo lug‘atlarda so‘zlikni izohlash masalasiga e’tibor qaratamiz.

Izoh - («tushuntirish», «sharh») biror so‘z, ibora voqea yoki hodisani tushuntirish, uning ma’nosini ochib berish. Masalan, so‘z ma’nosining izohi deyilganda, o‘sha so‘zning ma’nosi batafsil tushuntiriladi. Lug‘atlarda izoh masalasi qadim davrlardan beri e’tiborli jihat sanaladi. Leksikografik ishlarda biz turli izohlash usullarini uchratamiz. Ulardan biri – ekvivalent yo‘li bilan izohlash, kengroq izohlash, umumiy izohlash, qo‘shimcha ravishda boshqa tildagi so‘zlar bilan izohlash[1].

Leksikografiyadagi so‘zlikni izohlash usullaridan amaliy foydalangan holda biz «Ruscha-o‘zbekcha mukammal lug‘at»(A. Zohiriy, 1928) hamda «Ruscha-o‘zbekcha to‘la so‘zlik»(A. Qodiriy, 1934)ni bir-biriga qiyosan tahlil qildik. Ushbu tarjima lug‘atlarda so‘zlar quyidagi usullar orqali bir tildan boshqa tilga o‘giriladi:

a) So‘zning muqobilini tanlash;
b) Ko‘chma ma’noda qo‘llash;
c) Sinonim va antonim asosida;
d) Iboralar orqali;
e) So‘zning variantlarini keltirish.

Lug‘atlarda so‘zliklar berilar ekan, unda shu xalqning milliy an’analari, urf-odatlari, o‘zligi, mentaliteti aks etadi. Abdulla Qodiriyning hammuallifligi asosida tuzilgan «Ruscha-o‘zbekcha to‘la so‘zlik»da berilgan lug‘aviy birliklar ham shu kabi izoh usullari orqali tarjima qilingan. Lug‘atdagi so‘zlarning ko‘p qismi o‘sh davr tiliga xos bo‘lgan leksik va grammatik jihatlarni aks ettirgan. Biz solishtirib o‘rganayotgan «Ruscha-o‘zbekcha mukammal lug‘at»(A. Zohiriy) hamda «Ruscha-o‘zbekcha to‘la so‘zlik»(A. Qodiriy) lug‘atlari o‘z davrining adabiy va jonli so‘zlashuv tilini, madaniyatini shuningdek siyosiy hayotini ko‘rsata oladi. Ruslashtirish siyosati tufayli o‘lkamizda juda ko‘plab sohalar aynan rus tilida faoliyat olib borgan. Bu o‘z navbatida tilimizda ham bo‘y ko‘rsatgan. Lug‘atlar ana shu holatni ko‘rsatuvchi ko‘zgu o‘laroq, bizga ma’lumot yetkazadi. Ushbu lug‘atlardagi so‘zlar ham yuqoridagi kabi so‘zlikni izohlash usullaridan foydalanilgan holda rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan.

So‘zning muqobilini tanlash orqali izohlangan birliklar. So‘zlarni bir tildan boshqa til yoki tillarga tarjima qilishda ularning eng to‘g‘ri ma’nosi, muqobil shakllarini topib izohlash leksikografik asarlarda, xususan tarjima lug‘atlarda juda muhim va ahamiyatlidir. Turli tillar aro tarjima qilinganda shu til egasi bo‘lmish xalqning madaniyati, dini, adabiyoti kabilar o‘xshash yoki farqli bo‘lishi mumkin. Bir-biridan din va madaniyat jihatidan yiroq bo‘lgan xalqlarda til taraflama ham noo‘xshashliklar mavjud bo‘ladi albatta. Bu tarjima lug‘at tuzuvchilarga so‘z va so‘z shakllarini o‘rinli tanlashda qiyinchilik tug‘diradi. Ruscha-o‘zbekcha lug‘at tuzvchilari ham bu muammoga duch kelishadi ikki jadid namoyondalari tomonidan tuzilgan lug‘atlar: «Ruscha-o‘zbekcha mukammal lug‘at»(A. Zohiriy) hamda «Ruscha-o‘zbekcha to‘la so‘zlik»(A. Qodiriy)da ham leksik birliklarning muqobillarini tanlash asosida izohlash usuli mavjud. Biz ularni quyidagicha solishtirib ko‘rsatamiz va ikki lug‘atdagi izohlarni qavs ichida mualliflar ismlarining bosh harflarini berish orqali ajratishni ma’qul topdik. *Служака – eski xizmatchi(A.Q.708.) // Служака – ko‘p xizmat etkan kishi, xizmatda g‘ayrat ko‘rsatgan kishi(A.Z.558.); Случайност – tasodif(A.Q. 712) // Случайност – tasodif, fursat(A.Z.560.); собутыльник – shishadosh, birga ichishgan kishi(A.Q.718)// собутыльник – shishadosh, hamshisha, birga ichishgan kishi(A.Z.564); сожител – birga turuvchi, birga yashovchi, hamhujra(A.Q.725) // сожител – birga turg‘uchi(A.Z.566), телятник – buzoqxona(A.Q.823) // телятник – buzoq og‘ilxonasi(A.Z.597), прадед – katta dada-(A.Q.327) // прадед – boboning yoki onaning otasi. (A.Z.448.)* Har ikki lug‘atda ham juda ko‘p o‘rinlarda rus tilidagi so‘zlarning o‘zbekcha muqobil variantlari tanlangan. Ular adabiy til imkoniyatlari bilan birgalikda jonli so‘zlashuv uslubi va poetik nutq imkoniyatlari asosida izohlangan.

A. Qodiriy lug‘atida so‘ning muqobili berilgach, unga yana alohida sifat orqali izoh b erilgan hollarga ham duch kelamiz. Bu lug‘atdan foydalanuvchilarga uni yanada tushunishga osonlashtiradi. *Masalan, престарелый so‘zi lug‘atda «munkillagan» deya tarjima qilinadi va unga qo‘shimcha ravishda» juda ham qari» sifati orqali izoh berilgan(346).*

So‘zlarni ko‘chma ma’noda qo‘llash orqali izohlash. So‘zlarni izohlashda ularning o‘z ma’nosidan tashqari holatda ham izohlash ya’ni ko‘chma ma’no nozikliklarini ham lug‘atga kiritish tilning ichki imkoniyatlarini hamda ko‘p qirrali ekanligini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Har ikki muallif ham tarjimada so‘zning izohini ko‘chma ma’no oraqi ham aks etirishga uringan o‘rinlar mavjud. Bu bir tomondan o‘quvchiga so‘zni yanada aniq tushuntirishga xizmat

[1] Убайдуулаев А. Луғати туркийнинг лексикографик тадқиқи. – Toshkent; Mumtoz so‘z, 2021.

qilsa, ikkinchi tomonda lug‘atlar xalq tilinigina emas, ularning milliy madaniyatini ham aks ettishi kerakligini isbotidir. *Похабница – og‘zi buzuq, uyatsizA.Q(317)// похабный – uyatsiz, adabsiz(A.Z.446); предгорие – tog‘ etagi, tog‘ oldi(A.Q.332)// предгорие – tog‘ oldi, tog‘ usti(A.Z.452); пеня – o‘pka, gina(A.Q.248) пеня – jazoyi naqdi, gina(A.Z.); потрясение – g‘amga yo‘liquv, qaltirov, titrov(A.Q.315)// потрясение – juda katta qayg‘u, silkinish, qaltirash(A.Z.) va b.* Ushbu izohlarda berilgan *og‘zi buzuq, tog‘ etagi, o‘pka, g‘amga yo‘liquv* kabi izohlar aynnan ko‘chma ma’no orqali ifodalangan. Ular tarjimada o‘z ma’no bilan birga qo‘llanib so‘zning ma’no nozikliklarini o‘quvchiga yanada tushunarli ko‘rsatish uchun ishlatilgan. Bunday izoh usuli ham A. Zohiriydan ko‘ra A. Qodiriy lug‘atida ko‘proq uchraydi.

Sinonimlar orqali so‘zlarni izohlash. Bu usul deyarli barcha tipdagi lug‘atlar uchun xos bo‘lib, tarjima lug‘atlarini ham so‘ning turli shakllarisiz tasavvur etish qiyin. Sinonimlar bir so‘zni bir nechta ma’nosini berish orqali lug‘atning mukammaligiga hissa qo‘shadi. Bunday usulda so‘zlarni izohlashda nafaqat adabiy til me’yorlariga bo‘ysinuvchi sinonimlar, balki, leksikografnin xohish istagidan kelib chiqib jonli so‘zlashuvdagi leksik birliklardan ham foydalanish mumkin. A. Zohir tuzgan lug‘atda ham A. Qodiriy tuzgan lug‘atda ham ruscha so‘zlarning izohida ikkita va ba’zan beshtagacha sinonimik qator orqali izohlanishlarni uchratamiz: *Смута – qo‘zg‘alish ig‘vo, fitna, tartibsizlik, to‘palon, chuvalish(A.Q.709)// Смута – chuvalish, tartibsizlik(A.Z.561); сноровка – ep, mahurat, ustalik, qobiliyat(A.Q.715)// сноровка – ep, eplash, ustalik, mahohorat(A.Z.); собрат – birodar, qarindosh, maslakdosh(A.Q.716)// собрат – birodar qarindosh, maslakdosh, do‘st, o‘rtoq(A.Z.564); почва – tuproq, yer zamin(A.Q.319)// почва – tuproq, yerning ustki qatlovi(A.Z.447); почёт – hurmat, e’tibor, qadr(A.Q.320)// почёт – e’tibor, ehtirom, qadr va izzat(A.Z.).* Bunday misollar har ikki lug‘atda ham yetarlicha topiladi hamda so‘zlarni aynan sinonimlar yordamida tarjimasini chuqurroq ochib berish, o‘quvchiga bir so‘zning turli ma’nolarini ko‘rsatish ushbu lug‘atlardagi yetakchi usul sanaladi.

Iboralar orqali izohlash. So’z tarkibi hamda ma’nodagi siljishlar o’z izohini turli usullarda berilishini talab etadi. Shu sabab ikki tilli lug‘atlarda bosh so‘zning ma’nosini ochib berish uchun illyustrativ materiallarga ham e’tibor qaratildi[1].

Ana shunday misollardan biri iboralar bo‘lib, ular qat’iy qolipdagi leksik birliklardi. Shuningdek, ularni nutqda qo‘llash ta’sirchanlikni oshiradi. Biz tadqiq etayotgan lug‘atlarda ularni quyidagi hollarda uchratish mumkin:

Пофанфаронить – maxtanchoqlik qilmoq, «quruq aravani olib qochmoq»(A.Q.316); пленять – asir qilish, maftun etmoq, «ko‘nglini olmoq» (A.Q.145) // пленять – asir etish, ishq, maftun qilish(A.Z.403); полоумие – esipastlik, «bir qaynovi ichidalik»(A.Q.228) // полоумие – yarim aqllilik, jinnisimon(A.Z.430); прислушивать – тингламоқ, «қулоқ осмоқ» (A.Q.388)// прислушивать – xizmat qilish, ishini qilib yurish; последыш – kenja, so‘nggi bola, «to‘rva qoqdi»(A.Q.)// последыш – oxirgi, so‘nggi, kenja, oxirgi bola.(A.Z.)

Yuqoridagi misollardan shuni ko‘rish mumkinki, A. Zohiriy tomonidan tuzilgan lug‘atda so‘zlarni iboralar orqali izohlash deyarli uchramaydi, aksincha, unda tarjima berilgan so‘zning bir necha ma’nolar orqali ochib beriladi. Biz o‘rganayotgan ikkinchi lug‘atimizda – A. Qodiriy tuzgan lug‘atda – esa *«quruq aravani olib qochmoq», «ko‘nglini olmoq», «bir qaynovi ichidalik», «quloq osmoq», «to‘rva qoqdi»* kabi yana ko‘plab iboralar so‘z ma’nosi bilan yonma-yon keltiriladi va bu albatta o‘z davrida xalq tilida faol qo‘llanilgan iboralarni ko‘rsatadi. Bunday turg‘un birikmalar so‘z ma’nosiga qo‘shimcha ravishda uning uslubiy bo‘yoqdorligini namoyish etadi.

Aynan shu kabi lug‘atlarda lug‘aviy birliklarning bir tildan boshqa tilga izohini berishda chalkashliklar ham bo‘lishi mumkin. Bu bevosita o‘zlashgan til tufayli kelib chiqadi. Masalan, ruslashgan asli boshqa tildagi so‘zlar. Ammo bunday hollar lug‘atlarning umumiy ahamiyatiga putur yetkazmaydi.

So‘zning variantlarini keltirish. *Теплить – yilitmoq, ilitmoq, isitmoq(A.Q.827)// Теплить – isitish, yilitish(A.Z.598); потысячно – minglab, mingtalab(A.Q.316) kabi. Shuningdek, rus tilidagi variantdosh so‘zlar izohlanayotganda*, A. Zohiriy lug‘atida «қаранг, A. Qodiriy lug‘atida esa qarang so‘zi (қ.) shakldagi qisqartmasi holida izohlangan: *перелить – қ. переливать (A.Q.78), подопреть – қ. подопревать (A.Q.202), последок – қ. последки (A.Q.302).* So‘zlarni bunday variantlilik asosida izohlash ko‘plab takrorlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Har ikkala lug‘atda ham so‘zlarni izohlash jihatidan XX asr leksikografiyasining alohida xususiyati – lug‘atlarni soddalashtirish, xalq tiliga yaqinlashtirish uslubini ko‘rish mumkin. Ya’ni ularning har ikkisida ham o‘sha davrning xalq adabiy tili, shevalari va jonli so‘zlashuv uslubi ko‘rsatiladi. Shuningdek, amalda qo‘llanilgan so‘zlar eskirgan yoki ijtimoiy jihatdan kam foydalaniladigan so‘z shakllaridan ko‘ra ko‘proq e’tiborga olinadi. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ko‘plab izoh usullari masalan, ko‘chma ma’no orqali izohlash, iboralar orqali izohlash usul-

[1] Русско-Турецкий текстилний словарь. – М., 1936.

lari «Ruscha-o‘zbekcha mukammal lug‘at»dan ko‘ra «Ruscha-o‘zbekcha to‘la so‘zlik»da ko‘proq qo‘llanilgan. Bu lug‘atlar yaratilgan davr oralig‘idagi farq yoki tuzuvchilarning ijodiy yondashishi sababidan ham bo‘lishi mumkin.

Rezyume. Ushbu maqolada o‘zbek leksikografiyasidagi dastlabki tarjima lug‘atlar, xususan, ruscha-o‘zbekcha lug‘atlar, asosan Ashurali Zohiriy va Abdulla Qodiriy boshchiligida tuzilgan ikkita lug‘at haqida mulohazalar bayon etilgan. Lug‘atlardagi so‘zlikni izohlash usullari hamda ushbu ikki lug‘atda so‘zlikni izohlashda qanday usullardan foydalanilgani qiyosan yoritilgan.

Resume. This article presents observations on the first translation dictionaries in Uzbek lexicography, in particular, Russian-Uzbek dictionaries, mainly two dictionaries compiled under the leadership of Ashurali Zohiriy and Abdulla Qodiriy. The methods of interpreting vocabulary in the dictionaries and the methods used in interpreting vocabulary in these two dictionaries are comparatively discussed.

Резюме. В статье представлены наблюдения над первыми переводными словарями в узбекской лексикографии, в частности, над русско-узбекскими словарями, в основном двумя, составленными под руководством Ашурали Захири и Абдулла Кадыри. В сравнительном анализе рассматриваются методы толкования лексики в этих словарях и методы, используемые при толковании лексики в этих двух словарях.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 6-7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

NEUROLINGUISTIC ANALYSIS: LANGUAGE AND BRAIN

Po'latxonova Hilolaxon Shuhratxon qizi,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ingliz tili amaliy aspektlari kafedrasi o'qituvchisi

Language is a uniquely human ability, supported by complicated neurological processes. Neurolinguistics is an interdisciplinary study that blends linguistics, psychology, and neuroscience to understand how language is represented and processed by the brain. Neurolinguistic research dates back to the nineteenth century, specifically to the pioneering work of Paul Broca and Carl Wernicke, who discovered a correlation between localised brain injury and language difficulties. Their findings established the classical localizationist viewpoint, which has since evolved into more complicated network-based models of language processing. Non-invasive neuroimaging technologies such as functional Magnetic Resonance Imaging (fMRI), Electroencephalography (EEG), Magnetoencephalography (MEG), and Positron Emission Tomography (PET) have transformed the field in the twenty-first century, allowing researchers to examine the timing and localisation of brain activity during linguistic tasks with unprecedented accuracy.

This article provides a complete introduction of neurolinguistic analysis, beginning with the basic methodological approaches utilised in experimental research, which include both behavioural and neurophysiological techniques. We then look at significant empirical results on the neural basis of phonological, syntactic, and semantic processing, as well as the brain's extraordinary adaptability in bilingualism and language recovery after neurological impairment. We also look at clinical and technological applications, such as diagnosing and treating language disorders, as well as the implications for computational models and artificial intelligence.

We discuss new trends and difficulties in the area, emphasising the value of interdisciplinary collaboration in improving theoretical models and expanding our understanding of the neurolinguistic architecture of the human brain. By combining many research strands, this article hopes to contribute to a more integrated and nuanced understanding of how language is neurologically instantiated and cognitively used.

The branch of neurolinguistics has experienced substantial theoretical and methodological changes since its start. Early research in the nineteenth century provided a foundational understanding of how particular brain regions contribute to language processes. Broca discovered the role of the left inferior frontal gyrus in speech production[1], while Wernicke proved that the posterior superior temporal gyrus is essential for language comprehension. These findings supported the conventional paradigm of brain-language organisation, which stated that separate cortical areas are specialised for certain linguistic functions[2].

However, further empirical discoveries began to call into question this rigid localizationist viewpoint. Geschwind proposed a concept emphasising the role of white matter pathways, such as the arcuate fasciculus, in connecting language-related areas and facilitating integrated language processing[3]. Hickok and Poeppel introduced the dual-stream model of speech processing, which distinguishes between a dorsal stream (mapping sound to articulation) and a ventral stream (mapping sound to meaning)[4]. This model has received widespread support from functional neuroimaging and electrophysiological evidence, and it continues to lead contemporary research into the functional architecture of language in the brain.

In terms of methodology, the development of non-invasive neuroimaging technologies has been critical. Functional Magnetic Resonance Imaging (fMRI) enables high spatial resolution in identifying

[1] Broca, P. (1861). Remarques sur le siège de la faculté du langage articulé, suivies d'une observation d'aphémie (perte de la parole). *Bulletin de la Société Anatomique de Paris*, 6, 330–357.

[2] Wernicke, C. (1874). Der aphasische Symptomencomplex: Eine psychologische Studie auf anatomischer Basis. *Cohn & Weigert*.

[3] Geschwind, N. (1970). The organization of language and the brain. *Science*, 170(3961), 940–944.

[4] Hickok, G., & Poeppel, D. (2004). Dorsal and ventral streams: A framework for understanding aspects of the functional anatomy of language. *Cognition*, 92(1–2), 67–99.

active brain regions during linguistic tasks[1], whereas Electroencephalography (EEG) and Event-Related Potentials (ERP) provide fine-grained temporal information about language processing stages. For example, the N400 component is consistently connected with semantic anomaly identification[2], whereas the P600 and Left Anterior Negativity (LAN) are associated with syntactic processing and reanalysis[3].

Studies on bilingualism and second language acquisition have contributed to a better understanding of neurolinguistics. Abutalebi and Green found that multilingual language control engages not only traditional language areas, but also the prefrontal cortex and anterior cingulate cortex, which are engaged in cognitive control and conflict monitoring[4]. Studies utilising fMRI and MEG have demonstrated that the timing of language acquisition and proficiency level have a major influence on brain representation[5].

These findings have also aided clinical neurolinguistic research. Aphasias–language deficiencies caused by brain damage–have been reclassified using more dynamic and network-based theories of brain activity. Turkeltaub et al.[6] and Fridriksson et al.[7] found that recovery from aphasia requires both perilesional recruitment and contralateral hemisphere compensation, demonstrating the brain's adaptability.

The literature also demonstrates an increasing interest in applying neurolinguistic discoveries to artificial intelligence (AI) and natural language processing (NLP). Poeppel et al., for example, advocate for more alignment between computer models and biological data, emphasising that human-like language understanding in machines necessitates replicating the hierarchical, context-dependent, and time-sensitive components of human language processing[8].

In conclusion, the literature emphasises the diversity and complexity of the neurolinguistic landscape. Theoretical models have evolved from modular and localised perspectives to more distributed and interactive frameworks, and methodological advances continue to improve our understanding of how language is embedded in and enacted by the brain.

Neurolinguistic analysis is an interdisciplinary field that has helped us learn a lot about how the brain processes language. The results of neuroimaging, lesion investigations, and behavioural trials all point to a change from traditional localizationist ideas to a more network-based, integrative view of language processing. These changes not only improve theoretical models, but they also have real-world effects on diagnosis, treatment, and technology use.

One of the most important things we've learnt from recent studies is that language processing isn't limited to certain areas; it's spread out throughout a network that includes the frontal, temporal, parietal, and subcortical structures. For instance, Broca's and Wernicke's regions are still important hubs, but we now know how they fit into bigger circuits like the dorsal and ventral streams, which are responsible for integrating auditory and motor information and processing meaning, respectively. This has helped us understand language operations like phonological decoding, syntactic parsing, and semantic integration better.

Electrophysiological investigations have also shown how temporal dynamics can give us more detailed information about how we understand and produce language in real time. Finding ERP components like the N400 and P600 gives us a time-sensitive look at how the brain reacts to semantic and grammatical errors. These results show that the brain can foresee and adapt, which means that language processing isn't only reactive; it also incorporates anticipatory systems that are impacted by context and what you already know.

Talking about bilingualism and learning a new language shows even more how flexible and adaptable the brain is. The fact that executive control

[1] Friederici, A. D. (2011). The brain basis of language processing: From structure to function. *Physiological Reviews*, 91(4), 1357–1392.Журналы физиологии+3UPV/EHU+3PubMed+3

[2] Kutas, M., & Hillyard, S. A. (1980). Reading senseless sentences: Brain potentials reflect semantic incongruity. *Science*, 207(4427), 203–205.kutaslab.ucsd.edu+2Научное Общество+2PubMed+2

[3] Osterhout, L., & Holcomb, P. J. (1992). Event-related brain potentials elicited by syntactic anomaly. *Journal of Memory and Language*, 31(6), 785–806.PubMed+3Научныйдирект+3Научныйдирект+3

[4] Abutalebi, J., & Green, D. W. (2007). Bilingual language production: The neurocognition of language representation and control. *Journal of Neurolinguistics*, 20(3), 242–275.Научныйдирект

[5] Perani, D., Paulesu, E., Galles, N. S., Dupoux, E., Dehaene, S., Bettinardi, V., ... & Mehler, J. (1998). The bilingual brain: Proficiency and age of acquisition of the second language. *Brain*, 121(10), 1841–1852.

[6] Turkeltaub, P. E., Messing, S., Norise, C., & Hamilton, R. H. (2011). Are networks for residual language function and recovery consistent across aphasic patients? *Neurology*, 76(20), 1726–1734.NCBI+4PubMed+4ResearchGate+4

[7] Fridriksson, J., Richardson, J. D., Fillmore, P., & Cai, B. (2012). Left hemisphere plasticity and aphasia recovery. *NeuroImage*, 60(2), 854–863.

[8] Poeppel, D., Emmorey, K., Hickok, G., & Pylkkänen, L. (2012). Towards a new neurobiology of language. Journal of Neuroscience, 32(41), 14125–14131.

areas are involved in bilingual people shows how language is connected to other mental processes. The age at which a person learns a second language and how well they speak it both affect how the brain is organised. This supports the Critical Period Hypothesis, but it also acknowledges that people can learn a second language at any age, even if their brains are wired differently.

Neurolinguistic research has helped us better define, locate, and treat language impairments in clinical settings, especially in people with aphasia, developmental language abnormalities, and neurodegenerative diseases. Functional reorganisation, in which other parts of the brain make up for injured language centres, gives hope for neurorehabilitation treatments. Combining neuroimaging and behavioural therapy in multimodal techniques has shown promise in improving recovery outcomes and making treatment plans that are unique to each person.

The merging of neurolinguistics with artificial intelligence is important because it leads to new ways of thinking about both theory and technology. Human language processing can help make NLP systems that make greater sense to the brain, and AI-powered technologies can help with language diagnosis and rehabilitation. But there are still problems with making sure that computational models accurately show how human language is non-linear, depending on context, and embodied.

Even with these improvements, there are still a lot of unanswered concerns and methodological problems. For example, combining data from different types of imaging (such EEG and fMRI) requires strong analytical frameworks to deal with disparities in spatial and temporal resolution. There aren't enough cross-linguistic investigations, which makes it harder to apply the results to different language systems. Also, the ethical issues that come up in neurolinguistic research, especially in clinical and AI settings, make it important to think carefully about privacy, permission, and how brain-based language data might be misused.

The talk about neurolinguistic analysis shows that it is a discipline that is both interesting in theory and useful in practice. Combining linguistic theory with cutting-edge neuroscience has helped us learn more about how language is stored in the brain and has opened up new possibilities for using this knowledge in healthcare and technology. To solve present problems and move research in new areas, people from different fields will need to keep working together.

The combination of research findings from neurolinguistic studies uncovers several essential insights into the brain underpinnings of language processing. Decades of experimental study utilising neuroimaging, lesion investigations, and electrophysiological approaches have yielded the following significant results:

1. *Unique neural pathways for linguistic elements*

Neuroimaging research demonstrates that distinct elements of language–phonology, syntax, and semantics - are linked to specialised yet interconnected cerebral regions:

Phonological processing engages the superior temporal gyrus and the supramarginal gyrus, especially within the left hemisphere.

Syntactic processing activates Broca's region (BA 44/45), along with contributions from the posterior superior temporal sulcus and the anterior temporal lobe.

Semantic processing predominantly engages the middle and inferior temporal gyri, along with the angular gyrus.

These findings endorse the functional segregation and integration of language processes, indicating that comprehension and production are facilitated by dispersed brain networks rather than isolated regions.

2. *Language processing temporal dynamics*

Electrophysiological evidence, especially ERPs, has clarified brain language processing timing:

Semantic incongruity peaks around 400 milliseconds following stimulus onset in the N400 component.

P600 is linked to syntactic abnormalities and reanalysis.

Left Anterior Negativity (LAN) affects early syntactic organisation.

These components show that sentence comprehension involves temporally different and hierarchically organised semantic and syntactic processes.

3. *Neuroplasticity, bilingual language representation*

According to bilingual studies, the brain's language systems adjust to age, proficiency, and frequency of use:

Early bilinguals have language-overlapping brain representations in classical language domains.

Late bilinguals rely more on executive control regions such the dorsolateral prefrontal cortex and anterior cingulate cortex, resulting in more activation differentiation.

Functional MRI shows that proficiency, not age, predicts language neural overlap.

4. *Brain reorganisation and language recovery*

Researchers have found that the brain can reorganise language skills in clinical populations with

language disorders like aphasia:

Perilesional recruitment in the dominant hemisphere and compensatory activation in homologous right hemisphere areas occurs after recovery.

As language therapy progresses, fMRI and MEG studies show brain activation patterns changing.

These discoveries demonstrate the brain's amazing functional reorganisation, enabling personalised recovery.

5. *Technology and clinical diagnostics applications*

Neuroimaging and electrophysiology are used more in:

Helping diagnose aphasia, dyslexia, and developmental language impairments.

Decoding language-related neural signals in brain-computer interfaces helps severely motor-impaired people communicate.

AI uses biologically inspired language processing models to increase machine language understanding.

These findings show that neurolinguistic research can be applied outside academia.

Neurolinguistic analysis has contributed greatly to our understanding of how language is processed, represented, and recovered in the human brain. This interdisciplinary discipline, founded on both classical and modern neuroscience, has progressed from early localizationist models to more extensive network-based frameworks. Neuroimaging and electrophysiological investigations demonstrate that language processing occurs across functionally specialised yet interconnected regions, with temporal dynamics playing an important role in real-time comprehension and creation.

Bilingual language acquisition and post-injury recovery demonstrate the brain's extraordinary flexibility, with cortical reorganisation and executive control systems supporting language functioning. These findings have significant implications for clinical practice, providing novel techniques to identifying and treating language disorders such as aphasia and dyslexia. Furthermore, breakthroughs in neurolinguistics are having an increasing impact on technological progress, particularly in brain-computer interfaces and AI-driven language models, emphasising the practical importance of aligning artificial systems with human cerebral architecture.

Despite its accomplishments, the discipline still confronts technical and theoretical hurdles, such as integrating multimodal imaging data, the need for more cross-linguistic research, and ethical concerns in clinical and AI settings. Continued interdisciplinary collaboration will be required to resolve these challenges and further understand the complex relationships between language and the brain.

To summarise, neurolinguistics not only advances our scientific understanding of the cognitive and neurological systems that underpin language, but it also opens up new avenues for novel applications in medicine, education, and technology. It is a vibrant and expanding topic that promises to make significant contributions to both theoretical linguistics and practical neuroscience in the next years.

Rezyume. Ushbu maqolada neyrolingvistika fanining asosiy yo'nalishlari tahlil qilinadi. Til inson miyasida qanday tarzda qayta ishlanishi, saqlanishi va tiklanishi haqidagi neyroilmiy va lingvistik yondashuvlar ko'rib chiqiladi. Ushbu maqola neyrolingvistik tadqiqotlarning hozirgi holati va istiqbollarini keng qamrovli tarzda ko'rsatib beradi.

Resume. This article explores on the interdisciplinary topic of neurolinguistics, specifically how language is processed, represented, and recovered in the brain. This review seeks to provide a complete overview of current neurolinguistic ideas and practices, with a focus on the brain's dynamic plasticity in supporting language.

Резюме. В статье рассматривается междисциплинарная область нейролингвистики, исследующая, как язык обрабатывается, представляется и восстанавливается в мозге человека. Цель статьи – дать всесторонний обзор современных теорий и практик нейролингвистики, подчеркнув динамическую адаптивность мозга в поддержке языковой деятельности.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 6-7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ALISHER NAVOIYNING «SADDI ISKANDARIY» DOSTONIDA QO'LLANGAN BA'ZI BIR SOMATIK IBORLAR TAHLILIGA DOIR

Tamiqayeva Dilafruz,
Samarqand davlat chet tillar instituti
akademik litseyi o'qituvchisi

Ma'lumki, Alisher Navoiy asarlarini o'rganish va tadqiq etish ishlari boshlanishi Yevropada XVI asrga to'g'ri keladi. O'zbekistonda esa XX asrning 20–30-yillaridan boshlab, Alisher Navoiy ijodini ilmiy tahlil qilish ishlari boshlangan. Birinchilardan bo'lib, Abdurauf Fitrat tomonidan «Navoiyning forsiy shoirligi ham uning forsiy devoni to'g'risinda» va «Farhod-u Shirin» dostoni to'g'risida nomli maqolalarini e'lon qilingan.

Mustaqillikkacha bo'lgan davrda navoiyshunoslik ilmida asosan adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan ilmiy tadqiqotlar olib borligan bo'lsa-da, adib asarlariga xos tilshunoslik masalalarini asosan A.Rustamov, B.Bafoyev, U.Samnaqulov va boshqa olimlar tomonidan monografik tadqiqot shaklida o'rganilgan edi.

Mustaqillikdan keyingi davrda ham navoiyshunoslik borasidaolib borilgan ishlar, erishilgan yutuqlar asosan adabiyotshunoslik yo'nalishida bajarilganligini ta'kidlash zarur. Ammo adib asarlarining ancha qismi tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganilgan emas. Xususan, Alisher Navoiy asarlari tili frazeologiyasi bo'yicha ba'zi ishlar qilingan bo'lsa-da[1], lekin shu kungacha ulug' shoirning liro-epik asarlari, jumladan «Xamsa»si tarkibiga kiruvchi dostonlari tilida qo'llangan frazeologizmlar alohida monografik yo'sinda tadqiq qilinmagan.

Shoirning «Saddi Iskandariy» dostoni «Xamsa» ning beshinchi dostoni sifatida 1485-yilda yozilgan bo'lib, 89 bobdan iborat. Sharq mumtoz adabiyoti an'anasiga ko'ra dostonning birinchi bobi Xudoning madhi-hamd, undan keyingi bobi Xudoga iltijo-munojot, uchinchi bobi esa Muhammad payg'ambar ta'rifi-na'tdan iborat. To'rtinchi bobda me'roj kechasi voqealari ta'rifi keltirilgan. Dostonda birinchi bobdan oxirgi bobgacha olib brogan kuzatishlarimiz doirasida juda ko'plab iboralar qo'llanganligining guvohi bo'ldik. Bu esa adibning xalq og'zaki ijodi materiallari hamda tassuvuf ilmidan yaxshi xabardor bo'lganligi bois iboralardan o'rinli foydalanganligidan dalolat beradi.

Alisher Navoiy o'z mahoratini ijodkorlarga xos tarzda namoyon etib, birgina «falak» so'zi orqali ham bir qator iboralar yaratdi. «Falak ahli», «Falak gardishi», «Falak durji», «Falak jomi», «Falak mushkiloti», «Falak pili», «Falak sabzasi», «Falak sayri», «Falak siri», «Falak toqi», «Falak xingi», «Falak qal'asi», «Falakni yala» kabilar.

Tilab ul kabutarlar oromini,
Yasading falak qasrining tomini[2].
Falak ahlin ayalb chu nur ichra g'arq,
Falakdin inib yerga andoqqi barq. [3]
Falak gardishi aylabon zulmu zo'r,
Necha yil ani aylabon xonagir[4].
Falak durjida lavhi darkordek,
Davot uzra bir naqshi pargordek[5].

Bundan ko'rinadiki,tildagi frazeologik birliklarning rivojlanishi va boyishi, tilning boshqa birliklarida bo'lganidek, faqat frazeologik neologizmlarning paydo bo'lishi bilan emas,balki mavjud iboralarning polisemantik xususiyatlarini ochib berishda ham foydalanish lozim.

«O'zbek tilining izohli lug'atida» *falak* so'zining hozirgi kunda ishlatilayotgan bir qancha ma'nolarini izohlab bergan. «Osmoni falak», «falakning gardishi bilan», «parvoyi falak», «fig'oni falakka chiqmoq»(o'ralamoq, ko'tarilmoq) kabilar[6].

Bu g'arib ba kimsasiz kishi asli Sabzavor shahridan, ***falakning gardishi bilan*** *Hirotga kelib qolgan.*

G'o'zalaringiz chanqab ketibdi siz bo'lsangiz ***parvoyi falaksiz*****.**

Padariga ming la'nat, shu ham ko'p bo'ldimi, - sakson yoshlar atrofidagi otaxonning **fig'oni falakka o'rmaladi.**

[1] Умаров Э.А. Фразеологический словарь "Хазойин ул-маоний" Алишера Навои. –Ташкент: Фан, 1971.
[2] Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy.- Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi matbaa nashriyoti, 2020.-B.5.
[3] Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy.- Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi matbaa nashriyoti, 2020.-B.239.
[4] Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy.- Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi matbaa nashriyoti, 2020.-B.74.
[5] Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy.- Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi matbaa nashriyoti, 2020.-B.236.
[6] O`zbek tilining izohli lug`ati. 6 jildlik. 4- jild. –Toshkent:" O`zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti,2008.B.321.

Yuqoridagi dallillar asosida aytishimiz mumkinki, akademik Alibek Rustamovning ta'kidlashicha, «Navoiy turkiy lahjalarni mukammal o'rgangan, arab va fors tillarini a'lo darajada bilgan va bu tillarda yozilgan ilmiy va adabiy kitoblarni chuqur tahlil qilib yaxshi o'zlashtirgan. Shoir tilning juda nozik tomonlarini yaxshi anglay olgan va uning til borasidagi nuktabinligi va daqiqbinligi uining adabiyot maydonidagi ulkan badiiy muvaffaqiyatlariga asos bo'lgan». Navoiy tildan to'liq va aniq foydalanibgina qolmay, uni har tomonlama boyitdi va juda yuksak darajada ko'tardi. Navoiy til qonunlarini buzmagan holda ko'pgina so'z va iboralar ijod etgan hamda mavjud so'z va iboralarni yangi ma'nolardan mohirona ishlatgan. Navoiyning «Xamsa»sida «raxshi tamanno surmak», «shikasta maqol kelmak», «kamol tutmoq», «ganj fishonliq qilmoq», singari o'zi yaratgan so'z va iboralar juda ko'pdir[1] .

«Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati» tuzuvchilarining guvohlik berishicha «ko'ngul// ko'ngil» umumturkiy so'zi ulug' shoir asarlarida uch ma'noda qo'llangan hamda bu so'z yordamida o'sha davrdayoq «ko'ngul bermoq», «ko'ngul bog'lamoq», «ko'ngul olmoq», «ko'nglini ovutmoq», «ko'ngli ozmoq», «ko'ngli ochilmoq», «ko'ngli sovumoq», «ko'ngli tosh», «ko'ngul uzmoq», «ko'ngli qaro», «ko'nglini qaro etmoq», «ko'ngli qattig'", «ko'ngli yumshoq», «ko'ngul g'ash qilmoq» singari bir qancha umumturkiy frazeologizmlar shakllangan[2]. Yuqorida keltirilgan «ko'ngil» komponentli umumturkiy iboralarning ma'lum qismi «Layli va Majnun» va «Saddi Iskandariy» dostonlarida ham qo'llangan. Masalan, «ko'nglini olmoq» iborasi «o'ziga yaqin olmoq, ishqiga sazovor qilmoq» ma'nolarini bildiradi:

K-ey jonima hayrat o'ti solg'an,
Ko'nglumni burun nazarda olg'an[3]

«Ko'nglini ovutmoq» umumturkiy iborasi esa «ko'ngliga taskin bermoq, tinchlantirmoq» ma'nolarini ifodalashga xizmat qilgan:

Ul kom ila ko'nglini ovutma,
Bu ravza sori ani yovutma[4]

«Ko'ngil og'ritmoq» umumturkiy tillarga xos ibora bo'ib, «alam chekmoq, qayg'uga tushmoq» ma'nolarini bildiradi:

«Ko'ngli bahr olmoq» iborasi esa «Saddi Iskandariy» dostonida «shod bo'lmoq, xursand bo'lmoq «ma'nolarini bildiradi:

Magar bir kun ovdin olib ko'ngli bahr
Tarab birla aylab edi azmi shahr[5] .
Ko'ngul, himmat ahlig'akim, bo'ldi keng,
G'ino birla faqr o'ldi ollinda teng[6].

Bu baytdagi «ko'ngul keng» iborasi barchaga barobar ya'ni boy va qambag'al uning uchun teng ma'nosida kelmoqda.

«Ko'nlgini resh et, ayla» iborasi dostonda «ko'nglini jarohatlamoq» ma'nosida qo'llangan.

Gahi bekaslik aylab ko'nglini resh,
Gahi bemorlig'idin jonida nesh.
Anga po'ya resh etmish erdi jigar,
Ki bir tuhfa kishvarg'a qildi guzar[7].

O'zbek tilshunosligida somatik frazeologizmlarning shakllanishi va ularning funksional xususiyatlari bilan Y.Pinxasov, Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev, A.Mamatov, A.Isayev, A.Mamatov, Sh.Usmonova, Sh.G'aniyeva,U.Rashidova singari tilshunoslar tadqiqot olib borishgan.

Tilimizda «lab», «bosh», «qo'l», «yuz», «yurak», «oyoq», «bel», «ko'z» singari somatik birliklar bilan ishtirokida juda ko'plab somatik iboralar yuzaga kelgan. Sh.Rahmatullayev «qo'l» komponentli 70 ga yaqin iboralarning ma'nosi izohlagan[8]. U.Rashidova esa «ko'z», «qo'l», «yurak» komponentli iboralarning semantik maydoniniga xos nutqiy jarayonlarda o'zbek xalqiga xos mentalitet bilan bog'liq semantik va grammatik jarayonlar kuzatilshini tadqiq etgan[9]. Birgina «ko'z» somatizmi asosida yuzdan ortiq umumturkiy iboralar shakllangan bo'lib, ularda milliy madaniyatning turli ko'rinishlari mujassamligini ko'rish mumkin. Masalan, «ko'zini ochmoq – ko'zi ochildi» iborasi juda faol qo'llanib, «xushyor bo'lmoq, yaxshi – yomonni farqlamoq» kabi ma'nolarni bildiradi[10].

«Saddi Iskandariy» dostonda keltirilgan «bosh uchirmoq» iborasi «o'tkir qilich bilan boshini kesmoq» ma'nosini anglatadi:

Bo'lib sheva el bo'ynin urmoq anga,

[1] Рустамов А Навоийнинг бадиий маҳорати. –Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1979. –В. 135-137.
[2] Алишер Навоий асарлари изоҳли луғати.IV жилдлик, II жилд,.- Тошкент: ФАН, 1983. Б.51-153; 1 80-89;108.
[3] Alisher Navoiy. Layli va Majnun. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi matbaa nashriyoti, 2020. – B. 64.
[4] Alisher Navoiy. Layli va Majnun. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi matbaa nashriyoti, 2020. – B. 97.
[5] Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi matbaa nashriyoti, 2020. – B. 248.
[6] Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi matbaa nashriyoti, 2020. – B. 95.
[7] Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi matbaa nashriyoti, 2020. – B. 103.
[8] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Қўмуслар бош таҳририяти, 1992.
[9] Рашидова У. Ўзбек тилидаги соматик ибораларнинг семантик-прагматик таҳлили(кўз, қўл, юрак компонентли иборалар мисолида): Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисертацияси автореферати. – Самарқанд, 2018.
[10] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати.- Тошкент: Қўмуслар бош таҳририяти, 1992.-Б. 140.

Itik tig‘ ila bosh uchurmoq anga[1].

«O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da esa bu ibora «boshi ketmoq» ya’ni «o‘ldirmoq, qurbon bo‘lmoq» ma’nosida keltirilgan.

Seni ko‘rdi, har yonki, soldi ko‘zin,
Chu bori sen o‘lding, iturdi o‘zin[2].

Bu baytd keltirilgan» ko‘z solmoq» iborasi tilimizdagi «ko‘z tashlamoq» iborasi bilan ma’no jihatdan yaqin iboralardir.

«Saddi Iskandariy» dostonida «ko‘zni ravshan etmoq» umumturkiy iborasi «hushyor bo‘lmoq, xabardor bo‘lmoq» ma’nolarini ifodalagan:

Ham andin birov so‘rdi bu nav so‘z,
Ki ey ravshan etgan bilik birla ko‘z[3].

Bundan tashqari «ko‘z oldiga keltirmoq», «xayol qilmoq» ma’nolarini ifodalash uchun «Layli va Majnun» dostonida ham «ko‘zga kiyurmoq» iborasi qo‘llangan. lekin hozirgi kunda bu ibora arxaiklashgan.

Tasvir etibon yuzi xayolin,
Ko‘zga kiyurub qadi misolin[4].

Tilimizda «qon qilmoq», «yuragini qon qilmoq», «yurak-bag‘ri qon bo‘lmoq» singari umumturkiy iboralar polisemantik xususiyatga ega. Bu iboralarning bir ma’nosi «ruhan azoblanmoq» bo‘lsa, yana bir ma’nosi «diltang bo‘lmoq, ziq bo‘lmoq» dir[5].

Layli ishqin tanimda jon qil,
Layli shavqin yuragimda qon qil[6].

Alisher Navoiyning lirikasida «qon qilmoq» iborasi «qon aylamish», «qon bo‘lding», «qon qilur», «qonlar qilur», «qon etmoq» singari bir qancha leksik va grammatik variantlarga ega bo‘lib, «ruhan azob bermoq, qiynamoq, tavbasiga tayantirmoq» ma’nolarida qo‘llangan.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy «Xamsa» asarida, xususan, «Saddi Iskandariy» dostonida xalqona iboralari tarkibini o‘zgartirish barobarida, ularning nutq jarayonidagi ta’sirchanlik doirasini oshirishga intilgan holda, ularning yangi ma’no qirralarini ochib beruvchi frazeologik birliklar hosil qilishga erisha olgan. Bu esa adib asarlarida qo‘llangan somatik birliklar ishtirok etgan iborlarga xos ma’no noziklikiarni keng monografik tarzda o‘rganish tilshunoslikfani oldidagi dolzarb masalalardan biri ekanligiga ishora hisoblanadi.

Rezyume. Mazkur maqola Alisher Navoiyning «Saddi Iskandariy «dostonida qo‘llangan iboralar tadqiqiga bag‘ishlangan. Xususan, allomaning «Saddi Iskandariy» dostonida ifodalangan somatik iborlarning ma’no xususiyatlari atroflicha tahliga tortilgan.

Resume. This article is devoted to the study of phrases used in Alisher Navoi’s poem «Saddi Iskandariy» In particular, the semantic features of somatic expressions expressed in the scholar›s epic «Saddi Iskandariy» were thoroughly analyzed.

Резюме. Данная статья посвящена исследованию выражений, использованных в поэме Алишера Навои «Стена Искандера». В частности, подробно анализируются семантические особенности соматических выражений, выраженных в поэме ученого «Стена Искандера».

[1] Alisher Navoiy Saddi Iskandariy.- Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi matbaa nashriyoti, 2020.-B.7.
[2] Alisher Navoiy Saddi Iskandariy.- Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi matbaa nashriyoti, 2020.-B.11.
[3] Alisher Navoiy Saddi Iskandariy.- Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi matbaa nashriyoti, 2020.-B.315.
[4] Alisher Navoiy Layli va Majnun.- Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi matbaa nashriyoti, 2020.-B.73.
[5] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати.- Тошкент: Қўмуслар бош таҳририяти, 1992.-Б. 321.
[6] Alisher Navoiy Layli va Majnun.- Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi matbaa nashriyoti, 2020.-B.100.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та'lim. 2025; 6-7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

TOYLOQ SHEVASIGA XOS MA'NODOSHLIK QATORLARI XUSUSIDA

Ahadova Gulchehra,
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Ma'lumki, ma'nodosh so'zlar bir umumiy ma'no ifodalovchi ikki yoki undan ortiq so'zlar yig'indisidir. Ma'nodosh, ya'ni sinonim so'zlar bir ma'noni xilma-xil so'zlar orqali turli nozik ma'no qirralari bilan ifodalashda, so'zning sehrini namoyon etishda, nutqni chiroyli va ta'sirchan qilishda, nutqni bezashda qo'llaniladi. Tilshunos olim O.Azizov ta'biri bilan aytganda: «Tilda sinonimlarning ko'p uchrashi so'z boyligini ko'rsatadigan muhim dalildir»[1]. Toyloq shevasida ham talaygina sinonim so'zlar mavjud bo'lib, ular milliy tilimizning boyligidir.

Toyloq tumani uning markazi va uning atroflarida o'zbeklar bilan bir qatorda ikki tillilik: o'zbek va tojik tilida so'zlashuvchilar ham istiqomat qilishadi. O'zbek va tojik tilining lug'at boyligi tahlili qiyosiy-topologik usulda A.K.Barovkov, V.S.Rastorguyeva, H.G'ulomov, M.Mirzayev kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan, ammo hali ikki til vakillari shevalaridagi o'zlashmalar to'liq o'rganilmagan[2]. S.Ashirboyev o'rinli ta'kidlaganlaridek, so'zlar sheva vakillarining ayni bir predmetni ifodalashda turli tushunchalardan kelib chiqishlari asosida nomlangan bo'lishi ham mumkin[3]. Ushbu fikrlarga tayangan holda tojik – o'zbek tillariga xos so'zlarning o'zaro sinonim tarzda qo'llanishini Toyloq shevasi misolida ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

Tadqiqot obyekti bo'lgan Toyloq shevasisiga xos sinonimik qatorlarni so'z turkumlari doirasida ko'rib chiqishni maqsadga muvofiq deb bildik. Sinonimlar qatorini tuzishda har qanday uslubda qo'llanilishi mumkin bo'lgan «betaraf» («neytiral») so'z asos qilib olinadi. Sinonimya qatoridagi qolgan so'zlarning ma'nodoshligi ana shu neytiral so'zga solishtirib aniqlanadi[4].

Tadqiqot obyekti yuzasidan yig'ilgan materiallar tahlili davomida o't so'z turkumiga mansub ma'nodosh so'zlar boshqalariga nisbatan ancha mahsuldor ekanligi ma'lum bo'ldi.

Ona – öna, ænä(Yastepa, Elpak), inä(Olmazor, Charvoqtepa), öpä(Yastepa, Navzandak, Olmazor), āpä (Tuqal), bijï (Qo'rg'oncha, Qunduzak), öji(Jumabozor), ajä (Aspenka).

Materiallar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu sinonimik qatorda dominanta so'z «bijï» so'zi bo'lib, bu so'z Toyloq tumanini hududida ham keng qo'llaniladi (Qarluqlarda 80-90% biyi so'zi, 10-20% oyi, aya so'zlari, qipchoqlarda ham 80-90% biyi so'zi, 10-20% ena, ina so'zlari qo'llaniladi, ikki tomonda ham har-har zamonda ona so'zi o'rnida opa, āpa so'zlarini uchratishimiz mumkin). Misollar: Enajön, bügun tüjim bör, kïčga kilāman, meni kütmajïzar(Yastepa). Dadäbijï izla jaxshimi? Yaxshi jurishibdimi?(Baxshtepa).

Buvi – öna(Jumabozor), ænä(Yastepa), kātenä(Butavoy), öpöɣöna(Aspenka), āpenä, op öna, āppæ(Fayziobod), oppöɣenä, āpanä, qarinä, qārnä (Olmazor). Buvi ya'ni ota-onaning onasi. Kuzatishlar natijasida shu narsa aniq bo'ldiki, Toyloq shevasida bu so'zning qarluqlar tomonidan ishlatiladigan ma'nodoshlari qipchoqlar qo'llaydigan sinonimlardan ko'ra ko'proq lug'atni tashkil etar ekan. Masalan, katænä (bu so'z «katta ona» so'zining buzib aytilishidan kelib chiqqan), apænä, appæ, apanä, opöna (asli «oppoq ona»- sochlariga oq tushgani uchun shunday atalgan), qarinä, qarna («qarri , keksa ona») sinonimlari qipchoqlarda ishlatilsa, öna, oppoɣöna so'zlari qipchoqlarda qo'llanilar ekan. Apenä, ape, yaxshi ütiripsizmä – zærikmajɣinä? (Fayziobod).

Bobo – ota, katötä (katta ota), bövo(Yastepa) sinonimlari ota-onaning otasiga nisbatan qo'llaniladi. Bövojönim kælli, urra!(Yastepa).

Amakining xotini – kattabiji (Navzandak), kattajä (Yastepa), mömä (Jumabozor). Kattajä, bügun bizakkä böräjkansiz. (Yastepa).

Dadaning akasi – kattädadä (Yastepa), buvo, buvä, böbo(Jumabozor). Ikrom, buvoŋnän havor ölaykaning, dadäng ajtti (Yastepa).

[1] Azizov O. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – B. 34.
[2] Til va adabiyot ta'limi jurnali. 2015-yil.10-son. – B. 43.
[3] Ashirboyev S. O`zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B. 81.
[4] Azizov O. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – B. 45.

Yanga – janja(umumiy), čeča, janjamullo(Toyloq markazidagi qishloqlar). Bijïjön, janjamullom kelila(-Jumabozor).

Xotin – xötin, bachalar(Yastepa va hok.), uj (Navzandak va hok.) Bachalarim bilan bolladi bözorga öborüvdik(Yastepa).

Pochcha – počča(umumiy), pöččo(Yuqori Toyloq), pačča(Elpak), yazna(Qo‘rg‘oncha), jazna, öjtim yaxshimi? Bačalar bilan büp bir börolmappan(Qo‘rg‘oncha).

Kuyov – kijov(Yastepa), kijav(Navzandak), dömmot(Qunduzak).

Chaqaloq – bölača(Uraxojar), niniča(Qarmish), kïčkina, balača(Yastepa).

Bola – balä (Bachki), bačča(Yuqori Toyloq), bača(Fayziobod).

Qizcha – qïčča (Jumabozor), qičä (Yastepa).

Opa – öpä (Yuqori Toyloq), apa(Yastepa), öjti(Toyloq tumani markazi), apčä (Chorvoqtepa), öpčä, öpača(Yolong‘och). Hoj öpačä, baqqäraŋ, manovla sïzzanmi? (Yolong‘och).

Bu sinonimik qatorda dominanta «apa» so‘zi bo‘lib, qipchoqlarda öpa, Toyloq markazi va uning atrofidagi qishloqlarda öjti (o‘zbekcha so‘zlashganda ham), Toyloqning shimoliy-sharqiy tomonida (qipchoqlar yashaydigan hududlar) apča, öpčä, öpačä shaklida ishlatiladi.

Konfet–kanfit(umumiy), kanpït(Navzandak), tolli(Olmazor), hölvo(Yastepa), halvo, holvä (Birinchi may). Konfetning sinonimik qatorida bosh so‘z kanfitdir. Qipchoqlar kanfit so‘zi bilan birga kanpït (asosan qarilar) tolli, halvo so‘zlarini ham bab-barovar ishlatishsa, qarluqlar konfet deb shimiladigan shirinlikni, holvo deb esa yeyiladigan oq sedanali – hayit bayramlarida chiqadigan shirinlikni aytishadi. Qipchoqlarda holva so‘zi omonim so‘z bo‘lib, shimiladigan shirinlikni ham hayit shirinligini ham holva deyishadi.

Ostona–astana(Butavoy), ešïk olliï, pöyga, bosaγä, büsaγanä (Yastepa va bosh.) Kïzim, busaγanäda uttïrmagin, jomon büladi, hay(Yastepa).

Paypoq–naski(umumiy), ǯïlöb, ǯilobi(Qo‘rg‘oncha), ǯuröb, nakki(Yastepa), pïjatki(Jumabozor)

Toyloq shevasida paypoqning sinonimik qatorida bosh so‘z naski so‘zi bo‘lib, qalin qishki paypoqlar naski, ǯïlöb, ǯilöbi, ǯuröb deyilsa, yozlik yupqa paypoqlar naski deb atalishi bilan birga pijatki atamasi bilan ham qo‘llaniladi. Nakki atamasi esa yosh bolalar nutqida, tumanning janubiy- sharqiy hududida ishlatiladi.

Bolish– jassiq(Butavoy), jössiq, jöstiq(Jumabozor), dösdiq, dastiq, lüla, lo‘lä (Yastepa). Memonlarni örqasiga jassiq qüjgin-a. (Butavoy)

Bu sinonimik qatorda dominanta so‘z yostiq bo‘lib, qipchoqlar «y» tovushi o‘rnida «d» tovushini qo‘llab, dostiq, dossiq, dastiq shakllarda qo‘llaydi. Yostiq va lula so‘zlari bir sinonimik qatorda bo‘lgani bilan ular anglatadigan predmet shaklida farq bo‘lib, ya’ni yostiq to‘rtburchak shaklda, lula aylana shaklda bo‘ladi.

Hojatxona – höǯat(Yuqori Toyloq), tualæt(umumiy), tüvalïït, tvalt(Yastepa), uböndi(Butavoy), čap(Jumabozor) uböndi manjirγä, böravur(Butavoy).

Makkajo‘xori – ǯuxori(Yuqori Toyloq), makkaji(Navzandak), dümbïl(Olmazor). Bozordan dümbïl öllïm, böllarim yaxshi küradi(Olmazor).

Tadqiqot obyektida yoqimsiz-bïmazä, beqïliq, čaljuv(Yastepa), joqïmsiz(Olmazor), betamiz, naynuv, taytuv(Fayziobod) singari sifatlar ishtirokidagi ma’nodoshlik qatori mavjud. Bu sinonimik qatorga xos so‘zlar xulq-atvori atrofdagilarga salbiy tasavvur u‘yg‘otadigan kishilarga nisbatan qo‘llanadi. Bu sinonim so‘zlarning ma’no nozikliklari salbiy bo‘yoqdorlikning oshib borish darajasiga ko‘ra farqlanadi. Salbiylik darajasi oz so‘zlar–joqïmsiz, bïmazä, beqïliq; salbiyligi o‘rtacha so‘z–betamiz; o‘ta salbiy bo‘yoqqa ega so‘zlar–čaljuv, naynuv, taytuv. Bunnay čaljuv bumä, balam,odam dïgan bïmazä bumaydi (Yastepa).

Ozg‘in–oriq, orriq(Jumabozor), arriq, qïltïriq(Jumabozor, Yastepa), čopdäy, čopčäk(Qunduzak).

Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, bu sinonimik qatordagi neytral so‘z «arriq» so‘zi bo‘lib, bu sinonimlik belgining ortiq, kamligi jihatdan farqlanadi. Ya’ni, oriq, orriq, arriq so‘zlariga nisbatan qiltiriq, čopday, čopčak so‘zlarida belgining kuchliligini nutqda qo‘llanish jarayonida namoyon bo‘ladi.

O‘zbilarmon – ozvošimčä, tetaqošiq, tetončä (Jumabozor), enä xotin(Yastpa).

Adabiy til va boshqa shevalarda kayvoni so‘zi tajribali,maslahat beradigan kishi ma’nosini ifodalaydi. Tadqiqot obyektimizda esa har narsaga qo‘shiladigan odam – kayvoni (Qo‘rg‘oncha), suqmaqošiq, juvïqsiz qošiq(Navzandak) ma’nolarini ifodalaydi.

Achchiq – ačči, aččuv(Yastepa), ači(Olmazor). Aččuvimni čiqarma, men judä yamon aččuvlanamän. (Yastepa).

Shum – šumqari, šutqari, ǯupqari(Fayziobod).

Notoza – ivïrsiq, ipïrisqi(yastepa), qosqi, rasvo(umumiy).

Toyloq shevasini o‘rganish jarayonida shu hodisaga amin bo‘ldikki, olmoshlar talaffuz paytida bir qator shakllarga ega bo‘lar ekan. Bu esa ma’nodoshlik hodisasini yanada kengaytirar ekan. Masalan, biz, siz kishilik olmoshlari -lar ko‘plik qo‘shimchasini olganda, qo‘shimcha qisqarib, bizlar – biza, bizar shaklida, sizlar – siza, sizar shaklida keladi. Agar qarashlilik qo‘shimchasi –niki bilan kelsa, bu qo‘shimcha ham qisqarib, -k ko‘rinishida ishlatilar ekan. Masalan, bizlarniki- bizak, sizlrniki- sizak shaklida qo‘llanadi.

So‘roq olmoshlari ham Toyloq shevasida turli-xil sinonimlarda nomoyon bo‘ladi. Bu olmoshlar qarluqlar nutqida yumshoq talaffuz qilinsa, qipchoqlarda aksincha, qattiqroq talaffuz etiladi va nutqiy sinonimyani yuzga keltiradi:

Qayoqqa? – Qeqqä?(Jumabozor) Qaqä? Qajgä?(Yastepa) Qajǯergä?(Olmazor, Fayziobod).

Qanday? – Qannoq?(Jumabozor, Yuqori Toyloq) Qannaj?(Yastepa) Qančaγin?(Olmazor) Qanančaγin?(Fayziobod).

Qachon? – Qačan? Qačangä?(Yastepa va bosh.).

Kim? – Kum? Kem?(Yastepa). Kum killi, ayt kirsin (Yastepa).

U, bu, shu ko‘rsatish olmoshlari «yoq- tomon» so‘zi va kelishiklar bilan kelganda nutq jarayonida qisqarib sinonimik qatorni tashkil qiladi:

Shu yoqqa – šeqqä (Jumabozor), šaqä (Navzandak), šigä (Yastepa), šuǯeryä (Butavoy).

U yoqqa – eqqä (Jumabozor), aqä (Yastepa), iga(Navzndak), uǯeryä (Olmazor).

Bu yoqqa - beqqä (jumabozor), baqä (Yastepa), biga(Navzandak), buǯeryä (Olmazor).

Biza šeqqa – darsxonadamiz, sizlä qeqqä sizlä, yetib qillilarijizmi? (Jumabozor).

Shuningdek, bu tomon- bax(Yastepa, Navzandak), u tomon- ax(Yastepa, Navzandak) shaklida ham qo‘llanadi. Aqä-baqä jurmajlik, vaxtimiz ketadi, šundajgajam axdan kura bax jaxshi-ku(Yastepa).

Ko‘rsatish olmoshlariga -dek, -day qo‘shimchalarini qo‘shganda, qipchoqlardan ko‘ra jilovchilarda ma’nodoshlik kengayganini ko‘ramiz:

Shunday–šunnoq(Jumabozor), šunnaj, šinnaj, šunaqä, šunaqaj (Yastepa va hok.), šunčaγin, šunčan(Olmazor).

Bunday – bunnoq(JUmabozor), bunnaj, minnaj, bunaqä, bunaqaj (Yastepa va hok.), bunčaγin, bunčan, bunnajčikin, bunnajčaqin(Olmazor, Fayziobod).

Unday – unnoq(Jumabozor), undaqä (Yuqori Toyloq), unnaj, unaqä, unaqaj (Yastepa va hok.), unčaγin, unčan, unajčikin, unajčaqin(Olmazor, Payzavot, Chorvoqtepa).

Ana o‘sha – anavi(Jumabozor), anov, hanovi(Yastepa), anši(Charvoqtepa).

Mana shu – manavi(Jumabozor), manov, manovu(Yastepa), manši(Charvoqtepa).

Mana shu yer – manïr(Navzandak), monǯir(Elpak), manšir(Yastepa), manǯaq(Olmazor), manaq, manšaq(Adas), manšeq(Jumabozor).

Ana shu yer – anïr(Navzandak), anǯir(Elpak), anšir(Yastepa), anǯaq, anaq(Adas), anšeq(Jumabozor).

Nutq jarayonida eng faol ishlatiladigan so‘z turkumi bo‘lgan fe’l hudud shevalarida xilma-xil shakllarda qo‘llanishi bilan o‘ziga xos ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ket – yuqol, dapbo‘,čiz, quri(Yastepa va barcha jilovchilar), ǯo‘γol, ǯuqol(Fayziobod), qač-e, bor, bo(-Jumabozor).

Kel – ke(Jumabozor), kï, kïl(Yastepa).

Yugur– chop, ǯugur(Olmazor), zinγillä, γïzillä, uch(Yastepa).

Jim bo‘l – tek tur(Qunduzak), jim bu(Yastepa), dam bu, dam tur(Jumabozor).

Qo‘shma fe’llar tarkibi hisoblangan qil, bo‘l fe’llari shevada qï, bu shaklida talaffuz qilinadi (išladi qï – ishlarni qil, dars qï - darsni qil, tezroq bu- tezroq bo‘l). Tingla – ešït, išït, quloq so vahokazo.

Gapirma – ajtmä, demä (Yuqori Toyloq), baγillamä, bobillamä, vajsamä, pičillamä, višillamä, chuvurlamä, oč (Yastepa), baqirmä, čaqirmä (Jumabozor).

Tortishma – menjašmä (Yastepa), talašmä (umumiy) va hokazo.

Ish-harakat belgisi miqdorini ifodalovchi ravishlar ham mazkur sheva vakillari nutqida turli xil fonetik shaklda qo‘llanadi. Juda kam – qïtaj, gïttakkinä, gittäk(Yastepa), azgïnča, azgïnä (Jumabozor) va hokazo.

Juda ko‘p – ko‘ppalä, bir dunyo(Yastepa), bir qančä, bir talaj (Jumabozor), bir gala(Baxshtepa). Bir mahäl bir gäla odamla kesa bulämi?(Qunduzak).

Erta – että (Jumabozor), itta (Yastepa).

So‘ng – kegïn(Jumabozor), kejin, suγin(Yastepa).

Tilshunoslikda gaplarning tasdiq va inkor turlari ham farqlanib, biri harakar va holatni tasdiqlaydi, ikkinchisi inkor qiladi[1]. Bu jarayon hamToyloq shevasida o‘zaro sinonimik qatorlarni hosil qiladi.

Ha – haj, hä (Yastepa), hij, him(Olmazor), häjja, hovva(Yalong‘och), äha(Qo‘rg‘oncha).

Yo‘q – joq(Yastepa), ǯoq(Charvoqtepa), juq, ǯuq(Olmazor), jo, ju, imim(Jumabozor) jo, ju, boräjman dedim-u bormäjman, imim(Jumabozor), ne, ne-ne(Qo‘rg‘oncha) vahokazo.

Xulosa qilib aytganda, Toyloq shevasi ham o‘zbek adabiy tilining bir tarmog‘i, uni doimiy ravishda boyitib boruvchi manbasi hisoblanadi. Ma’nodosh so‘zlar esa o‘zbekcha nutq jozibadorligini, ta’sirchanligini ta’minlovchi muhim vositalardan biri hisoblanadi. Ular milliy til lug‘at boyligining bir bo‘lagi bo‘lib, uning boyligini tashkil qiladi. Shunday ekan, shevalarning o‘ziga xos xususiyatlarni keng qamrovli tadqiqotlar olib boorish bugungi tilshunosligimiz oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

[1] Abdurahmonov G‘.,Sulaymonov A., Xoliyorov X., Omonturdiyev J. Hozirgi o‘zbek adabiy tili(Sintaksis). – Toshkent: O‘qituvchi, 1979. – B. 79.

Rezyume. Ushbu maqolada Toyloq shevasidagi sinonimiya hodisasi va bu sinonimlardagi ma’no nozikliklar nutq jarayoniga xos dalillar bilan tahlil qilindi. Toyloq qishloqlari shevasidagi ma’nodosh so‘zlar umumiy o‘rganilib, alohida-alohida tasnifi berilishiga ham harakat qilingan.

Resume. In this article, the phenomenon of synonyms in the Toyloq dialect and the subtle differences in meaning among these synonyms are presented with examples from speech. Synonymous words in the dialects of the Toyloq villages are studied in general and classified separately.

Резюме. В данной стате расмотрено явление синонимов в Тайлокиском диалекти и тонкие смысловые различия между этими синонимами, проиллюстрированные примерами из речию синонимичные слова в говарах деревень Тойлок изучены в общем иклассифицированы по отдельности.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 6-7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

"DEVONU LUG'OTIT-TURK" ASARINING O'RGANILISH TARIXI

Muhsinjonova Shirinoy Asliddin qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 2-kurs tayanch doktoranti

Ma'lumki, tilshunoslik sohasida turkiy tillar tadqiqini amalga oshirish muhim jarayon hisoblanadi. Hozirgi kunga qadar yetib kelgan yozma adabiy manbalar lug'at tarkibini ilmiy jihatdan asoslash, ularning mohiyatini yoritishga harakat qilish hamda kelajak avlodga yetkazish yo'lida sa'y-harakat olib borish muhim ahamiyatga ega. Tildagi so'z boyligining qanday tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tganligi, ularning til tarixida hamda hozirgi o'zbek tilida tutgan o'rnining boshqa tillar bilan qiyosan amalga oshirilishi tilshunoslik fani oldida turgan dolzarb vazifa sanaladi. Bu vazifani ado etishda xilma-xil lug'atlarning, xususan, "Devonu lug'otit-turk"ning o'rni beqiyos. Asarning so'z boyligini tahlil qilish turkologiya olamida yangi yo'nalishlarning ochib berilishida asos vazifasini o'taydi.

Asar muallifi hisoblanmish Mahmud Koshg'ariy to'g'risida manbalarda ko'plab ma'lumotlar keltirilgan. Adibning ijtimoiy kelib chiqishi Qoraxoniylar sulolasiga mansub bo'lgan[1]. Otasi esa Barsg'an shahrida amirlik qilgan[2]. Mahmud Koshg'ariyning hayot yo'li hamda ijodiy faoliyati xususida I. Mu'tiy va M. Usmonovlar quyidagi mulohazalarni bildirgan edilar: "Olim Koshg'ar shahrining O'pol qishlog'i, Oziq mahallasida dunyoga kelgan. Olim ota tarafidan Qoraxoniylar jamoasidan, Yusuf Qodirning o'g'li, Muhammadning nabirasi, ona tarafdan Oziq mahallasining o'z davridagi o'qimishli kishisi Xo'ja Sayfiddinning qizi Burobiyaning o'g'li. Olim boshlang'ich ma'lumotni O'polda o'z oilasida, yuqori ma'lumotni esa Koshg'arda Husayn ibn Xalof Koshg'ariy kabi olimlardan olgan"[3]. Demak, adibning bu darajaga yetishuvida qator maktablar poydevor vazifasini o'tagan.

Mahmud Koshg'ariy 7-8 tilni, jumladan, arab, fors, turkiy tillarni mukammal bilgan. Bundan tashqari, ijodkorning Buxoro, Samarqand, Marv, Nishopur kabi joylarda bilim olganligi xususidagi ma'lumotlar ham mavjud. Adibning bizgacha yetib kelgan yagona asari bu "Devonu lug'otit-turk"dir. Uning yaratilish tarixi mavjud bo'lib, uni quyidagicha izohlash maqsadga muvofiqdir: mamlakatda sodir bo'lgan ichki nizolar tufayli Mahmud Koshg'ariy ma'lum muddat davomida – 1056-1057-yillarda – ona yurtini tark etishga majbur bo'ladi. Natijada, yon-atrofdagi qardosh xalqlar orasida biroz vaqt umr kechiradi. Ana shu davr mobaynida ijodkor turkiy xalqlar istiqomat qiladigan hududlarni kezib, ularning hayot tarzi, nomlanish xususiyatlari, joylashish o'rni, ayniqsa, ularning til xususiyatlarni puxta o'rganadi. So'ng Bag'dodga qaytib, u yerda ancha vaqt mobaynida ijod qilgan. "Devonu lug'otit-turk" asarining ham yozilish o'rni sifatida aynan shu shahar e'tirof etiladi. Muallif ushbu asarni Abulqosim Abdulloh binni Muhammadil Muqtado biamrillohga taqdim etadi.

"Devonu lug'otit-turk" asari tilshunoslikning ko'plab sohalarini o'z ichiga qamrab olgan asar sanaladi, chunonchi, dialektologiya, etimologiya, leksikologiya, leksikografiya. Mahmud Koshg'ariy asarida mavjud so'zlarni arab tilida izohlab beradi va quyidagicha fikr bildiradi: "Men bu kitobni maxsus so'zlar, sajlar, maqollar, qo'shiqlar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim. Men iste'moldagi so'zlarnigina berdim. So'ngra men har bir qabilaga mansub so'zlarning yasalish xususiyatlarini va qanday qo'llanishini qisqacha izohlab ko'rsatish uchun alohida yo'l tutdim. Bu ishda misol tariqasida turklarning tilida qo'llanib kelingan she'rlaridan, shodlik va motam kunlarida qo'llanadigan hikmatli so'zlaridan, maqollar keltirdim".

S. Mutallibov "Devon" quyidagicha ta'rif keltirib o'tadi: "Ma'lumki, Mahmud Koshg'ariyning kamtarlik bilan lug'at deb atagan bua sari yolg'iz bu kungi ma'nodagi lug'atgina emas, balki shu bilan birga, o'sha davr tilining fonetika, morfologiya, leksika va dialektologiyasini mukammal izohlab bergan to'la

[1] Абдулаҳатов Н.У. Место паломничества в жизни населения Ферганской долины (по материалам святых мест Ферганской вилоята). Автореферат. 2008. – С. 4

[2] Мадвалиев А. Маҳмуд Кошғарий // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 5-жилд. – Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2003. 77-б.

[3] Мутъий И., Усмонов М. Маҳмуд Қошғарийнинг юрти, ҳаёти ва мозори тўғрисида // Адабиёт кўзгуси. – Т.: "Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти", 1996. № 2, 118-б.

ma’nodagi filologik asar, bebaho bir qomusdir. Mahmud Koshg‘ariy o‘z asarini ko‘p yillar yurtma-yurt yurib, xalq og‘zidan to‘plagan materiallar asosida tuzdi. Bu usul bir tarafdan unga o‘sha davr tilidagi butun so‘zlarni va har qanday so‘z turlarini mukammal qamrab olishga imkon bergan bo‘lsa, ikkinchidan, bu materiallar o‘z navbatida unga o‘sha davr tilining har bir sohasiga doir boy namunalar to‘plami bo‘lib ham xizmat qildi. Mahmud Koshg‘ariy so‘z ma’nosini izohlar ekan, yo‘l-yo‘lakay so‘zlarning har qanday grammatik xususiyatlari va u so‘zlarning qaysi qabilaga mansubligi haqida ham ma’lumot bera boradi, umumlashtirilgan qoidalar tuzadi”. Darhaqiqat, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asari biz uchun ikki nuqtayi nazardan muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, bu asarda grammatikaga oid ma’lumotlar jamlangan bo‘lsa, ikkinchidan, unda turkiy xalqlar nutqida qo‘llangan leksik birliklar haqida ma’lumotlar uchraydi.

“Devonu lug‘otit-turk” asari bugungi kunda ham o‘zining muhim ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Asardan o‘rin olgan leksik birliklar nafaqat XI asrga oid, balki o‘tmish davrlariga borib taqaladi, ya’ni undagi ifodalar XI asrgacha bo‘lgan mavjud qatlamni ham o‘zida aks ettiradi. Tarixdan ma’lumki, XI asrga kelib, qator faoliyat turlari, xususan, savdo-sotiq ishlari hamda hunarmandchilik avvalgi davrga nisbatan anchayin faollashdi. Shu bilan birgalikda, yuqorida nomlari qayd etilgan faoliyat turlari o‘laroq xalqlar orasida ham diplomatik aloqalar anchayin kuchayib bordi, buning natijasida ular o‘rtasida savdo aloqalari, diplomatik kelishuvlar, yoinki, so‘zlarning birinchi xalqdan ikkinchi xalqqa kirib borishi ham yuzaga kelganligini “Devonu lug‘otit-turk” asari orqali anglashimiz mumkin bo‘ladi[1].

Asar qo‘lyozmasining topilishi borasida xilma-xil fikrlar ilgari suriladi. Xususan, “O‘zbek adabiy tili tarixi” darsligida “Devon”ning 1914-yil Turkiyaning Diyorbakir shahrida topilgani borasida fikrlar mavjud. 1915-yilda Istanbul hududida topilgani borasidagi izohlar X. Mahmutov mulohazalarida ilgari suriladi. “Devonu lug‘otit-turk” yuzasidan tadqiqot ishlarini olib borish Sharq va G‘arb olamida ham mashhur bo‘lib, aynan O‘zbekistonda ushbu ishlarning boshlanishi 1930-yillarga borib taqaladi. Xususan, Solih Mutallibov ushbu asar yuzasidan qator tadqiq ishlarini olib borgan . Bundan tashqari, U. Tursunov, F. Abdullayev, E. Fozilov, G‘. Abdurahmonov, S. Ibrohimov kabi olimlar S. Mutallibov kabi koshg‘ariyshunoslikni davom ettirganlar. H. Dadaboyevning “Devonu lug‘otit-turk”ning til xususiyatlari”, N. Abdulahatov va boshqalarning “Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asaridagi leksik birliklar tadqiqi” va shu kabi qator ilmiy asarlar ham shular jumlasidandir.

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asarini ilmiy nuqtayi nazardan tadqiq qilish orqali tilga tarixiy yondashuv asosida so‘zlarning mazmuniy, madaniy hamda vazifaviy jihatlarini ochib berish mumkin. Asar turkiy so‘zlarning yirik bazasi hisoblanib, har bir leksik ifoda eski turkiy tilda mavjud atamalarning o‘sha davr nuqtayi nazaridan yoritilishida yordam beradi. Ushbu asarni o‘rgangan olimlardan biri S. Rustamova aytganidek: “Devonu lug‘otit-turk”-da turklarning hayot kechirishi uchun zarur ashyolarning nomlari, uru, qabilalarning nomlari, faxriy unvonlar, turli lavozimlarning nomlari, oziq-ovqat, yovvoyi va uy hayvonlari, parrandalar va yovvoyi qushlarning nomlari, jug‘rofiy atamalar, shaharlar, turli kasalliklar nomlari, anatomik atamalar, metallar va minerallarning nomlari, harbiy atamalar va ma’muriy vazifalarga oid atamalar bor. Turli tarixiy va afsonaviy qahramonlarning nomlari, bolalarning o‘yin va ermaklari va boshqalarga xos atamalarga boyligi bilan hozir zamon kishisiga XI asrda yashagan turklarning hayot tarzi haqida ma’lumot beruvchi yagona manba hisoblanadi”.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asarini o‘rganish tilshunoslik fani oldida turgan muhim vazifa sanaladi. Zero, “Devon”da aks etgan ilmiy-nazariy manbalar uning kelgusi tadqiqotlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Annotatsiya: Ushbu tezisda “Devonu lug‘otit-turk” asari xususida so‘z yuritilib, asar borasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning o‘ziga xos xususiyatlari borasidagi fikrlar tahlilga tortiladi. Ta’kidlash kerakki, Mahmud Koshg‘ariyning “Devon”i bugungi tilshunoslik uchun poydevor vazifasini bajaribgina qolmasdan, balki ko‘plab sohalar uchun asosiy qomus bo‘lib xizmat qiladi.

Abstract: This thesis discusses the work “Devonu lug‘otit-turk” and analyzes the specific features of scientific research conducted on the work. It should be noted that Mahmud Kashgari’s “Devon” not only serves as a foundation for modern linguistics, but also serves as a basic dictionary for many fields.

Аннотация: В данной диссертации рассматривается труд «Девон луготит-тюрк» и анализируются особенности научного исследования, проведённого над этим произведением. Следует отметить, что «Девон» Махмуда Кашгари служит не только фундаментом для современной лингвистики, но и базовым словарём для многих областей.

[1] Дадабоев Ҳ. “Девону луғотит-турк”нинг тил хусусиятлари. – Т.: ТДШИ,2017. – Б. 133.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 6-7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

MAQOLLARNI ADABIYOTSHUNOSLIK ASPEKTIDA TADQIQ ETISHDA NAZARIY YONDASHUVLAR

Kodirova Saodat Abdiraximovna,
Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi
Navoiy davlat universiteti

Maqollar xalq ijodining badiiy-falsafiy tafakkurini mujassam etuvchi birliklardan biri sifatida nafaqat folklor, balki adabiyotshunoslik, tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham tahlil etiladigan muhim paremiologik birliklardir. Ularda milliy dunyoqarash, poetik obrazlar, axloqiy konsepsiyalar, vaqt va makon tuyg'ulari, falsafiy qarashlar, estetik ideallar mujassamlashgan. Shu sababli maqollarni adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganishda bir necha nazariy yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Badiiy-estetik yondashuv. Bu yondashuvda maqollar badiiy matn sifatida, ya'ni obrazlilik, ifodaviylik, allegoriya va metaforalar tizimi orqali tahlil etiladi. Maqollarning ko'pchiligi qisqaligiga qaramay, katta ma'no yuki, kutilmagan obrazli parallellik va estetik ta'sir qobiliyatiga ega[1]. Misol: «Til – kalit, og'iz – qufl» – bu yerda obrazli qarama-qarshilik orqali so'zning mas'uliyati falsafiy tarzda ifoda etilgan. Bunday yondashuvda maqollar badiiy ijodga ta'sir etuvchi manba sifatida o'rganiladi; estetik funksiya va obrazlilik tahlil qilinadi; qisqa shaklda teran ma'no mujassamligini ko'rsatadi. Baddiylik mezonlari asosidagi tahlil haqida U.To'ychiyev[2], B.Sarimsoqov[3] hamda A.Rasulov[4]ning tadqiqotlaridan atroflicha ma'lumot berilgan.

Janriy va uslubiy yondashuv. Adabiyotshunoslikda maqollar aforizm, hikmat, epigramma, nutq birliklari kabi shakllar bilan qiyosiy tahlil etiladi. Bu yondashuv maqollarning janrlararo aloqalari, uslubiy xususiyatlari va badiiy uslub nuqtayi nazaridan tahlil qilinishini ta'minlaydi. Misol: «Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqadi» – bu maqolda aforistik uslub, kesatma intonatsiya, va mukammal tuzilish ko'rinadi.

Intertekstual yondashuv. Maqollar adabiy matnlarda sitata, allyuziya, intertekst, simvol sifatida faol ishlatiladi. Intertekstual yondashuv bunday birliklarning adabiy asardagi funksiyasi, poetik vazifasi va ma'no yaratishdagi roliga e'tibor qaratadi[5]. Masalan, Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» romanida insonning doimo harakatda bo 'lishi lozimligi uqtirilgan maqol ishtirok etgan: «Yurgan daryo, o'lturgan bo'ryo emish» dedi Akram hoji (21-b). Bu maqol intertekst sifatida qahramon fikrini ifoda etishda xizmat qiladi. Bunday yondashuning ahamiyati shundaki, maqollar matn ichida semiotik ishora sifatida ishlatilishi; qahramonning nutqiy portreti yaratilishi; maqolning adabiy asarda g'oyaviy-estetik funksiyani bajarishi tahlil qilinadi.

Ma'naviy-falsafiy yondashuv. Adabiy asarlarda ishlatiladigan maqollar orqali xalqning falsafiy dunyoqarashi, ma'naviy qadriyatlari, axloqiy mezonlari ochib beriladi. Bu yondashuv maqollarni adabiy obrazlar, muallif nutqi va mualliflik konsepsiyasi orqali tahlil qiladi[6].

Mavzuviy-kompozitsion yondashuv. Bu yondashuv maqollarning adabiy matndagi syujet qurilishi, qahramon xarakteri, janr stilistikasi bilan bog'liq holda tahlil etilishini nazarda tutadi. Xususan, epik, dramatik va lirik asarlarda maqollar qahramon fe'l-atvorini ochib berishga xizmat qiladi.

Demak, maqollarni adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganish ularning badiiy, intertekstual, estetik, ma'naviy va uslubiy funksiyalarini ochib berishga yordam beradi. Ushbu yondashuvlar orqali paremiyalar adabiy matndagi semantik markaz, avtorlik pozisiyasi, milliy tafakkurning poetik shakllanishi kabi jarayonlarni tadqiq etish mumkin. Bu esa maqollarni faqat folklor yoki til birligi sifatida emas, balki badiiy tafakkurning tipik ifodasi sifatida qabul qilishga imkon yaratadi.

[1] Данилевская Н.В. Методы лингвостилистического анализа / Н.В.Данилевская // Стилистический энциклопедический словарь русского языка; под ред. М. Н. Кожиной. – 2-е изд., испр. и доп. – М.: Флинта: Наука, 2006. – (С. 221- 230) – С. 28.

[2] Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадиийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. – Тошкент, 2011.

[3] Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент, 2004.

[4] Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 2007.

[5] Do'smuradova Y. Badiiy matnda intertekstuallik va uning turlari // YOPA. 2024. №11. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy-matnda-intertekstuallik-va-uning-turlari (дата обращения: 15.07.2025).7.2025).

[6] Ochilova B.M. Axloq falsafasi: / O'quv qo'llanma. B.M.Ochilova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. Jizzax davlat pedagogika instituti. – Toshkent: Ijod-print, 2019. – 160 b.

Maqollarni tadqiq qilishda folkloristik nazariy yondashuvlar. Maqollar xalq og‘zaki ijodining keng tarqalgan va qadimiy janrlaridan biri bo‘lib, ularda xalqning hayot tajribasi, dunyoqarashi, ijtimoiy munosabatlari va axloqiy-estetik qarashlari aks etadi. Folklorshunoslik maqollarni mustaqil folklor janri sifatida o‘rganadi: uning paydo bo‘lishi, shakllanishi, funksiyasi, janrlararo bog‘liqligi, ijodiy jarayoni va madaniy vazifalarini tadqiq etadi. Shu bois maqollarni tahlil etishda folklorga xos nazariy yondashuvlar asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tarixiy-genetik yondashuv. Bu yondashuv maqollarning paydo bo‘lishi, tarixi, avlodlar orasidagi uzluksizlik va folklor an’analarning saqlanishini o‘rganadi. Maqollar, odatda, tarixiy voqealar, turmush tajribasi va jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq holda shakllangan bo‘ladi. Misol: «Mehnat bilan yer ko‘karar, Duo bilan – el» maqolida mehnatga ishonch, duo bilan bog‘liq qadimiy e’tiqodlar aks etgan. Bunday tadqiq yondashuvining ahamiyati shundaki, arxetip obrazlar paydo bo‘lish manbalari ochiladi; maqollarning og‘zaki taraqqiyot zanjiri tiklanadi; ularning ilk tarkibiy modellari tavsiflanadi. Bu yondashuv B.Jo‘rayevaning monografik ishi[1]da atroflicha tahlil qilinadi.

Janriy-struktur yondashuv. Folklorshunoslikda maqollar mustaqil janr sifatida tahlil etiladi va ularning janr xususiyatlari: qisqaligi, ma’noning zichligi, poetik strukturasi, og‘zaki an’analarga bog‘liqligi o‘rganiladi. Xususiyatlari: yaqqol ritm va qofiya; antiteza va parallellikka asoslangan tuzilish; bir necha variantda mavjudligi ochib beriladi. Misol: «Boshing osmonga yetsa ham Yerga qarab yur» – kamtarlik, ehtiyotkorlikni targ‘ib qiluvchi janr namunasi.

Funksional yondashuv. Maqollar faqat badiiy ifoda vositasi emas, balki ijtimoiy tartib, axloqiy nazorat va muloqotda ta’sir o‘tkazuvchi funksional vosita sifatida qaraladi. Funksional yondashuv maqollarning turli vaziyatlarda qanday vazifa bajarishini tahlil etadi. Bunda maqollarning quyidagi vazifalari: axloqiy tarbiya; tanqid va nasihat; yashirin siyosiy yoki ijtimoiy fikr bildirish; ta’lim va madaniy kodni uzatish tahlil qilinadi. Misol: «Gapni katta gapirma, Nonni katta tishlama» – kamtarlikka da’vat etadi. M.Volfgan funksional yondashuvni shunday ta’riflaydi: «Og‘zaki xalq ijodining turli janrlari (ertak, afsona, mif, latifa va topishmoq) orasida maqollar eng qisqa, ammo har doim ham eng sodda shakl emas. Maqollar insonning tajriba va kuzatuvlarini donolik durdonalariga aylantirib, shaxsiy munosabatlar va ijtimoiy hayotga oid tayyor fikrlar shaklida ifoda etish ehtiyojini qondiradi. Har qanday vaziyatga mos maqollar mavjud bo‘lib, ular hayotning o‘zi kabi qarama-qarshiliklarga to‘la. Ma’lum bir vaziyatga to‘g‘ri tanlangan maqol aynan o‘sha holatga juda mos tushadi va samarali formula sifatida xizmat qiladi. Jamiyatda maqollar og‘zaki nutqda ham, yozma matnlarda ham insonlarga xizmat qiladi, tayyor og‘zaki birliklar sifatida deyarli avtomatik tarzda yodga tushadi»[2].

An’anaviylik va ijodkorlik munosabati. Folklorda an’ana va yangilik o‘zaro bog‘liq holda yuz beradi. Maqollar doimiy strukturasi va ramzlari bilan an’anaviy bo‘lsa-da, ular har bir avlod, har bir ijodkor tomonidan qayta ishlanadi, mazmun jihatdan boyitiladi, variantlar yaratiladi. Misol: «Baliq boshidan sasiydi» maqolining zamonaviy variantlari matbuotda, siyosiy tanqidda faol qo‘llanadi. Maqollarning zamon bilan birga yangilanishi ko‘rinadi; maqol ijodida folklor subyektlari roli ochiladi.

Tipologik yondashuv. Bu yondashuv turli xalq maqollaridagi umumiylik va farqlarni o‘rganishga qaratilgan. Xususan, tipik obrazlar, universal mavzular, madaniy kodlarning o‘xshashligi va individualliklari chuqur tahlil etiladi. Masalan, P.Bakirovning «Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, ўзбекского и казахского языков)» nomli doktorlik dissertasiyasida qiyosiy paremiologiyaning asosiy tamoyillari, usullari ishlab chiqilgan, maxsus tipdagi paremiologik birlik sifatida maqol maqomini o‘rnatgan, boshqa paremiyalar orasida maqolning o‘rni aniqlangan, maqollarni qièsiy o‘rganish uchun nazariy zaruriyatlar, shuningdek, turli tizimdagi tillarning paremiologik birliklarini kompleks tahlil qilish taklif qilingan, rus, o‘zbek va qozoq tillaridagi nominal markazli maqollarning semantikasi tavsiflanadi, uchta tilning nominal-markazli maqollarini tematik guruhlar bo‘yicha tasniflash amalga oshirilgan, ko‘p tizimli tillarda nominal markazli maqollar semantikasining qiyosiy xarakteristikasi berilgan[3]. M.Temirovaning «O‘zbek va qirg‘iz xalq maqollari tipologiyasi» nomli dissertasiyasida o‘zbek va qirg‘iz xalq maqollarining yaratilish tarixi va vujudga kelish omillari, xalq falsafiy va badiiy-estetik qarashlarining shakllanishida ijtimoiy-tarixiy va geografik muhit o‘rni, shuningdek, o‘zbek va qirg‘iz xalq maqollarining struktural, poetik tipologiyasi masalalari yoritilgan, folklordagi eng kichik janr tadqiqi orqali o‘zbek

[1] Jo‘rayeva B.M. O‘zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari: Fil.fan.doktori (DSc) diss. – Samarqand, 2019. – 237 b.

[2] Wolfgang M. Proverbs: A Handbook. Folk and Fairy Tales: A Handbook. D.L.Ashliman. Westport, Connecticut, London, 2004.

[3] Мадалов Н.Э. Ўзбек тилшунослигида мақолларнинг лингвистик тадқиқи // Academic research in educational sciences. 2022. №11. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/zbek-tilshunosligida-ma-ollarning-lingvistik-tad-i-i (дата обращения: 15.07.2025).

va qirg‘iz maqollarining genetik mushtarakligi, o‘ziga xoslik va farqli xususiyatlari asoslab berilgan[1]. G.Ergashevaning «Ingliz va o‘zbek tillari frazeologizm va paremiyalarida gender aspektining qiyosiy-tipologik tadqiqi» nomli dissertasiya ishida ingliz va o‘zbek tillarida gender ko‘rsatkichli frazeologik birliklar hamda paremiyalarni qièsiy-tipologik, kognitiv va lingvomadaniy jihatdan tahlil qilingan[2]. Z.R.Narmuratovning «Ingliz va o‘zbek tillarida «ta’lim», «ilm» konseptlariga oid paremalarning lingvomadaniy tadqiqi» nomli dissertasiyasida ingliz va o‘zbek tillaridagi ta’lim, ilm konseptli paremiologik birliklarni chog‘ishtirib o‘rganish orqali ularning lisoniy-madaniy jihatdan o‘xshash va umumiy tomonlari tadqiq etilgan[3]. Z.Yunusova fransuz, ingliz, rus tillasi misolida maqollardagi lisoniy ziddiyatni tahlil qilsa[4], O.Igbolov ingliz va tojik tillari maqollari leksik-semantik xususiyatlarini tadqiq etgan[5]. Da Zhenxin o‘zbekcha va xitoycha maqollarning lingvistik tadqiq ustida ish olib borgan[6].

Demak, folkloristik yondashuv maqollarni faqat til birligi sifatida emas, balki madaniy-ijtimoiy institut, etnografik hujjat, axloqiy kodeks, estetik fenomen sifatida o‘rganish imkonini beradi. Mazkur yondashuv maqollarni tarix, ijtimoiy kontekst va janr xususiyatlari doirasida tahlil qilishga imkon beradi. Bugungi kunda folklorshunoslikda integratsiyalashgan yondashuvlar, ya’ni folklor + lingvistika + madaniyatshunoslik uyg‘unlashgan holda tadbiq etilmoqda.

Rezyume. Proverbs, as one of the ancient and meaningful genres of folk oral literature, have been widely studied in various disciplines - linguistics, folklore, cultural studies, philosophy and psychology. A number of theoretical approaches have been developed to reveal the content, form, role in speech, national and universal characteristics of these units. Each approach approaches the layers of meaning of proverbs from different points of view, illuminating their multifaceted essence.

Резюме. Пословицы, как один из древнейших и содержательных жанров устного народного творчества, широко изучаются в различных дисциплинах – лингвистике, фольклористике, культурологии, философии и психологии. Разработан ряд теоретических подходов, раскрывающих содержание, форму, роль в речи, национальные и общечеловеческие особенности этих единиц. Каждый подход рассматривает смысловые пласты пословиц с разных точек зрения, раскрывая их многогранную сущность.

[1] Бакиров П. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков): Дис… докт. филол. наук. – Ташкент, 2007. – 287 с.

[2] Темирова М. Ўзбек ва қиргиз халқ маколлари типологияси. Филол. фанлари фалсафа д-ри... дис. – Тошкент, 2018. – 166 б.

[3] Эргашева Г. Инглиз ва ўзбек тиллари фразеологизм ва паремияларида гендер аспектининг қиёсий-типологик тадқиқи. Филол. фанлари номзоди дисс. – Тошкент, 2011. – 164 б.

[4] Юсупова З.А. Языковые аспекты реализации противопоставления в паремии (на материале французских, английских и русских пословиц): Дис… канд. филол. наук. – Уфа: БГУ, 2005. – 146 с.

[5] Игболов О.Ш. Лексико-семантический анализ особенностей пословиц и поговорок в таджикском и английском языках (на материале “Маснавии маънави” Джалолуддина Руми): Дис... канд. филол. наук. – Душанбе, 2017. – 166 с.

[6] Da Zhenxin. O‘zbekcha va xitoycha maqollarning lingvistik tadqiqi: filol. fan. fals. dokt. (PhD) disser. avtoref. – Toshkent, 2023. – 50 b.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 6-7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ТАДЖИКСКИЕ ЛИТЕРАТУРОВЕДЫ 50-60-Х ГОДОВ XX ВЕКА О НАУЧНО-ЛИТЕРАТУРНЫХ РАБОТАХ САДРИДДИНА АЙНИ В КОНТЕКСТЕ УЗБЕКСКО-ТАДЖИКСКИХ ЛИТЕРАТУРНЫХ СВЯЗЕЙ

Абдуллаев Махмуд Ахматович,
преподаватель кафедры русской и мировой литературы
Термезского государственного университета

Первые попытки дать оценку научно-литературным работам С. Айни появились после опубликования антологии «Образец таджикской литературы» - с 1926 года. Эти оценки были двоякого рода: положительные и негативные. Положительные отзывы принадлежат перу А. Лахути и С. Нафиси.

В частности, А. Лахути пишет: «Образцы таджикской литературы» является лучшим обзором процесса развития таджикской литературы. Это произведение является комплексным и обстоятельным источником таджикской литературы для аналитической критики будущих таджикских писателей»[1].

Негативные отзывы на антологию написали Б. Азизи[2] и Дж. Икрами[3]. На все их неправильные суждения и выводы об антологии пространно ответил сам С. Айни написав статью «Ответ или интервью-фельетон» по вопросу о правильном написании псевдонима Фони. Как известно, Алишер Навои творил свои персидско-таджикские поэтические произведения под псевдонимом Фони. Слово «Фони» по техническим причинам в тексте «Образцов таджикской литературы» был напечатан, как «Фанои». Этот технический момент Б. Азизи счел «грубой ошибкой»[4] и намекал на то, что С. Айни «не сведущ о правильном написании великого поэта» [5].

В своем ответе С. Айни логично и последовательно отверг все необоснованные умозаключения Б. Азизи, доказав их несостоятельность [6].–

После первоначальных усилий исследования художественного и научно-литературного творчества С. Айни в 20-х годах прошлого века, в последующие десятилетия XX столетия – в частности 50-60-х годов – исследования жизни и творчества С. Айни в Узбекистане и Таджикистане стало настолько обширным и разноаспектным, что выделилось в отдельное направление под названием «айниведение»[7]. В рамках айниведения изучались и изучаются все направления многогранного творчества С. Айни, в том числе его литературоведческие произведения.

В Таджикистане в 50-60-е годы XX века в становлении и развитии айниведения значительную роль сыграли такие исследователи, как Х. Мирзозода, М. Шакури, С. Табаров, Р. Хошим, А. Маниязов, Х. Отахонова, А. Сайфуллаев, Р. Хадизаде, К. Айни, Э. Муллокандов и ряд других.

Следует отметить, что С. Айни в своих литературоведческих работах (как научно-литературных, так и литературно-критических) подвергал исследованию различные научные аспекты истории и теории таджикской и узбекской классической и современной литературы. В данном контексте одним из важных направлений его научных изысканий является узбекско-таджикско-русские литературные связи, на важность и актуальность которых обращали свое внимание таджикские и узбекские.

В частности, таджикские ученые в процессе изучения литературоведческих и художествен-

[1] Лахути А. Садриддин Айни // С. Айни. Образцы таджикской литературы. – Душанбе: «Литературный фонд Айни», 2010. – С. 6
[2] Азизи Б. «Образцы таджикской литературы»// газета «Овози точик». – 1928. - 23 февраля. - № 134. (на тадж.яз)
[3] Икрами Дж. Взгляд на «Образцы таджикской литературы» // журнал «Рахбари Дониш». – 1929. - № 12. – С. 22-24.
[4] Азизи Б. «Образцы таджикской литературы»// газета «Овози точик». – 1928. - 23 февраля. - № 134. (на тадж.яз*)*
[5] Азизи Б. «Образцы таджикской литературы»// газета «Овози точик». – 1928. - 23 февраля. - № 134. (на тадж.яз
[6] Айни С. Полное собрание сочинений. Т. 11. Книга первая. – Душанбе: «Таджгосиздат», 1963. – С. 174- 178 *(на* тадж. *яз.)*
[7] Сайфуллаев А. Школа Айни. – Душанбе: Ирфон, 1978. – 352 с. *(на* тадж.яз*)*

ных работ С. Айни, наряду с другими аспектами, стали исследовать их с точки зрения взаимовлияния таджикской и узбекской литератур. В этой связи ими особо подчеркивается важность научной и гражданской позиции С. Айни в развитии двусторонних литературных связей и укреплении дружественных отношений между двумя народами.

Очередной этап изучения творчества С. Айни в таджикском литературоведении начинается с 60-х годов XX века, со статьи известного таджикского литературоведа Ш. Хусейнзаде. В 1962 году он опубликовал статью под названием «Об одной сатирической пьесе устода С. Айни»[1] .

Данная статья интересна тем, что в ней рассматривается до того времени не опубликованная комедийная пьеса С. Айни, написанная им на узбекском языке в 1943 году. Как известно С. Айни был двуязычным литератором и ученым, писавшим свои научные, художественные и публицистические произведения, как на таджикском, так и на узбекском языках.

Следует подчеркнуть, что сам факт двуязычия писателя, является ярким примером литературных связей двух братских народов. Наряду со многими произведениями С. Айни, его комедийная пьеса, состоящая из четырех частей лишнее тому подтверждение.

Ш. Хусейнзаде в своей статье затрагивая роль и место сатиры в творчестве С. Айни, подробно описывает историю возникновения данной пьесы, приводит оригинальный текст на узбекском языке с последующим таджикским переводом, определяет ее содержание и идейную основу, уточняет год ее написания.

Ш. Хусейнзаде сообщает, что текст данной неопубликованной пьесы ему было предоставлено Камолом Айни накануне 80-летия С. Айни [2].

Об истории написания самой пьесы автор статьи дает такое следующее сведение: «Данная пьеса до сих пор не опубликована. Она храниться в фонде музея С. Айни написана бумаге в клетку, длиной 33 см и шириной 21 см, и состоит из 75 страниц. Пьеса написана на узбекском языке, арабским письмом и отредактирована в соответствие с новой орфографией».Затем приводятся имя автора, название, цель и содержание пьесы на узбекском языке, и в переводе на таджикский язык.

Далее Ш. Хусейнзаде отмечая, что год написания пьесы не указан, приводит запись С. Айни о том, что «Ўзбекистон совет саҳна санъатининг 25 йиллигига боғишланади («Ба 25-солагии санъати саҳнаи советии Ўзбекистон тақдим мешавад»)[3]. *(*«Посвящается 25-летию советского сценического искусства Узбекистана»*)*.

Ш. Хусейнзаде сделав исторический экскурс истории возникновения театрального искусства Узбекистана, отмечает, что создание узбекского театра связана с именем основоположника современной узбекской литературы Хамза Хакимзода Ниязи (1889-1929) и его пьесы «Бай и батрак», написанной в 1918 году. Ш. Хусейнзаде подчеркнув, что «если считать возникновение и становление советского театрального искусства Узбекистана 1918-ым годом и если пьеса С. Айни посвящена 25-летию советского сценического искусства Узбекистана, то год написания произведения совпадает с 1943 годом» [4]. Вместе с тем Ш. Хусейнзаде высказывает мнение о том, что «на взгляд автора этих строк, может быть данная пьеса также была написана ранее» [5].

Далее автор приступает к более детальному изучению текста пьесы, с точки зрения ее жанра, стиля и идейной основы. Уделяет особое внимание выявлению характеристик героев пьесы – Ходжи-эфенди, Азизулина, Алдаркусы, Мирзы-домла, Кори-ака, Салимбека, Дулобкала, Азим-полвона, Мухсинчы, Шоимкула. Для подкрепления своего анализа приводит отдельные выдержки из текста пьесы – вначале на узбекском оригинале и затем с таджикским переводом.

Выдержки приведены отрывками с каждой сцены пьесы и автор высказывает свои соображения по их поводу. В общей сложности автором приводится 38 выдержек из оригинального текста пьесы, соответственно сделаны столько же переводов на таджикский язык.

Таким образом, обзор и анализ таджикского литературоведения 50-60-х годов XX века, на примере работ Б. Азизи и Ш. Хусейнзаде (особенно последнего), посвященных вкладу Садридди-

[1] Хусейнзода Ш. Полемика и мысль. – Душанбе: Ирфон, 1964. – С. 150-182 *(на* тадж. *яз.)*
[2] Хусейнзода Ш. Полемика и мысль. – Душанбе: Ирфон, 1964. – С. 151.
[3] Хусейнзода Ш. Полемика и мысль. – Душанбе: Ирфон, 1964. – С. 153.
[4] Хусейнзода Ш. Полемика и мысль. – Душанбе: Ирфон, 1964. – С. 152.
[5] Хусейнзода Ш. Полемика и мысль. – Душанбе: Ирфон, 1964. – С. 154.

на Айни в изучении и укреплении узбекско-таджикских литературных связей, показывают, что таджикские ученые, обстоятельно изучили научно-литературные и научно-критические исследования С. Айни, в том числе в части его исследований по узбекско-таджикским литературным связям. Отличительной чертой статьи Ш. Хусейнзаде о пьесе С. Айни написанной на узбекском языке ярко показывающей его большой вклад в развитии языка и литературы двух братских народов, является вписывание в статью параллельных узбекско-таджикских выдержек. Через такой подход Ш. Хусейнзаде специально подчеркивает билингвистический характер всех аспектов творчества Садриддина Айни.

Rezume. Maqolada Sadriddin Aynining ilmiy-adabiy asarlari bo'yicha tadqiqotlarning shakllanishi va rivojlanishi jarayoni ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, o'zbek-tojik adabiy aloqalari konteksti orqali S. Aynining pozitsiyasi va qarashlarini ochib beradigan ishlarga (bu holda Sh. Huseynzoda maqolasi misolida) e'tibor qaratilmoqda.

Резюме. В статье рассматривается процесс становления и развития исследований о научно-литературных произведениях Садриддина Айни. При этом, внимание уделяется тем работам (в данном случае на примере статьи Ш. Хусейнзаде), которые выявляют позицию и видение С. Айни через контекст узбекско-таджикских литературных связей.

Resume. The article examines the process of formation and development of research on the scientific and literary works of Sadriddin Aini. At the same time, attention is paid to those works (in this case, based on the example of the article by Sh. Huseynzade) that reveal the position and vision of S. Aini through the context of Uzbek-Tajik literary relations.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 6-7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ADABIYOTSHUNOSLIKDA MOTIV OBRAZ TUSHUNCHASIGA OID NAZARIY QARASHLAR

Suvonqulova Laylo Mahmud qizi,
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

Badiiy obraz asar voqealarini o'quvchi ongida jonlantiruvchi, yozuvchining ichki his-tuyg'ularini yuzaga chiqaruvchi unsurdir. Shu sababdan badiiy obraz masalasi adabiyotshunoslikda muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiyotshunoslar badiiy obrazni turli xildagi kategoriyalar va guruhlarga bo'lgan holatda tahlil qilgan. Xususan, olim D.Quronov obrazni bir ijodkorning bir necha asarlarida takrorlanishi yoxud bir necha ijodkor ijodida bir obrazning turli xilda takrorlanishi jihatidan motiv, topos hamda arxitep kabi turlarga ajratgan holda izohlagan va motiv obrazga quyidagicha ta'rif bergan: «Motiv (motiv obraz) shakliy va mazmuniy jihatlardan muayyan turg'unlik kasb etgan, bir yoki bir necha ijodkorning asarlarida qaytarilib turishi bilan ularning ijodiy intilishlarini namoyon etib turuvchi obrazdir. Masalan, Cho'lpon qo'llagan ma'nosi nuqtai nazaridan «yo'l» obrazi motiv sanalishi mumkin: ayni shu obraz uning ham nasriy, ham she'riy asarlarida tez-tez takrorlanadi. Yoki Cho'lpon ijodiga xos bo'lgan «yulduz», «yo'lchi» motivlari 20-30-yillar she'riyatida, xususan, A.Fitrat, Oybek va U.Nosir asarlarida ham tez-tez uchraydi. Shuningdek, bu davr she'riyatida yana «dengiz», «qush», «parvoz», «tutqun qush» kabi poetik obrazlar ham motiv sanaladiki, ular, ta'bir joiz bo'lsa, davr she'riyati «badiiy leksikasi»ni tashkil qiladi»[1].

Avvalo motiv obraz atamasi haqida mulohaza yuritishdan oldin motiv tushunchasi haqida fikr yuritishimiz joizdir.

Bir asarni yaratish hamda uni o'quvchi qalbiga, ongiga singdirish yozuvchidan katta mahorat, keng dunyoqarash hamda ilmni talab etadi. Ijodkor o'zining asardan ko'zlagan maqsadini yetkazib berish uchun turli vositalarga murojaat qilishi, tabiiy. Bunda muallif boshqa bir ijod namunasidan, albatta, ilhom olishi yoxud o'sha asardagi biror bir syujetni o'z asariga ko'chirishi mumkin. Bu hodisa esa adabiyotshunoslikda motiv tushunchasini yuzaga keltirgan. «Adabiyotshunoslikda motiv termini asarning asosiy mavzu va g'oyasini to'ldirishga xizmat qiluvchi qo'shimcha mavzu yoki g'oyaviy liniyaga nisbatan qo'llaniladi»[2]. Motivlarni biz faqatgina adabiyotshunoslik sohasida emas, psixologiya, tasviriy san'at, falsafa, musiqa sohalarida ham uchratishimiz mumkin. Lug'atlarda ushbu termin ko'p ma'noli atama sifatida izohlanadi, biroq lug'aviy ma'nosi fransuzcha – «kuy», «ohang», lotincha – «harakatlanmoq» so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, sujetning tarkibiy unsuri, asarning asosiy mazmuni ekanligi aytiladi[3]. Motivlarning asar ichiga olib kirilishiga asosiy sabab – asarning ta'sirchanlik va semantiklik darajasini yanada orttirish, o'z fikrlarini to'g'ridan to'g'ri ifodalamay uni ramziylashtirishtirish.

Avvalo, motivlarning yuzaga kelishida mifologik qarashlar va tasavvurlar yetakchilik qilgan. Insoniyatning dunyoni anglashga bo'lgan xohishi qadimgi miflarning yaratilishiga turtki bo'ldi va ushbu miflarda inson o'z tasavvurlarini ifoda eta oldi. Miflar insonlarning tafakkur shakliga aylanib bordi. Unda mifologik dunyoqarashning turli ko'rinishlari aks etgan. Xo'sh, mifologik dunyoqarash nima o'zi? «Turli xalqlarning olamni yaratilishi, tabiat hodisalari, fantastik mavjudotlar, xudolar va qahramonlar va ular bilan bog'liq hodisalar haqidagi tasavvurlarini ifodalab ma'lum bir tizimga solingan shakli – mifologik dunyoqarish deb yuritiladi»[4]. Bunda ibtidoiy davrdagi insonlar o'zlarining tabiatga nisbatan hissiy aloqalarini singdirishga harakat qilgan. Shu tariqa miflar tarkibida motivlar silsilasi vujudga kelgan. Miflarda olam yaratilishi, insonning dunyoga kelishi, osmon jismlari, to'qima qahramonlar jasoratiga oid mavzular mavjud bo'lib, ularni olima Marg'uba Abdullayeva 7ta turga ajratib bergan. Bu turlarning barchasi ibtidoiy tafakkur egasi

[1] Қуронов Д. Адабиёт назарияси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2018. – Б. 91.
[2] Хатамов Н, Саримсаков Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б. 191.
[3] O'zbek tilining izohli lug'ati// 5 jildlik. II jild. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" DIN, 2006. – B. 618.
[4] Abdullayeva M. Mumtoz tarixiy poetika [O'quv qo'llanma]. – Toshkent. 2023. – B. 14. .

bo‘lgan insonlarda badiiy tafakkurning shakllanishiga yordam berdi. Badiiy tafakkur adabiyotning yuzaga kelishiga zamin yaratdi va miflardagi mifologik qarashlar badiiy adabiyot janrlariga singgan. Bu xususiyat, birinchi navbatda, xalq og‘zaki ijodida ko‘zga tashlanadi. Undagi syujetlar, holatlar miflar genezisiga borib taqaladi. Faqat ular endi xalq og‘zaki ijodida motiv atamasi ostida izoh etiladigan bo‘ldi.

Motiv nazariyasi jahon adabiyotida ham muhim o‘ringa egadir. Biroq ularni tahlil qilishdagi qarashlar ancha farqli. Yevropa adabiyotshunosligida bu tushunchaga asar strukturasidan kelib chiqib psixologik jihatdan yondashilgan bo‘lsa, rus adabiyotshunosligida, asosan, asar syujetiga hamda kompozitsiyasidagi detallarga e’tibor qaratilgan. Motivlarni tasniflash, ularni turli xildagi kategoriyalarga bo‘lish rus adabiyotshunosligida A.N.Vaselovskiy tomonidan boshlab berilgan bo‘lib, u motivlar adabiyotning eng qadimgi qatlamini ifodalashini hamda syujetni yuzaga keltirishda katta ahamiyat kasb etishini ta’kidlagan. Uning fikricha, «Motivlar birlashib, syujet halqasini yuzaga keltiradi»[1]. Uning davomchilari sifatida A.K.Jolkovskiy, Yu.K.Shcheglov, B.N.Putilov, L.Parpulova kabi olimlarni keltirish mumkin. Jolkovskiy va Shchegloving fikricha, asarlarda motivning turli variantlari bo‘lishi mumkin. Ya’ni motiv ko‘proq syujetga aloqador bo‘lsa-da, bu bevosita emas, bilvosita aloqadorlik hisoblanadi. Motiv faqatgina voqea-hodisa bo‘lib qolmay, narsa, obraz, holat kabi tushunchalarni ham o‘z ichiga qamrab oladi. «Adabiyotshunoslikda motiv termini turlicha ma’nolarda qo‘llaniladi. Jumladan, voqeaband asarlarda motiv syujet sxemasi (masalan, qahramon bandi etiladi, unga biror bir qiz yordam beradi: o‘gay ona va mushtipar soliha qiz; qahramon kimsasiz yetimlikdan yuksak martabaga yetadi; qahramon otasini tanimaydi, favqulotta vaziyatda unga duch keladi va h.) yoki biror bir narsa (masalan, ko‘zgu, tumor), holat (masalan, tush ko‘rish, arvoh bilan suhbat, o‘zini tanitmay yurish), obraz (dono vazir, vafodor do‘st, raqib) qator ko‘rinishlarda voqe bo‘ladi hamda yozuvchining badiiy fantaziyasi, imkoniyati va ijodiy niyatidan kelib chiqib turli variantlarda talqin etiladi. Masalan, «Alpomish»dagi Qorajon, «Farhod va Shirin»dagi Shopur , «O‘tgan kunlar»dagi usta Olim – bari do‘st motivining turli variantlari bo‘lib, ular asar syujetidagi funksiyalarni, badiiy konsepsiyani ifodalashda tutgan o‘rni jihatidan farqlanadi»[2]. Albatta, bu jihatdan motivlarning xilma-xilligi, shubhasiz. Ularni motiv voqealar, motiv obrazlar, motiv holatlar, motiv elementlar kabi bir qancha turga ajratsa bo‘ladi va yuqorida sanab o‘tilgan motivlarning barchasini xalq og‘zaki ijodi namunalarida uchratishimiz mumkin. Bu esa motiv namunalarini tasniflashda og‘zaki ijodiga murojaat qilish lozimligini ko‘rsatadi.

Xalq og‘zaki ijodi namunalari turli tarkibiy qismlardan iborat va eng ahamiyatlilari motiv hamda obraz sanaladi. Motivlar ma’lum bir g‘oya bo‘lib, asar shu g‘oyalarning o‘zaro bog‘lanishi, harakati ustiga quriladi. Obraz esa voqeliklar jarayonida qatnashuvchi, tashviq etilayotgan g‘oyani o‘quvchi va tinglovchiga jonlantirib ko‘rsatuvchi qahramondir va bu ikki atama bir-birini to‘ldirgan holda motiv obraz istilohi yuzaga keladi.

Motiv obrazlar xalq og‘zaki ijodida ilk bor o‘z ildizlarini otgan va keyinchalik uning namunalari yozma adabiyotda ham paydo bo‘lgan. Albatta, xalq og‘zaki ijodidagi motiv obrazlarni janrlar kesimida tahlil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki motivlar o‘zi qo‘llanilayotgan asarning mazmun-mohiyati va xususiyati bilan bog‘liq. Xalq og‘zaki ijodi namunalaridan doston, ertak, afsona, rivoyatlarni motivlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Sababi bu tushuncha aynan asarlardagi voqealar rivoji uchun turtki vazifasini o‘taydi. Motivlarning xalq og‘zaki ijodidagi genezisi bilan o‘zbek folklorshunosligida H.Zarif, M.Afzalov, M. Saidov, K.Imomov, G‘.Jalolov, X.Egamov, J.Yusupov, T.Sobitova, Sh.Turdimov, J.Eshonqulov[3] singari olimlar ilmiy-amaliy tadqiqotlarni amalga oshirganlar.

Xalq og‘zaki ijodida, xususan, dostonlarda, ertaklarda ko‘plab motiv namunalari mavjud. Masalan, uzoq safarga baxtini izlab ketish, uzukda go‘zal malikani ko‘rish, farzandsizlikdan qiynalish holatlati, sevganini devlar qo‘lidan qutqarish, raqibini yengib uning mamlakatiga ega bo‘lish, qirq kecha-yu qirq kunduz to‘y qilish voqealari, uzuk, kamon, tumor, muhr kabi detallar, zolim shoh, ig‘vogar vazir, yo‘lda uchragan vafodor yo‘ldosh kabi obrazlari asarlarning yanada boyishiga turtki bo‘ladi va asarning rivojida katta hissa qo‘shadi. Sababi asar tuzulishi va voqealar rivoji shu motivlar asosida rangbaranglik kasb etgan. Motivning asar tarkibiga kiritilishi o‘quvchida yanada qiziqishni orttiradi. Biroq motivni yozuvchi to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘chirib olmay, aksincha unga yanada sayqal beradi, o‘zining fantaziyasidan kelib chiqqan holatda yangilaydi, o‘ziga yoqmagan yoxud asariga mos tushmaydigan jihatlarini olib tashlaydi.

[1] Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – Москва: Высшая школа, 1989. – С. 294.
[2] Қуронов Д, Мамажонов З, Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – Б. 180.
[3] Назарова Ш. Хаёл ва ҳақиқат фольклор ва теология кесимида. –Тошкент: Mumtoz so‘z, 2013. – Б. 9.

Bu hodisa esa ijodkorning estetik mahoratini belgilab beruvchi omildir. Xalq og‘zaki ijodida esa bu holat aytuvchilar, ya’ni baxshilar, laparchilar, ertakchilar tomonidan yuzaga keladi. Ular o‘zlari yashab turgan makon va zamonga yoxud o‘zlari tinglagan variantlariga qarab motivning ba’zi jihatlariga o‘zgartirish kiritadilar. Ammo ikki holatda ham motivning o‘zak qismi asos vazifani bajaradi.

Xulosa qilib aytganda, motiv obrazlar ma’lum asardagi syujetlarni harakatga keltiruvchi ramziylashtirilgan obrazlardir. Bu obrazlar asarning badiiy-estetik ahamiyatini yanada oshiradi va asardagi badiiy yaxlitlikni ta’minlaydi. Davrlar, asrlar o‘tsa-da, ajdodlarimizning tafakkuri va ijodidan bizga darak berib turadi.

Rezyume. Bir asarni yaratishda, xoh u epik, xoh u lirik asar bo‘lsin, syujetning harakatga kelishi, yozuvchi maqsadiga erishishi uchun ma’lum unsurlar lozim. Bulardan eng ahamiyatlisi esa motiv (motiv obraz) lardir. Bu tushuncha voqea-hodisalarning badiiy, mantiqiy va mazmun jihatdan o‘zaro bog‘lab beruvchi halqa. Ushbu maqolada adabiyotshunoslikda motiv terminining paydo bo‘lishi, uning tarkibidagi obrazlar va adabiyotshunoslarning ilmiy qarashlari, xulosalari tahlil qilinadi. Motiv obrazning asarlardagi o‘rni, badiiy ahamiyati nazariy jihatdan izohlanadi.

Resume. When creating a work, whether it is epic or lyrical, certain elements are necessary for the plot to move forward and achieve the writer’s goal. The most important of these are motifs (motive images). This concept is a link that connect events in terms of artistic, logical, and content. In this article, motive in literary studies. The emergence of the term, the images it contains, and the scientific views and conclusions of literary scholars are analyzed. The role and artistic significance of the moif image in works are theoretically explained.

Резюме. Создавая произведение, будь то эпическое или лирическое. Для развития сюжета и достижения писательской цели необходимы определённые элементы. Важнейшими из них являются мотивы (мотивые образы). Это понятие представляет собой связующее звено, связывающее события в художественном, логическом и содержательном отношениях. В данной статье рассматривается мотив в литературоведении. Анализируются возникновение термина, связанные с ним образы, научные взглядыи выводы литературоведов. Теоретически обосновываются роль и художественное значение образа мотива в произведениях.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 6-7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

JADID ADABIYOTIDA VATAN, DIN VA TIL KONSEPSIYASI

Raximjonova Safarmo Akbarali qizi,
mustaqil tadqiqotchi

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Turkiston, Kavkaz, Qrim hamda Tatariston hududlarida yashagan ziyolilar hayotida ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy harakatlar alohida ahamiyat kasb etdi. Bu harakat ishtirokchilari xalqni ilmga chorlash, ularning ongini yoritish, ma'rifat nurlarini tarqatish yo'lida fidokorona xizmat qildilar. Jadidlar o'z ideologiyalarini ulashishda adabiyot, teatr, maorif kabi sohalardan foydalandilar, g'oyalarini targ'ib qildilar. Ular tomonidan ilgari surilgan har bir mafkuraviy g'oya xalqning ma'rifatli bo'lishida muhim poydevor sifatida xizmat qildi, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu tadqiqotdan o'rin olgan jadid adabiyoti vakillari, xususan, Behbudiy va Fitrat ijodida aks etgan uch fundamental konsepsiya, ya'ni Vatan, din va til konsepsiyalari ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilindi, ularning mazmun-mohiyatidan o'rin egallagan mafkuraviy evolyutsiyaning badiiy xususiyatlari tadqiqot davomida ochiqlandi. Tadqiqot obyekti sifatida tanlangan uch konsepsiyaga xos jadidona yondashuv va ular o'rtasidagi aloqadorlik millat hayotida qanday ahamiyat kasb etganligi bevosita tadqiq etildi.

Jadidchilik harakati va ularda aks etgan tematik ko'lam borasida qator tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ushbu tadqiqotlar bir-biridan mavzuga qay jihatdan yondashuvning mavjudligiga ko'ra farq qiladi. Xususan, N. Egamqulovaning «XX asr boshlarida adabiy jarayon muammolari (1906-1917-yillar o'zbek vaqtli matbuoti misolida» nomli tadqiqotida jadidchilik harakati vakillari tomonidan olib borilgan harakatlardagi tematik konsepsiya asar poetikasiga mutanosib ravishda izohlangan. Muallifning ta'kidlashicha, o'sha davrda aks etgan nazmiy asarlarda ilgari surilgan mavzular xilma-xillikka ega bo'lgan, «Ma'rifiy mavzudagi she'rlar o'z ichiga jadidlarning barcha bosh g'oyalarini singdirib ketgan. Bu kabi she'rlarda Ovrupo bilan Sharqni solishtirish, musulmonlarning ilm va madaniyatdagi avvalgi mavqelarini eslatib o'tish o'rinlar ko'p uchraydi. …ijtimoiy-siyosiy mazmundagi she'rlar… nisbatan ehtiyotkorlik bilan va «pardalab» yozilgan…»[1].

Shuningdek, N. Avazovning «Behbudiy ijodida millat va milliyat masalalari talqini» nomli tadqiqotida ham Behbudiy va Fitrat asarlarida aks etgan milliyat motivlari tahlil qilingan. Tadqiqotchi bu borada quyidagi fikrlarni ilgari suradi: «Behbudiyning barcha asarlarida millat va milliyat ruhi ustuvor… Millat taqdiri, yurt qayg'usi, Vatan tuyg'usi va istiqlol orzusi Fitrar ijodining leytmotivini tashkil qiladi»[2]. Umuman olganda, ushbu sohaga oid har bir tadqiqot jadid adabiyot vakillari ijodida aks etgan tematik ko'lamning o'ziga xosligidan dalolat beradi.

Ushbu tadqiqotda asosiy metodologik yondashuv sifatida jadid adabiyoti vakillarining nasriy va nazmiy asarlarining tekstual-konseptual tahlili hamda tematik kontent tahlili tanlandi.

Jadid ijodkorlari asarlaridan o'rin olgan Vatan tushunchasi alohida tematik konsepsiya sanaladi. XX asr jadid adabiyotida «...o'zbek jadid matbuoti va ada biyotida «vatan» va «millat» tushunchalarining faollashuvi, ularning mazmun-mohiyatini aniq belgilab olishga intilish kuchaygani...»[3]ga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Vatan mavzusi, asosan, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat yo'lida tarbiyalash maqsadida jadidizm vakillari tomonidan ko'tarilgan. Xususan, Behbudiy ijod namunalaridan, asosan, nasriy asarlarida Vatan tarannumi qalamga olingan. Behbudiy Vatan konsepsiyasi va ilm tushunchasini o'zaro bir-biriga aloqador deb hisoblaydi. Chunonchi, «Millatlar qanday taraqqiy etarlar» maqolasida ilgari surilgan quyidagi fikrlari mulohazalarimizning yaqqol tasdig'i o'laroq namoyon bo'ladi: «Taraqqiy qiluvchi millatlarning ulamosi zamondin boxabar bo'lib, o'z millatining «masolihayi zamoniyya»si uchun sa'y etar, millatni peshravig'a oqcha ila, hayrat ila iona

[1] Эгамқулова Н. XX аср бошларида адабий жараён муаммолари (1906-1917-йиллар ўзбек вақтли матбуоти мисолида. Филол.фан.док.дисс… – Тошкент, 2021. – Б. 102.
[2] Avazov N. Behbudiy ijodida millat va milliyat masalalari talqini: Filol.fan.dok.diss... avtoref... – Toshkent, 2024. – B. 15.
[3] Худайбердиев А. Абдурауф Фитрат ижодида "ватан" ва "миллат" бадиий концептлари. Literary Studies. – Б. 46-54.

qilmoqni millat boylarig‘a taklif etar, tashviq va tahris etar. Xulosa, har millatni ulamosi, ahli qalami millat uchun so‘ylar, yozar va havoiji milliya va zamoniyani o‘z millatiga mansubasini bildirarlar»[1]. Ko‘rinib turibdiki, yurt va millat taqdiridan qayg‘uga tushuvchi dastlabki qatlam, avvalo, ilm ahlidir. Ommatan, xalq ilm ahliga ergashib Vatan tuyg‘usi, uni asrash va sadoqat kabi tushunchalarning asl mohiyatini anglab yetadilar.

Shuningdek, Fitrat asarlarida ham Vatan talqini o‘ziga xos ko‘rinishga ega. Fitrat Buxoroda tug‘ilgan va umrining ma’lum davrlarida Turkiyada tahsil olgan. Ana shu muddat davomida yurt sog‘inchi shoirni qiynagani uning nazmiy asarlarida yaqqol namoyon bo‘lgan:

Sahar chog‘i Vatanimni sayr etaylik,
Oh-oh, vatanki jonu tanim sajdagohi.
Mening butun tinchligim va sharafim,
Ham Ka’bam, qiblam, ham chamanim[2].

Yurt sog‘inchi Fitrat qalbig‘a olov soldi, uni she’r bitishga undadi. Shoir yurtini go‘zal voqeliklarga muqoyasa etdi. Shoir uchun Vatan – bu jon-u tani sajdagohi, tinchlig-u sharafi, Ka’basi, qiblasi va chamani, umuman, shoirning har nesi uning Vatani edi. Ko‘rinib turibdiki, jadidizm vakillari tomonidan ilgari surilgan Vatan tematikasi yurt va millat kelajagidan xavotir, Vatan sog‘inchi kabi tuyg‘ular integratsiyasiga asoslangan holda «dunyoga kelgan».

Diniy mavzular-da jadidchilar nazaridan chetda qolmagan. Diniy mavzu tematikasi xususida N. Egamqulova quyidagi fikrlarni ilgari surgan: «Diniy mavzudagi she’rlarga misol sifatida Ramazon oyi, Qadr kechasi, mavludi sharif to‘g‘risidagi hamda biror kishining vafoti munosabati bilan yozilgan namunalarni keltirish mumkin»[3]. Behbudiy qarashlarida til va din konsepsiyasiga xos integratsiyani kuzatish mumkin, u o‘zining til xususidagi mulohazalarini diniy fikrlarga asoslangan holda ifodalaydi. Arabiy, forsiy so‘zlardan foydalanish dindoshlari bilan yaqin aloqada bo‘lish, bir-birlarini yaxshiroq tushunish uchun yo‘l ochishiga ishoralar beradi[4]. Behbudiyning «Holbuki, «qo‘noq» deganda bir turk fahmlaydur. «Mehmon» deganda turk fahmlagani ustida, yana bir forsiy musulmon qarindoshimiz-da anglaydir» kabi mulohazalaridan o‘rin olgan tilga sof yondashuv masalalari din masalalariga o‘zaro uyg‘unlik kasb etgan[5]. Shuningdek, Behbudiyning ilm va din masalalarida ham integratsiyaga yo‘l qo‘ygan va bu ijodkorning quyidagi fikrlarida yaqqol namoyon bo‘lgan: «To‘y va ta’ziyaga sarf qilinaturgan aqchalarimizni biz Turkistonlilar ilm va din yo‘liga sarf etsak, qariyb ovrupaliklardek taraqqiy etamiz va o‘zimiz-da, dinimiz-da obro‘y va rivoj topar. Yo‘q, hozirgi holimizda davom etsak, din va dunyoda zalolat va masnunatdan boshqa nasibamiz bo‘lmaydur». Yana bir misol: «Maktab va madrasalar ochmoqqa, jamiyat va shirkatlik tijoratxonalar ta’sis etmoqqa harakat etaylik. Rossiya va Ovrupa, Misr va Istambulga talaba yubormoq kerakdur. Oy Turkistonli musulmonlar, boshqa nasibamiz bo‘lmaydur»[6].

Muborak Islom dini himoyasida ham Behbudiy ancha ilgari bo‘lgan: «...*haq olinur, berilmaydur.* Har bir millat va mamlakat xalqi o‘zini huquqini diniya va siyosiyasini harakat va ittifoq ila boshqalardan oladi... Biz istaymizki, hech bir kishi bizning din va millatimizga zulm va tahdid qilmasin. Biz istaymizki, butun Rossiya musulmonlari *muxtoriyat (federatsiya)* usuli yuzasidan tirikchilik qilsunlar»[7].

Shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, adabiy til me’yorlariga amal qilish borasida ham Behbudiy o‘z mulohazalarini bildirib o‘tgan: «Til masalasi» muharrirlaridan biri der: «Tillar zamon ila isloh bo‘lur, birdan isloh etilmaslar». Sodda til nima uchun kerak? Atrofindagi qavmu qarindoshi ilan so‘ylashmoq uchun. Adabiy va ilmiy til nimag‘a kerak? Mavjud ilmu fan va tarixni bilmoq va alardan foydalanmoq uchun. Endi bizg‘a lozimki, atrof, ya’ni tevaragimizni adabiylashtursak, munavvarlashtursak, ya’ni ilmu fan ila yorutsak. Ilmu fan bo‘lsa, bizni tilg‘a tobe’ bo‘lmay, balki bizni o‘zig‘a jabran tobe’ etar. Endi bu sodda tilni bizni har qishloq va mahallada bir-biridan farqi bordur. Ammo ilmiy va adabiy tilni har bir qishloq va ko‘ydagi onalarni tilinda bo‘lmoqligi va alardan boshlanmog‘i mumkin emasdur. Ore, anglis va fransuz onalari va va o‘qug‘on rus va usmonli onalarini(ng) tili matbuot va maktabdagi adabiy va ilmiy tilni ayni va xud o‘zidur»[8]. Sodda til (sheva) hamda adabiy va ilmiy tildan foydalanish o‘rinlariga aniq chegara qo‘ya olgan Behbudiy tilni adabiylashtirish masalalariga alohida urg‘u bergan.

[1] Беҳбудий. Миллатлар қандай тараққий этарлар? Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2018. – Б. 389-390.
[2] Fitrat A. Tanlangan asarlar. 5 jildlik. 1-jild. [Selected works. 5 volumes. Volume 1]. – Tashkent: Ma’naviyat, 2000.
[3] Эгамқулова Н. XX аср бошларида адабий жараён муаммолари (1906-1917-йиллар ўзбек вақтли матбуоти мисолида. Филол.фан.док.дисс… – Тошкент, 2021. – Б. 102.
[4] Egamqulova N. Ko`rsatilgan manba. – B. 109.
[5] Маҳмудхўжа Беҳбудий. Тил масаласи // Ойина. 1915. №12.
[6] Беҳбудий М. Бизни кемиргувчи иллатлар / Ойина. – Самарқанд, 1915. – №13. – Б. 338-342.
[7] Беҳбудий М. Баёни ҳақиқат / Улуғ Туркистон. – Тошкент, 1917 йил, 12 июнь.
[8] Mahmudxo‘ja Behbudiy. Til masalasi (1915)

Ha, Behbudiy asarlaridagi din va til, til sofligini saqlash, din va ilm hamda din himoyasi yo‘lida peshqadamlik xususiyatlari ayni ijodkorga xos ifoda yo‘sini hisoblanadi.

Fitrat asarlarida din va til talqini badiiy xarakterga ega. Ijodkor asarlari poetik mavzusidan o‘rin olgan ushbu mavzularda Fitratning bu masalalardagi jonkuyarligi yaqqol sezilib turadi. Adabiy tilimiz juda g‘ariblashib qolgan, boshqa chet tillardan kirgan so‘zlar hisobiga ancha buzilish darajasiga borib yetgan[1] bir vaqtda Fitrat jonbozlik ko‘rsatib, turkiy tilning chetki tillar «bosqini»dan asrashda jonbozlik ko‘rsatgan. Fitrat o‘z asarlarida turkiy til himoyasini vatan himoyasi bilan chambarchas bog‘laydi. Til va vatan muhabbatining o‘zaro uyg‘unlik jihatlarini jadid nigohi ila ko‘radi, uni asrash, himoya qilishga millatdoshlarini-da undaydi: «Turk ulusini sevamiz, lekin tili qabodir, musiqasi totsizdir, tarixi qorong‘udir deganlarning ham bir-ikki tayoq yeb quvilmoqlari kerakdir»[2].

Fitrat til sofligini saqlash uchun Navoiy yo‘lini tutadi, uning «Muhokamat ul-lug‘atayn» asari ushbu yo‘lda harakat qilayotgan har bir inson uchun dasturulamal bo‘lib xizmat qilishini quyidagi satrlarda ko‘rsatib beradi: «Turkchada so‘z ko‘pligi bormi? (arabchilarimizcha aytganda kasrati kalimot mavjudmi?) Bu so‘z bukun emas, necha yuz yil burun oraga chiqmish deya Navoiyning Muhokamatul lug‘atayn» otli kitobindan o‘z javobini olmish. Navoyining kitobi turkchaning boyligini ochibg‘ina bildira olmasa ham, turkchada so‘z ko‘pligini (u) yaxshi biladir. Navoyi yolg‘iz «yig‘lamoq»ning turlarini ko‘rsataturg‘on turkcha so‘zlarning shunchasini yozadir: ingramoq, singramoq, inchkirmak, yig‘lamoq, yig‘lamsinmoq, o‘kirmak, siqtamoq»[3]. Fitrat ta’biri bilan aytganda, «turkcha» tilni boshqa tillar unsurlaridan tozalash, uning sofligini asrash – har bir yosh avlod zimmasiga yuklatilgan vazifalardan sanaladi.

Fitrat diniy mavzularni-da chetlab o‘tmagan, ayniqsa, ijodkorning «Muxtasar Islom tarixi» nomli nasriy asari Islom dini tarixini o‘rganishga qaratilgan risola hisoblanadi. Shuningdek, o‘zining amaliy xatti-harakatlari o‘laroq dinning ommatan tushunilishiga-da xizmat qilgan. Bu xususda, H. Boltaboyev shunday degan edi: «Yigirmanchi asrdagi ayrim hujjat va xotiranomalarning guvohlik berishiga ko‘ra, Abdurauf Fitrat Istambuldan qaytgach (1914), usuli jadida va madrasalar tashkil etib, uning o‘zi bu ilmgohlarda turkiy va forsiy adabiyotlar tarixi, islomshunoslik va sharq tillaridan saboq o‘qigan. «Muxtasar Islom tarixi» ana shu ilmgohlar talabalari uchun qo‘llanma tarzida yozilgan edi. Uslubning soddaligidan va nahviy (stilistik) qurilishi jihatidan bu qo‘llanma Fitrat ma’ruzalarining matni ekani ham ayondir»[4]. Demak, Fitratning til va din kabi qarashlaridan ma’lum bo‘ladiki, Fitrat til sofligining jonkuyari, Islom dini tarixi tadqiqotchisi sifatida jadid adabiyotida o‘chmas iz qoldirdir.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, jadidizm vakillarining Vatan, din va til konsepsiyalari borasidagi talqinlari ularning Markaziy Osiyo xalqlarining jamiyat islohotiga bo‘lgan amaliy sa’y-harakatlarining ajralmas qismidir. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan ushbu uch g‘oya integrativ xarakterga ega, ya’ni ilm va Vatan, vatan va til, til va din kabi uyg‘unlik ijodkorlar asar poetikasiga xos xarakterologiya hisoblanadi.

Jadid adablari vatan, til va din g‘oyalari asosida jamiyatni jaholatdan qutqarish, ularning tafakkurini yuksaltirish, yosh avlod tarbiyasida qo‘llash kabi sohalarda foydalandilar. O‘ylaymizki, ularning bu g‘oyaviy merosi kelgusida ham o‘zining ahamiyatini aslo yo‘qotmaydi.

Rezyume. Ushbu maqolada XX asrda Markaziy Osiyoda faoliyat shakllangan jadidchilik harakati va ularning ijod namunlarida aks etgan Vatan, din va til konsepsiyalari xususida so‘z yuritiladi. Maqola Behbudiy va Fitratning nasriy va nazmiy asarlaridagi keltirilgan tushunchalarning komleks tadqiqiga asoslangan. Vatan, din va til kabi fundamental konsepsiyalarning milliy hayotidagi o‘rni, milliy uyg‘onish evolyutsiyasi hamda ijtimoiy taraqqiyot asoslaridagi roli adabiy nuqtayi nazardan tahlilga tortilgan. Ushbu konsepsiyalar jadid ijodkorlari asarlaridagi markaziy konsepsiyalar sanalib, ularning o‘rganilishi badiiy adabiyotning yanada keng tadqiq etilishiga xizmat qiladi.

Resume. This article discusses the Jadid movement that developed in Central Asia in the 20th century and the concepts of Homeland, religion, and language reflected in their creative works. The article is based

[1] Ozod Sharafiddinov. Fitrat va uning ikki maqolasi («Tilimiz», «Yopishmagan gajjaklar») & Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 1-jild | Xurshid Davron kutubxonasi

[2] Ozod Sharafiddinov. Fitrat va uning ikki maqolasi («Tilimiz», «Yopishmagan gajjaklar») & Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 1-jild | Xurshid Davron kutubxonasi

[3] Ozod Sharafiddinov. Fitrat va uning ikki maqolasi («Tilimiz», «Yopishmagan gajjaklar») & Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 1-jild | Xurshid Davron kutubxonasi

[4] Fitrat. Muxtasar Islom tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. – B.2.

on a comprehensive study of the concepts presented in the prose and poetry of Behbudiy and Fitrat. The role of fundamental concepts such as Homeland, religion, and language in national life, the evolution of national revival, and the foundations of social development is analyzed from a literary point of view. These concepts are considered central concepts in the works of Jadid artists, and their study serves a broader study of fiction.

Резюме. В данной статье рассматривается движение джадидов, развивавшееся в Средней Азии в XX веке, и концепции Родины, религии и языка, отраженные в их творчестве. Статья основана на комплексном изучении концепций, представленных в прозе и поэзии Бехбуди и Фитрата. Роль таких фундаментальных концепций, как Родина, религия и язык, в национальной жизни, эволюции национального возрождения и основах общественного развития анализируется с литературоведческой точки зрения. Эти концепции считаются центральными в творчестве художников-джадидов, и их изучение служит более широкому изучению художественной литературы.

Ключевые слова: джадидская литература, Родина, религия, язык, концепция, осознание национальной идентичности, развитие, искусство.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 6-7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

АВТОРСКИЕ СКАЗКИ КАК СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ РЕЧЕВОЙ АКТИВНОСТИ

Пардаева Дилфуза Раимовна,
доцент кафедры русского языка и литературы Каршинского государственного университета, доктор философии по филологическим наукам

Рахманова Махлиё Илхомовна,
магистрант Каршинского государственного университета,

Авторские сказки представляют собой самостоятельный жанр, обладающий сложной структурой, включающей элементы традиционного фольклора и индивидуальной авторской интерпретации. Их использование в обучении русскому языку как иностранному (РКИ) позволяет решить задачи, связанные с освоением языковой системы, развитием интерпретационных навыков и формированием лингвокультурной компетенции.

В отличие от народных сказок, авторские произведения демонстрируют разнообразие стилистических регистров, расширенный лексический диапазон и многоуровневую семантическую структуру. Это делает их эффективным инструментом для изучения русской языковой картины мира и анализа национальных концептов, выраженных в художественном тексте.

Методологической основой исследования является анализ структурных, семантических и когнитивных особенностей авторских сказок, а также их функциональной роли в образовательном процессе. Рассматриваются принципы адаптации сказочных текстов к различным уровням владения языком, способы включения их в систему заданий на развитие языковой и коммуникативной компетенции, а также их влияние на освоение категорий текста и дискурса.

Настоящее исследование направлено на выявление потенциала авторских сказок в преподавании РКИ, определение их педагогической ценности и анализ механизмов их интеграции в учебный процесс.

Включение авторских сказок в учебный процесс при преподавании русского языка как иностранного рассматривается как эффективный метод формирования языковой и лингвокультурной компетенции[1]. Авторские произведения обладают большей вариативностью стиля, чем народные сказки, что позволяет адаптировать учебные материалы для разных уровней подготовки студентов[2].

Исследования показывают, что использование авторских сказок в обучении иностранцев способствует обогащению словарного запаса, развитию навыков текстового анализа и усвоению сложных синтаксических конструкций[3]. Литературные произведения данного жанра включают более широкий спектр лексических средств, отражая авторскую индивидуальность и культурный контекст, что расширяет возможности их применения в коммуникативных и когнитивных практиках изучения языка[4].

Функциональная роль сказочных текстов на занятиях по РКИ определяется их способностью моделировать коммуникативные ситуации и предоставлять студентам возможность осваивать языковые модели, ориентированные на аутентичную речь[5]. Анализ существующих методик

[1] Евдокимова А.Г., Балтаева В.Т., Исхакова А.Р. Из опыта использования русских сказок на занятиях по русскому языку как иностранному // Современные проблемы науки и образования. – 2019. – № 5. – С. 72–80.

[2] Поликарпова Е.С. Зарубежный опыт использования русских народных сказок на уроках русского языка как иностранного // Молодой ученый. – 2021. – № 3 (345). – С. 375–377.

[3] Ескараева Г.Б. Роль русской народной сказки в обучении русскому как иностранному языку // Development and Innovations in Science. – 2022. – С. 22–26.

[4] Шарова К.А. Русские народные сказки на занятиях по РКИ в контексте формирования коммуникативной компетенции // Путь в науку. Образование. Педагогика. – 2022. – № 43. – С. 63–64.

[5] Матвеенко В.Э. Лингвометодический потенциал народных сказок в обучении русскому языку как иностранному младших школьников // Диссертация. – 2013.

свидетельствует о том, что авторские сказки могут использоваться в системе заданий, направленных на интерпретацию текста, реконструкцию сюжетных моделей, а также их соотнесение с национально-культурными концептами[1].

Сопоставление авторских и народных сказок позволяет выявить их различия в языковом оформлении и семантической организации, что имеет значение для методики преподавания[2]. В авторских сказках часто наблюдается усложнённая композиция, многоуровневая символика и индивидуальные стилевые особенности, что создаёт дополнительные возможности для изучения текстовой структуры, анализа авторского взгляда на мир и формирования языкового сознания обучающихся[3].

В исследовании применяются аналитико-описательный и контент-аналитический методы, направленные на изучение структурных, семантических и когнитивных особенностей авторских сказок в контексте преподавания русского языка как иностранного. Анализируются тексты, отобранные на основе их языковой и культурологической значимости, с учётом требований к освоению языкового материала на уровнях владения по шкале CEFR.

Материалами исследования служат авторские сказки А. С. Пушкина, Л. Н. Толстого, В. Ф. Одоевского, П. П. Ершова, К. И. Чуковского, Ю. К. Олеши, С. Я. Маршака, Э. Н. Успенского, отражающие специфику авторского стиля и национально-культурных концептов. Рассматриваются тексты, включённые в учебные пособия по РКИ, а также корпусные данные, позволяющие определить частотность и функциональное использование языковых единиц в авторских сказках.

Контент-анализ используется для выделения ключевых лингвокультурных концептов, их структуры и взаимодействия с языковой картиной мира. Сравнительный анализ сопоставляет авторские и фольклорные сказки, выявляя различия в их языковой организации, жанровых характеристиках и дискурсивных особенностях, влияющих на усвоение языкового материала.

Разработана методика практического использования авторских сказок в обучении, включающая систему заданий на анализ лексико-грамматических структур, интерпретацию текста, реконструкцию сюжетных моделей и их соотнесение с национально-культурными представлениями. Включены упражнения на моделирование коммуникативных ситуаций, направленных на развитие продуктивных речевых навыков.

Экспериментальная часть основана на данных, полученных в ходе занятий по РКИ, где анализируются факторы, влияющие на освоение языковой системы и коммуникативных стратегий при работе с авторскими сказками. Рассматриваются показатели усвоения языковых норм, динамика формирования интерпретационных навыков и уровень восприятия лингвокультурной информации обучающимися.

Исследование проводилось среди 120 студентов, изучающих русский язык как иностранный, которые были разделены на контрольную (60 человек) и экспериментальную (60 человек) группы. Контрольная группа занималась по стандартным учебным материалам, а в экспериментальной группе использовались авторские сказки в качестве основного материала для работы с текстом. Продолжительность эксперимента составила 8 недель, в течение которых изучались динамика усвоения лексико-грамматических конструкций, развитие коммуникативных навыков и восприятие культурных концептов.

В начале исследования обе группы показали схожий уровень владения грамматическими структурами. Для оценки прогресса использовался тест, включавший задания на грамматическую трансформацию, заполнение пропусков в тексте и анализ сложных синтаксических конструкций. Через четыре недели обучения контрольная группа продемонстрировала увеличение правильных ответов в тесте с 62% до 68%, а экспериментальная группа – с 61% до 75%. По окончании исследования показатели составили 72% и 82% соответственно.

Пример задания:

Контрольная группа. Заполните пропуски в предложении: **(1) … холодной зимней ночью Иван-царевич встретил (2) … волка, который предложил ему (3) … помощь.**

Экспериментальная группа. Прочитайте отрывок из авторской сказки Л.Н. Толстого «Филипок» и переформулируйте выделенные предложения, сохранив их смысл.

Для оценки устных навыков использовались задания на пересказ, интерпретацию фрагментов

[1] Соловьева Н.В. Применение русских сказок в преподавании РКИ для формирования лексико-грамматических навыков // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – 2020. – № 9. – С. 58–62.

[2] Смирнова Т.И. Авторские сказки как средство обучения русскому языку в билингвальной среде // Вестник педагогических наук. – 2018. – № 6. – С. 99–103.

[3] Черных Л.А. Русская авторская сказка как источник изучения национальной культуры // Язык и культура. – 2021. – № 2. – С. 41–46.

сказок и анализ персонажей. В начале эксперимента контрольная группа набрала в среднем 6,8 баллов из 10 по критериям связности, точности выражения мысли и владения синтаксическими конструкциями. В экспериментальной группе этот показатель составлял 6,7 баллов. Через 8 недель средний балл в контрольной группе повысился до 7,3, в экспериментальной – до 8,2.

Пример задания:

Контрольная группа

Ответьте на вопросы по тексту:

1. Почему герой отправился в путь?
2. Как он справился с трудностями?

Экспериментальная группа

Представьте, что вы журналист, берущий интервью у главного героя сказки. Сформулируйте пять вопросов и ответьте на них от имени персонажа.

Для оценки понимания культурных особенностей языка студенты заполняли анкету, где предлагалось объяснить значения фразеологизмов, использованных в сказках, и описать национально-культурные особенности персонажей. В экспериментальной группе 79% студентов отметили, что сказки помогли им лучше понять русскую культуру, тогда как в контрольной группе этот показатель составил 55%.

Пример задания:

Контрольная группа

Объясните значение выражений:

1. «Скатертью дорога»
2. «Как с гуся вода»

Экспериментальная группа

Прочитайте диалог из сказки и объясните, какие культурные особенности отражены в репликах персонажей.

Таблица 1.

Результаты тестирования усвоения лексико-грамматических конструкций (%)

Группа	До начала эксперимента	Через 4 недели	Через 8 недель	Прирост (%)
Контрольная	62%	68%	72%	+10%
Экспериментальная	61%	75%	82%	+21%

Результаты исследования подтверждают, что использование авторских сказок в обучении русскому языку как иностранному способствует более быстрому усвоению языковых норм и развитию коммуникативных навыков. В отличие от традиционных учебных текстов, авторские сказки включают более сложные синтаксические конструкции и культурно значимые элементы, что стимулирует когнитивные процессы и повышает интерес к изучению языка.

Включение сказок в образовательный процесс позволяет не только повысить уровень языковой компетенции, но и способствует формированию межкультурной компетентности. Полученные данные подтверждают целесообразность дальнейшего исследования влияния различных жанров авторских сказок на процесс освоения языковых структур.

Таким образом, результаты исследования демонстрируют, что использование авторских сказок в обучении русскому языку как иностранному способствует повышению эффективности усвоения языковых норм, развитию коммуникативных навыков и формированию лингвокультурной компетенции. Включение сказочных текстов в учебный процесс позволило студентам экспериментальной группы достичь более высоких показателей в освоении грамматических конструкций и расширении словарного запаса.

Анализ устных и письменных заданий показал, что работа с авторскими сказками стимулирует когнитивную активность, развивает навык интерпретации текста и способствует осмысленному восприятию языковых явлений. Восприятие культурных концептов также оказалось более глубоким у студентов, работавших с литературными сказками, что подтверждает их значимость для формирования межкультурной компетенции.

Практическая ценность проведённого исследования заключается в возможности адаптации методики для различных уровней владения русским языком, включая уровень начальной подготовки (A2) и продвинутый уровень (C1). Полученные результаты подтверждают необходимость дальнейшего изучения влияния авторских сказок на процесс усвоения языка, а также разработки методических рекомендаций по их использованию в образовательном процессе.

Rezume. Maqolada mualliflik ertaklarining rus tilini chet tili sifatida o‘qitishda tutgan o‘rni lingvokultural va metodik imkoniyatlari nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Mualliflik ertaklarining tuzilishi va mazmuniy xususiyat-

lari, ularning til kompetensiyasini shakllantirish va milliy-madaniy konseptlarni o‘zlashtirishdagi funktsional ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Mualliflik ertaklarini ta’lim jarayoniga kiritish bo‘yicha metodik yondashuvlar tahlil qilinib, ularning o‘quvchilarning kognitiv va kommunikativ strategiyalariga ta’siri baholanadi. Ushbu janrdan filologlar va RKI o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida foydalanish zarurligi asoslab beriladi, chunki u lug‘at boyligini kengaytirish, pragmatik normalarni o‘zlashtirish va interpretatsion ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Resume. The article analyzes the role of authored fairy tales in teaching Russian as a foreign language (RFL) from the perspective of their linguistic, cultural, and methodological potential. The structural and semantic features of authored fairy tales are examined, as well as their functional significance in developing language competence and mastering national and cultural concepts. The study includes an analysis of methodological approaches to integrating authored fairy tales into the educational process, considering their impact on the cognitive and communicative strategies of learners. The necessity of using this genre in the training of philologists and RFL teachers is substantiated, as it facilitates vocabulary expansion, acquisition of pragmatic norms, and development of interpretative skills.

Резюме. В статье анализируется роль авторских сказок в обучении русскому языку как иностранному (РКИ) с точки зрения их лингвокультурного и методического потенциала. Рассматриваются структурные и содержательные особенности авторских сказок, их функциональная значимость в формировании языковой компетенции и освоении национально-культурных концептов. Проведён анализ методических подходов к включению авторских сказок в образовательный процесс, учитывая их влияние на когнитивные и коммуникативные стратегии обучающихся. Обоснована необходимость использования данного жанра в обучении филологов и преподавателей РКИ для расширения лексического запаса, освоения прагматических норм и развития интерпретационных навыков.